169. Qaysi asarda qora boshning yovi qizil til ekanligi aytilgan?
A) Sa'diy She'roziy, "Guliston"
B) Alisher Navoiy, "Mahbub ul-qulub"
C) Yusuf Xos Hojib, "Qutadg'u bilig"
D) Ahmad Yugnaki "Hibat ul-haqoyiq"

170. "Bor molingni sevasan, unga kamroq sevin, chunki u qo'lingdan chiqib ketishi mumkin. Qo'lingdan ketgan narsa uchun qayg'urma, unga ozroq achin. Chunki achinish senga qo'ldan ketganni qaytarib bermaydi". Ushbu parcha olingan asar haqidagi to'g'ri hukmlarni aniqlang.
1) asarda olim turkiy tildagi so'zlar ma'nosini uyg'ur tilida izohlab beradi;
2) asarda Qoraxoniylar shajarasiga batafsil tavsif berilgan;
3) asarda maqollar va badiiy adabiyotdan parchalar keltirilgan;
4) asar qomusiy ahamiyatga ega;
5) asarda olim turkiy tildagi so'zlar ma'nosini arab tilida izohlab beradi.
A) 1, 2, 3, 4
B) 1, 3, 4
C) 3, 4, 5
D) 2, 3, 4, 5

171. Ahmad Yassaviy necha yoshida "tuproqsifat bo'ldim mano" deydi?
A) o'n bir
B) o'n ikki
C) o'n uch
D) o'n to'rt

172. Ahmad Yassaviy nimani "yobon" (yovvoyi) qush" deb ataydi?

A) zulmni
B) nafsni
C) jaholatni
D) xiyonatni

173. "... seni boqib tursang nelar demas,
Zori qilsang Olloh sari bo'yun sunmas.
Qo'lg'a olsang yobon qushdekqo'lg'a qo'nmas,
Qo'lg'a olib tun uyqusin qilg'il bedor". "Hikmat"dan olingan ushbu parchada nuqtalar o'rniga kerakli so'zni qo'ying.
A) moling
B) nafsing
C) zulming
D) jaholating

174. Quyidagi asarlarning qaysi birida "bu mast ko'zli (seviklim) porloq yuzidagi yoqimli qora xoli bilan meni asir qiladi. Xuddi (go'zal) yonoqlaridan shirinlik tomayotganday meni asir qiladi-da, so'ng mendan qochadi" kabi go'zal badiiy lavhalarni ko'ramiz?
A) "Hibat ul-haqoyiq"
B) "Yatimat ut-dahr"
C) "Devoni lug'ot it-turk"
D) "Qutadg'u bilig"

175. "...haq subhonahu taolo agarchi zohir ko'zin yopuq yaratqondur, ammo ko'ngli ko'zin ba'yat yoruq qilondur". Ahmad Yugnakiy haqidagi ushbu fikrlar muallifini aniqlang?
A) Husayn Bayqaro
B) Alisher Navoiy
C) Bobur
D) Nodira

176. Adabiyot tarixida "...haq subhonahu taolo zohir ko'zin yopuq yaratqon, ammo ko'ngli ko'zin ba'yat yoruq qilon" alloma kim?
A) Lutfiy
B) Sakkokiy
C) Atoyi
D) Yugnakiy

177. "Hibat ul-haqoyiq" asari kimga bag'ishlangan?
A) Abulqosim binni al-Muqtadoga
B) Nosiruddin To'qbug'aga
C) Tavg'ach ulug' Bug'raxonga
D) Dod Sipohsolorbekka

178. Quyidagilardan Dod Sipohsolorbekka bag'ishlangan asarni aniqlang.
A) "Devoni lug'ot it-turk"
B) "Muhabbatnoma"
C) "Hibat ul-haqoyiq"
D) "Qutadg'u bilig"

179. "Tamomi erur qashqariy til bila,
Ayitmish adib riqqati dil bila.
Agar bilsa qashqar tilin har kishi,
Bilur ul adibning nekim aymishi" deya o'z asarini qashqarcha til bilan

yozilganini ta'kidlagan adibni aniqlang.
A) Ahmad Yugnakiy
B) Yusuf Xos Hojib
C) Mahmud Qoshg'ariy
D) Nosiruddin Rabg'uziy

180. "Hibat ul-haqoyiq" asarida qanday g'oyalar tashviqi yetakchi o'rin tutadi?
A) rahbarlik qoidalari
B) an'ana va urf-odatlar
C) vatanparvarlik
D) ma'rifat

181. "Ulug'likka yetishsang yanglishma, agar atlas kiysang, bo'z kiyganingni unutma. Ulug'lingga yarasha yaxshiroq bo'lib, ulug'ga, kichikka so'zingni silliq, muloyim qil". Ushbu jumla tegishli bo'lgan asar necha bob va necha baytdan iborat?
A) 14 bob, 254 bayt
B) 10 bob, 425 bayt
C) 24 bob, 524 bayt
D) 10 bob, 245 bayt

182. "Xos ishqingni ko'rsat manga shokir bo'lay,
Arra qo'ysa, Zikriyodek zokir bo'lay,
Ayyub sifat balosig'a sobir bo'lay,
Har ne qilsang, oshiq qilg'il, parvardigor". She'r muallifi kim va she'rda qanday badiiy san'at qo'llanilgan?
A) Alisher Navoiy, sifatlash
B) Ahmad Yassaviy, talmeh
C) Ahmad Yugnakiy, tazod
D) Sayfi Saroyi, istiora

183. Olim Mahmud Qoshg'ariy o'z asarini maxsus alifbe tartibida tuzib, uni qanday badiiy tasviriy vositalar bilan bezaganini yozadi?
1) hikmatli so'zlar;
2) sajlar;
3) maqollar;
4) rajaz;
5) maqollar;
6) nasr.
A) 2, 4, 5
B) 1, 2, 3, 4, 6
C) 2, 3, 4, 5
D) 1, 2, 3, 4, 5, 6

184. Quyidagi asarlarning qaysi birida O'rta Osiyoda yashagan turkiy xalqlarning XI asrgacha bo'lgan badiiy ijodi to'g'risida juda qimmatli ma'lumotlar jamlangan?
A) "Hibat ul-haqoyiq"
B) "Yatimat ut-dahr"
C) "Devoni lug'ot it-turk"
D) "Qutadg'u bilig"

185. Yusuf Xos Hojib o'z asarida qaysi ijtimoiy tabaqa haqida "hamma qimirlagan jonga bulardan manfaat bo'ladi, hammasiga yeyim va ichimdan halovat yetadi, hamma nafas oluvchi, ochiqib-to'yuvchi, jamiki tiriklar bulardan hojatmand bo'ladi" deydi
A) dehqonlar
B) chorvadorlar

C) hunarmandlar
D) harbiylar

186. "Bulnar meni ulas ko'z,
Qara mengiz qizil juz.
Andin tamar tugal tuz,
Bulnap jana ul qachar".
Ushbu parcha qaysi asardan olingan va ostiga chizilgan so'zning ma'nosi nima?

A) "Hibat ul-haqoyiq", ulas-xol, mengiz-yoqimli, tuz-yoqimlilik, bulnap-asir qilib
B) "Yatimat ut-dahr", ulas-yoqimli, mengiz-xol, tuz-yurmoq, bulnap-kulib
C) "Devoni lug'ot it-turk", ulas-yoqimli, mengiz-xol, tuz-yoqimlilik, bulnap-asir qilib
D) "Qutadg'u bilig", ulas-qizil, mengiz-qiz, tuz-yoqimlilik, bulnap-asir qilib

187. "Ipor to'ldi bo'z yerga kofur ketib,
Bezanmoqchi dunyo chiroy kasb etib.
Zerikarli qishni bahor quvladi,
Chiroyli bahor o'z yoyin sozladi". Ushbu misralarda qanday badiiy san'atlar qo'llanilgan?

A) sifatlash, tazod
B) tazod, jonlantirish
C) sifatlash, jonlantirish
D) jonlantirish

188. "Qutadg'u bilig"da qaysi qushning uni shallaqi qizning unidek deb tasvirlanadi?

A) o'rdak
B) g'oz
C) kaklik
D) qarg'a

189. "Qutadg'u bilig"da qaysi qush soz ovozli, qizil og'zi qondek, qoshi qop-qora deya tasvirlanadi?

A) o'rdak
B) g'oz
C) kaklik
D) qarg'a

190. "Qutadg'u bilig"da qaysi qush chechakzorda tun-u kun suri Isrofilni chalib sayrar edi deya tasvirlanadi?

A) o'rdak
B) g'oz
C) kaklik
D) andalib

191. "Qutadg'u bilig"dagi sanvach qaysi qushning nomi?

A) bulbul
B) sa'va
C) kaklik
D) popishak

192. "Qutadg'u bilig"dagi chumg'uq qaysi qushning nomi?

A) chumchuq
B) qarg'a
C) kaklik
D) popishak

193. "Koyinib menga ochdi dunyo so'zin,
Dedi, ko'rmadingmi bu xoqon yuzin.
Gar uyquda bo'lsang, tur, och endi ko'z,
Eshitmagan ersang, eshit ushbu so'z" so'zlari kimga tegishli?
A) Mahmud Qoshg'riy
B) Yusuf Xos Hojib
C) Xorazmiy
D) Nosiruddin Rabg'uziy

194. "Bulut guldirab urdi xoqon tug'in,
Yashin yashnadi, tortti xoqon tig'in.
Biri chiqdi qindan, u ellar tutar,
Biri dovrug'i naq jahonga yetar.
Qut olsin, nasib bo'lsin ikki jahon". Ushbu misralarda qaysi hukmdor madh etilmoqda?
A) Abulqosim al-Muqtado
B) Nosiruddin To'qbug'a
C) Tavg'ach ulug' Bug'raxon
D) Muhammad Xo'jabek

195. Quyidagi asarlarning qaysi birida "qo'zilar bilan bo'rilar xavfsiz birga yashaydigan davlat" haqidagi g'oyalar ilgari surilgan?
A) "Fozil odamlar shahri"
B) "Saddi Iskandariy"
C) "Devoni lug'ot it-turk"
D) "Qutadg'u bilig"

196. "Qilichimiz bilan qayg'uni ochaylikki, ahmoqlar yo'lga tushsinlar, mamlakat (ishi) tuzalsin, qo'zilar bilan bo'rilar (xavfsiz) birga yursinlar, bizdan qayg'u-g'am yo'qolsin". Ushbu fikrlar qaysi asardan o'rin olgan?
A) "Fozil odamlar shahri"
B) "Saddi Iskandariy"
C) "Devoni lug'ot it-turk"
D) "Qutadg'u bilig"

197. Quyidagi asarlarning qaysi birida "har turli chechaklar ochildi, xuddi (sernaqsh) ipak gilamlar yozilganday.
Jannat yeri ko'rildi. Sovuq hech qaytib kelmas darajada
havo isidi" kabi bahor ta'rifiga bag'ishlangan go'zal
tasvirlarni uchratish mumkin?
A) "Hibat ul-haqoyiq"
B) "Yatimat ut-dahr"
C) "Devoni lug'ot it-turk"
D) "Qutadg'u bilig"

198. "Qizil, sarig' arqashib,
Jepkin, jashil yuzkashib,
Bir-bir kero' yo'rkashib,
Yalinguq ani tanglashur".
Ushbu to'rtlik muallifi bo'lgan shaxs qayerda tug'ilgan va to'rtlikdagi ostiga chizilgan so'zlar ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?
A) Nishopur, yuzkashib-bezamoq, yo'rkashib-

o'ralib

B) Yuganak, yuzkashib-yuzlashib, yo'rkashib-o'ynashib

C) Bolosog'un, yuzkashib-bezamoq, yo'rkashib-o'ralib

D) Quz O'rda, yuzkashib-yuzlashib, yo'rkashib-o'ralib

199. Hijriy 429, milodiy 1038-yilda Nishopurda vafot etgan allomaning tazkirasi nomining tarjimasi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

A) "Mag'izlarning mag'izi"

B) "Asr ahlining fozillari haqida zamonasining durdonasi"

C) "Haqiqatlar armug'oni"

D) "Suhbatdoshlarning zikri"

200. Quyidagilardan yahudiy payg'ambarlardan bo'lib, xudo bilan so'zlashgani uchun "kalimulloh" unvoniga sazovor bo'lgan shaxsni aniqlang.

A) Iso

B) Muso

C) Nuh

D) Sulaymon

201. "Gunohingga tavba qilib yig'lab yurg'il,
Ketarman deb yo'l boshig'a borib turg'il.
Ketganlarni ko'rub sen ham ibrat olg'il,
Ibrat olsang yotmish yering bo'lur gulzor".
Nafsning zabun etish qanchalik darkorligi haqidagi ushbu misralar qaysi asarga tegishli ekanligini aniqlang.

A) "Ma'naviyi masnaviy"

B) "Hikmat"

C) "Al-usul al-ashara"

D) "Hayrat ul-abror"

202. "Qozi, imom bo'lg'onlar, nohaq da'vo qilg'onlar,
Himor yanglig' bo'lubon, yuk ostida qolmishlar.
Harom yegan hakimlar, rishva olib yeganlar,
O'z barmog'in tishlabon, qo'rqub-ko'rub qolmishlar".
Ushbu so'fiyona misralar qaysi asarga tegishli ekanligini aniqlang.

A) "Ma'naviyi masnaviy"

B) "Al-usul al-ashara"

C) "Hikmat"

D) "Hayrat ul-abror"

203. "Dunyo uchun g'am yema, Haqdin o'zgani dema,
Kishi molini yema, sirot uzra tutaro.
Ahli ayol, qarindosh, hech kim bo'lmaydur yo'ldosh,
...". Ushbu she'riy parchaning davomi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

A) Mardona bo'l g'arib bosh, umring yeldek o'taro

B) To'rt ayog'lig' cho'bin ot,
bir kun sanga yetaro.
C) Inonmag'il moling,
bir kun qo'ldin ketaro
D) Asling bilsang, ob-u
gil, yana gilga ketaro

204. Quyidagilardan kofirlar zulmidan qochib daraxt ichiga yashirinib, kofirlar daraxt bilan birga uni arralaganlarida ham xudoni tilidan qo'ymagan payg'ambarni aniqlang.
A) Ayyub
B) Muso
C) Nuh
D) Zikriyo

205. Ma'lum bo'lishicha, quyidagi qaysi janrlar keyinchalik qasidadan ajralib chiqqan, deyiladi?
1) vasf;
2) hajv;
3) marsiya;
4) masnaviy;
5) g'azal;
6) urjuza.
A) 1, 2, 3, 5
B) 1, 3, 6
C) 3, 5, 6
D) 2, 4, 5, 6

206. "Yatimat ad-dahr" asarida Abu Mansur at-Tohiriy "Ikkita narsa bor, agar ko'zlarim ular haqida qon to'kib yig'laganda, ularga halokatdan xabar qilingan bo'lardi va ular yashashi kerak bo'lgan vaqtning o'ndan birini ham ko'rmagan bo'lardilar" deydi. Bu ikkita narsa nima?
A) moddiy qiyinchilik va ota-onadan judo bo'lish
B) yoshlikning o'tib ketishi, do'stlardan judo bo'lish
C) baxtsizlik va moddiy qiyinchilik
D) ma'naviy zaiflik va ota-onadan judo bo'lish

207. Quyidagilardan turkiy tilda birinchi yirik hajmli adabiy-ma'rifiy asar yozgan iste'dodli shoir, davlat arbobi, donishmand adibning asari nomining tarjimasi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) "Ko'ngullarning sevgani"
B) "Asr ahlining fozillari haqida zamonasining durdonasi"
C) "Haqiqatlar armug'oni"
D) "Baxt-saodatga eltuvchi bilim"

208. Quyidagi qaysi asar bir yarim yil yani, o'n sakkiz oyda yozib tugatilgan?
A) "Qutadg'u bilig"
B) "Devoni lug'ot it-turk"
C) "Guliston bit-turkiy"
D) "Mahbub ul-qulub"

209. Quyidagi qaysi asar Qashg'ar eligi Tavg'ach ulug' Bug'roxonga bag'ishlangan?
A) "Devoni lug'ot it-turk"
B) "Yatimat ad-dahr"

C) "Hibat ul-haqoyiq"
D) "Qutadg'u bilig"

210. "Saba yeli qo'pti qaranful yidin,
Ajun barcha butru yipar burdi kin". "Qutadg'u bilig"dan olingan ushbu parchadagi ostiga chizilgan so'zning ma'nosi nima?
A) qizg'aldoq
B) lola
C) momaqaymoq
D) chinnigul

211. Yusuf Xos Hojib o'z asarida nozik, to'g'ri yo'l tutmoq va ehtiyotkor bo'lmoq uchun, qanday amal shartligini aytadi?
A) dehqonchilik qilmoqlik
B) halqumni poklamoqlik
C) sadaqa bermoqlik
D) to'g'ri so'zlamoqlik

212. Ahmad Yugnakiy haqida Alisher Navoiy o'zining qaysi asarida juda muhim ma'lumotlarni beradi?
A) "Nasoyim ul-muhabbat"
B) "Majolis un-nafois"
C) "Mezon ul-avzon"
D) "Sab'atu abhur"

213. "Hibat ul-haqoyiq" asari qaysi vaznda yozilgan?
A) aruzning ramal bahrida
B) barmoq vaznida
C) aruzning mutaqorib bahrida
D) aruzning rajaz bahrida

214. "Ey til, madh qil, qani bayon et, men uni shohimga sovg'a qilayin, o'qimishli kishining ruhi sevinsin (deb) shohim madhi uchun kitob bezadim" deya asar yozgan adibni belgilang,
A) Ahmad Yugnakiy
B) Yusuf Xos Hojib
C) Xorazmiy
D) Nosiruddin Rabg'uziy

215. "Kibrlilik libosini kiyib, ko'ksingni xalqqa kerib, tiling bilan ozor berishdan saqlan. Mo'minlikning nishoni tavozedir, agar mo'min bo'lsang, tavoze qilgin". Ushbu fikrlar tegishli bo'lgan asarning birinchi bo'limi nima haqida?
A) ilm manfaati, jaholat zarari
B) tilni tiyish va adab-axloq
C) dunyoning o'zgarib turishi
D) saxovat va baxillik oqibati

216. "Xudojo'y, muloyim qiliqni xudo ham yoqtiradi, takabbur kishini tubanlashtiradi. O'zingni zinhor ulug' tutma, ulug' bir tangrining o'zidir. U ulug'likni mensiz olishga urinmang, deb aytgan". Ushbu fikrlar tegishli bo'lgan asarning ikkinchi bo'limi nima haqida?
A) ilm manfaati, jaholat zarari
B) tilni tiyish va adab-axloq

C) dunyoning o'zgarib turishi
D) saxovat va baxillik oqibati

217. Quyidagi qaysi asarning so'ngi bo'limi "axloqning karomati, harislikni tashlash" haqida?
A) "Guliston bit-turkiy"
B) "Muhabbatnoma"
C) "Hibat ul-haqoyiq"
D) "Qutadg'u bilig"

218. "Totlig'-totlig' yegonlar, turlik-turlik kiygonlar,
Oltun taxtda turg'onlar, tufroq aro yotmishlar.
Mo'min qullar, sodiqlar, sidqi birla turg'onlar,
Dunyolig'in sarf etib, uchmog' hurin quchmishlar". Ushbu so'zlar kimga tegishli ekanligini aniqlang.
A) Ahmad Yassaviy
B) Najmiddin Kubro
C) Jaloliddin Rumiy
D) Navoiy

219. Quyidagilardan badanini yara bosib, qurtlagan bo'lsa-da, chidagan va xudoning inoyati bilan tuzalgan, sabr timsoli bo'lganpayg'ambarni aniqlang.
A) Ayyub
B) Muso
C) Nuh
D) Zikriyo

220. "Tama qilma nodonlardin, qadring bilmas,
Zulmat yo'l ichra adashsang, yo'lg'a solmas,
Bo'ynung qisib, zori qilsang, qo'ling olmas,
Nodonlardin shikva aylab keldim mano" misralari muallifini aniqlang.
A) Yusuf Xos Hojib
B) Ahmad Yassaviy
C) Najmiddin Kubro
D) Jaloliddin Rumiy

221. Yusuf Xos Hojib "kishilar aro chin kishi shul erur" deya qanday insonlarni nazarda tutadi?
A) ilmli
B) rostgo'y
C) mehnatkash
D) birovga nafi tegadigan

222. "Hikmatimdin bahra olg'on ko'zga sursun,
Ixlos bilan ko'zga surtub, diydor ko'rsun,
Sharti uldur — riyozatg'a bo'yun sunsun,
Jonlar chekib, jononani ko'rdum mano".
Ushbu misralar qaysi asarga tegishli ekanligini aniqlang.
A) "Ma'naviyi masnaviy"
B) "Al-usul al-ashara"
C) "Hikmat"
D) "Hayrat ul-abror"

223. "Diydor uchun gado bo'ldum, omin denglar,
Ey toliblar, holim ko'rub, g'amim

...englar,
Yo'lda qolg'on ...ga yo'l beringlar,
Yo'lni izlab, gado bo'lub keldim
mano". Nuqtalar o'rniga kerakli
shaxs nomini qo'ying.
A) Qul Ahmadga
B) Najmiddinga
C) Jaloliddinga
D) Navoiyga

224. "Nodon birla o'tkan umring nori saqar,
Nodon borsa, do'zax andin qilg'oy hazar". Ostiga chizilgan so'zning ma'nosi nima?
A) arosat
B) yo'qotish
C) o'zax
D) katta xato

225. Qaysi asarning Qohira, Vena, Namangan kabi nusxalari bor?
A) "Hibat ul-haqoyiq"
B) "Yatimat ut-dahr"
C) "Qutadg'u bilig"
D) "Devoni lug'ot it-turk"

226. "Ko'ni so'z asal tek, bu yalg'on basal,
Basal yeb achitma ag'iz, ye asal". "Hibat ul-haqoyiq"dan olingan ushbu parchadagi "basal" so'zining ma'nosini izohlang.
A) piyoz
B) qalampir
C) sarimsoq
D) zahar

227. Quyidagi adiblardan qaysi biri o'z asarlarining birida "qo'zilar bilan bo'rilar xavfsiz birga yashaydigan davlat" haqidagi g'oyalarni ilgari surgan?
A) Abu Nasr Forobiy
B) Alisher Navoiy
C) Yusuf Xos Hojib
D) Mahmud Qoshg'ariy

228. "Endik kishi titilsun,
El toruyetilsun,
Toqli bo'ri jetilsun,
Qazg'u yema savilsun".
Ushbu parcha qaysi asardanolingan va ostiga chizilgan so'zning ma'nosi nima?
A) "Devoni lug'ot it-turk", endik-aqlsiz, toru-adolat
B) "Hibat ul-haqoyiq", endik-endigi, toru-tuzoq
C) "Yatimat ut-dahr", endik-tushdik, toru-to'g'rilik
D) "Qutadg'u bilig", endik-qo'rqoq, to'q

229. Quyidagi asarlarning qaysi birida "Yigitlarni ishlatib, daraxt mevalarini qoqtiraylik, turli yovvoyi hayvonlar (qulon) va boshqalarni ovlatib, bir necha kun bayram qilib yayraylik" kabi turkiylarga xos an'anaviy go'zal tasvirlarni uchratish mumkin?
A) "Hibat ul-haqoyiq"
B) "Yatimat ut-dahr"
C) "Qutadg'u bilig"
D) "Devoni lug'ot it-turk"

230. "Yashirin tuzoqni ko'rmay, mening oyog'im ilindi, uzoq vaqt qiynaldim, ey seviklim, endi o'zing davola". Ushbu tasvir qaysi asardan o'rin olgan?
A) "Devoni lug'ot it-turk"
B) "Hibat ul-haqoyiq"
C) "Yatimat ut-dahr"
D) "Qutadg'u bilig"

231. "Ilm-u donishni istadim. Ilmli, donishmandlarni qidirdim. O'zimni odamlar orasidan ayirdim. Buning uchun oq yolli otim yechildi". Ushbu fikrlar muallifi bo'lgan ijodkorning qabri hozir qayerda joylashgan?
A) Xitoy Xalq Respublikasida
B) Qirg'izistonda
C) O'zbekistonda
D) Afg'onistonda

232. Har qaysi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qatmaydigan "Bahor ko'rkiga, uning rang-barang gullariga, chiroyliligiga ishonma, undan yaxshilik umid qilma, yomonlikka otlanma, tilingdan doim xalq sendan minnatdor bo'ladigan yaxshi so'zlar chiqsin" kabi ibratomuz o'gitlar muallifi berilgan javob variantini aniqlang.
A) Alisher Navoiy
B) Mahmud Qoshg'ariy
C) Abu Mansur as-Saolibiy
D) Yusuf Xos Hojib

233. Quyidagilardan marsiya janrida yozilgan asarni belgilang.
A) "To'nyuquq"
B) "Alp Er To'nga"
C) "Qish va yoz"
D) "Gul va Navro'z"

234. Do'st in'omga umid qilganda va dushman yomonlikdan qo'rqqanda, biz seni sinab ko'rdik. Tashakkur aytuvchi sening haqingda yomon fikrga kelishidan qo'rqmaganingda, noshukurni yomonlik bilan jazolamagan bo'lardik" kabi "Yatimat ad-dahr"dan olingan ushbu falsafiy fikrlar muallifini aniqlang.
A) Abul-Hasan Al-Haroniy
B) Muhammad ibn Xotim
C) Muhammad ibn Zayd
D) Ali ibn Matron

235. "Erinchig qishig' surdi yazqi esin,
Yaruq yaz yana qurdi davlat yasin". Ushbu baytdagi "yaz" qaysi fasl?
A) bahor
B) yoz
C) kuz
D) qish

236. "Yashiq yandi bo'lg'ay yana o'rniga,
Baliq qudruqindin qo'zi burniga".
Ushbu baytdagi "yashiq" so'zining

ma'nosi nima?
A) yoshlik
B) kun
C) quyosh
D) jannat

237. Yusuf Xos Hojib o'z asarida tag'in qaysi toifa haqida gapirib, "bular mutlaqo kerakli kishilardir, sen bular bilan aralash hamda qovush, tomoq jihatidan tashvishsiz yashaysan" deydi?
A) chorvadorlar
B) dehqonlar
C) hunarmandlar
D) harbiylar

238. Ahmad Yassaviy she'riyatidagi qaysi timsollar bevosita tasavvuf bilan aloqador holda yuzaga kelgan.
1) pir;
2) darvesh;
3) oshiq;
4) yo'l;
5) oqil;
6) zohid
A) 1, 2, 4, 5
B) 1, 2, 3, 5, 6
C) 1, 3, 5, 6
D) 2, 3, 4, 5, 6

239. "Nodon birla o'tkon umring nori saqar,
Nodon borsa, do'zax andin qilg'oy hazar.
Nodor birla do'zax sari qilmang safar,
Nodon ichra xazon yanglig' so'ldum mano".
Ushbu she'r muallifi o'z she'rlarini qanday shaklda yaratgan?
A) ikkilik
B) uchlik
C) to'rtlik
D) beshli

240. "Nafsing seni oxir damda gado qilg'ay,
Din uyini g'orat qilib ado qilg'ay,
O'lar vaqtda iymoningdin judo qilg'ay,
Oqil ersang nafsi baddin bo'lg'in bezor". Ushbu misralar muallifini toping.
A) Ahmad Yassaviy
B) Najmiddin Kubro
C) Jaloliddin Rumiy
D) Navoiy

241. "Ishq yo'lida fano bo'lay haq bir-u bor,
Har ne qilsang, oshiq qilg'il, parvardigor" deya yaratganga o'tingan shoirni aniqlang.
A) Ahmad Yassaviy
B) Najmiddin Kubro
C) Jaloliddin Rumiy
D) Navoiy

242. "Dard-u holat tug'yon qildi, bormu tabib,
Arzi holim sango aytay, yalg'uz <u>habib</u>,
Barcha tolib ulush oldi, man benasib,
Ulush istab, <u>duto</u>bo'lub keldim mano". She'r muallifi kim va ostiga chizilgan so'zlarning

ma'nosi nima?
A) Yusuf Xos Hojib, habib-do'st, duto-egilgan
B) Ahmad Yassaviy, habib-Olloh, duto-egilgan
A) Najmiddin Kubro, habib-yor, duto-egilgan
B) Jaloliddin Rumiy, habib-do'st, duto-tolib

243. "Xonumoning tark aylabon ulush olg'il,
Ey bexabar, dunyo ishin orqa solg'il,
Olloh saxiy, lutfin ko'rub, hayron qolg'il,
Ko'rarman deb, fano bo'lub keldim mano".
misralari muallifini aniqlang.
A) Yusuf Xos Hojib
B) Ahmad Yassaviy
C) Najmiddin Kubro
D) Jaloliddin Rumiy

244. Xalq orasida "Madinada Muhammad, Turkistonda Xoja Ahmad" naqli kimga nisbatan ishlatilgan?
A) Ahmad Yugnakiy
B) Ahmad Yassaviy
C) Ibrohim Adham
D) Ahmad al-Farg'oniy

245. "Yigitlarni ishlatib, daraxt mevalarini qoqtiraylik, turli yovvoyi hayvonlar (qulon) va boshqalarni ovlatib, bir necha kun bayram qilib yayraylik". "Devoni lug'ot it-turk"dan keltirilgan ushbu parchada qaysi holat tasvirlangan?
A) bahor tasviri
B) uloq chopish tasviri
C) o'yin-kulgi tasviri
D) Navro'z tasviri

246. Qaysi shoir tasavvufda komillikka erishib borishni yoshlari silsilasida aks ettirgan?
A) Yusuf Xos Hojib
B) Ahmad Yassaviy
C) Najmiddin Kubro
D) Jaloliddin Rumiy

247. "Turlug chechak yarildi,
<u>Barchin</u> yazim <u>kerildi</u>,
<u>Uchmaq</u> yeri ko'ruldi,
<u>Tumlug'</u>yana kelgusuz".
Ushbu parcha qaysi asardan olingan va ostiga chizilgan so'zlarning ma'nosi nima?
A) "Hibat ul-haqoyiq", barchin-qizlar, kerildi-kirib keldi, uchmaq-jannat, tumlug'-sovuq
B) "Yatimat ut-dahr", barchin-ipak, kerildi-yozildi, uchmaq-qushlar, tumlug'-to'liq
C) "Devoni lug'ot it-turk", barchin-ipak, kerildi-yozildi, uchmaq-jannat, tumlug'-sovuq
D) "Qutadg'u bilig", barchin-qizlar, kerildi-kirib keldi, uchmaq-jannat, tumlug'-sovuq

248. "<u>Igladi</u> mening azaq,
Ko'rmazib o'g'ri tuzaq,
<u>Ikladim</u> andin uzaq,
<u>Emlagil</u> emdi tuzaq. Ushbu

parcha qaysi asardan olingan va ostiga chizilgan so'zlarning ma'nosi nima?
A) "Hibat ul-haqoyiq", igladi-kasalladi, ikladi-ilindi, emlagil-davola
B) "Yatimat ut-dahr", igladi-ilindi, ikladi-kasalladi, emlagil-kelgil
C) "Devoni lug'ot it-turk", igladi-ilindi, ikladi-kasalladi, emlagil-davola
D) "Qutadg'u bilig", igladi-kirdi, keldi, ikladi-kasalladi, emlagil-davola

249. M. Qoshg'ariy she'riy parchalari, asosan, qanday usulda yaratilgan?
A) ikkilik (masnaviy)
B) uchlik (musalsal)
C) to'rtlik (murabba')
D) beshlik (muxammas)

250. "Yaruq yulduz tug'arda,
Uznu kelip baqarman,
Satula-yu sayraship,
Tatlig'unun qush utar".
To'tlik qaysi asarga mansub va ostiga chizilgan so'zlarning ma'nosi nima?
A) "Devoni lug'ot it-turk", uznu-uyg'onib, utar-sayrar
B) "Hibat ul-haqoyiq", uznu-yuziga, utar-sayrar
C) "Yatimat ut-dahr", uznu-uyg'onib, utar-yutar
D) "Qutadg'u bilig", uznu-yuziga, utar-sayrar

251. "Devoni lug'ot it-turk"dagi to'rtlik va ikkiliklar, asosan, qanday mavzuda?
A) pand-nasihat va o'git
B) marsiya
C) qasida va madh
D) insoniy kechinmalar

252. "Alp Er To'nga" marsiyasi qanday qofiyalanishga ega?
A) a-b-a-b
B) a-a-a-a
C) a-b-b-a
D) a-a-a-b

253. "Alp Er To'nga" marsiyasining har bir misrasi necha bo'g'indan tuzilgan?
A) yetti
B) sakkiz
C) to'qqiz
D) o'n

254. "Yatimat ad-dahr" asarining to'rtinchi qismiga qaysi davrda yashgan ijodkorlar kiritilgan?
A) X-XI asrda
B) VII-VIII asrda
C) IX-X asrda
D) VIII-IX asrda

255. "Agar singsa mehnat biror narsaga,
Shu narsa sevik jon kabi barchaga,
Kishi cheksa zahmat hayot sarf etib,
Uni sevsin, olsin yukin yelkaga". Ushbu to'rtlik tegishli bo'lgan

asarning qaysi nusxasi uyg'ur yozuvida ko'chirilgan?
A) Qohira
B) Namangan
C) Hirot
D) Moskva

256. Adabiyot tarixida qaysi hukmdorga "yo'l-yo'riq bilmas kishiga bilim o'rgatadi, yo'l ko'rsatadi, uning vujudi ehsonga to'la, himmati balanddir, u aql, hush, yaxshi xislat makonidir, bilim manbai ham fazilat konidir" deya ta'rif berilgan?
A) Husayn Bayqaroga
B) Nosiruddin To'qbug'aga
C) Muhammad Xo'jabekka
D) Dod Sipohsolorbekka

257. "Kibrlilik qilishing mol-dunyo tufayli bo'lsa, kibrga qo'l cho'zishing (ham mol-dunyo) tufaylidir. Mol-dunyoning foydasi nimaga arziydi, (o'lganda) yalang'och ketasan, hamyoning, to'rvang, sandig'ing qolib ketadi." Ushbu fikrlar tegishli bo'lgan asarning uchinchi bo'limi nima haqida?
A) ilm manfaati, jaholat zarari
B) tilni tiyish va adab-axloq
C) dunyoning o'zgarib turishi
D) saxovat va baxillik oqibati

258. Quyidagi qaysi asarning ik bo'limi "ilm manfaati, jaholat zarari" haqida?
A) "Mahbub ul-qulub"
B) "Muhabbatnoma"
C) "Hibat ul-haqoyiq"
D) "Qutadg'u bilig

259. "Kishi boshiga tushgan har qanday ish uning tili tufayli sodir bo'ladi, bu til sababli ayrimlar yaxshilik, ayrimlar yomonlik ko'radi. Bu o'git barchaga teng, ular so'zni tilga jo qilib sig'inadilar". Ushbu fikrlar qaysi asarga tegishli?
A) "Hayrat ul-abror"
B) "Mahbub ul-qulub"
C) "Yatimat ut-dahr"
D) "Hibat ul-haqoyiq"

260. "Siringni mahkam tut, uni kishi bilmasin, so'zingdan o'zingga o'kinch kelmasin. Barcha yashirin ishlaring oshkora bo'lib, ko'rgan, eshitgan kishilar senga kulmasin".
Ushbu o'gitlar qaysi asarga tegishli ekanligini aniqlang.
A) "Gulshan ul-asror"
B) "Hibat ul-haqoyiq"
C) "Yatimat ad-dahr"
D) "Miftoh ul-adl"

261. Quyidagi qaysi asarda dunyo rabotga o'xshatiladi?
A) "Mahbub ul-qulub"
B) "Muhabbatnoma"
C) "Qutadg'u bilig
D) "Hibat ul-haqoyiq"

262. Qaysi asarda "bu dunyo

boyligi orqasidan qancha kishilar yugurmoqda, xasis ham boylik foydali deb o'zini qiynaydi. Buncha ham moyaga ko'ngil qo'ymoq ne kerak. Bu boylik kelsa ko'payadi, ozayadi va yo'q bo'ladi" deyiladi?

A) "Hibat ul-haqoyiq"
B) "Mahbub ul-qulub"
C) "Muhabbatnoma"
D) "Qutadg'u bilig"

263. Qaysi adib tasavvufni inson ma'naviyatini yuksaltiruvchi muhim omil sifatida bilib, bundan maqsad insoniyatni to'g'ri yo'lga da'vat etishligini qayd etgan?

A) Yusuf Xos Hojib
B) Ahmad Yassaviy
C) Mahmud Qoshg'riy
D) As-Saolibiy

264. Ahmad Yassaviy she'riyatidagi qaysi timsollar bevosita tasavvuf bilan aloqador holda yuzaga kelgan.

1) ishq;
2) tolib;
3) ummat;
4) rabot;
5) rasul;
6) shayton;
7) iymon;
8) obid.

A) 1, 2, 4, 5, 8
B) 1, 2, 3, 5, 6, 7, 8
C) 1, 3, 5, 6
D) 2, 3, 4, 5, 6, 8

265. "Nafs yo'lig'a kirgan kishi rasvo bo'lur,
Yo'ldin ozib, toyib, to'zib gumroh bo'lur,
Yotsa, qo'nsa shayton bila hamroh bo'lur,
Nafsni tepkil, nafsni tepkil, ey badkirdor". Ushbu misralar muallifini toping.

A) Yusuf Xos Hojib
B) Ahmad Yassaviy
C) Najmiddin Kubro
D) Jaloliddin Rumiy

266. Quyidagilardan behisob boylik jamlagan xasis boy, xasisligidan uni yer yutgan timsolni aniqlang.

A) Qorun
B) Fir'avn
C) Xorut
D) Morut

267. "Mo'min qullar dard-u holat paydo qildi,
Haq yo'lida jon-u dilni shaydo qildi,
Dunyo tashlab oxiratni savdo qildi,
Savdo qilsang hur-u g'ilmon bari tayyor". Ushbu misralar muallifini toping.

A) Ahmad Yassaviy
B) Najmiddin Kubro
C) Jaloliddin Rumiy
D) Navoiy

268. "Beshak biling, bu dunyo, borcha eldin o'taro,
Inonmag'il moling, bir kun qo'ldin ketaro.
Oto-ono, qarindosh, qayon ketti, fikr qil.

...". Ushbu she'riy parchaning davomi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?
A) To'rt ayog'lig' cho'bin ot, bir kun sanga yetaro
B) Mardona bo'l g'arib bosh, umring yeldek o'taro
C) Kishi molini yema, sirot uzra tutaro
D) Asling bilsang, ob-u gil, yana gilga ketaro

269. "... toat qil, umring bilmom necha yil,
Asling bilsang, ob-u gil, yana gilga ketaro".
Nuqtalar o'rniga kerakli shaxs nomini qo'ying.
A) Qul Xoja Ahmad
B) Ey Najmiddin
C) Jaloliddin
D) Ey Navoiy

270. "Yatimat ad-dahr" asarining to'rt qismiga nechta arab tilida ijod qilgan ijodkorlar kiritilgan?
A) 124 ta
B) 415 ta
C) 219 ta
D) 125 ta

271. "Yatimat ad-dahr" asarining to'rtinchi qismiga nechta Xurosonlik va Movarounnahrlik shoirlar kiritilgan?
A) 124 ta
B) 415 ta
C) 219 ta
D) 125 ta

272.

273. "Yer ostig'a qochib kirdim nodonlardin,
Ilkim ochib, duo tilab mardonlardin,
G'arib jonim yuz tasadduq donolardin,
Dono topmay, yer ostig'a kirdim mano" deya oltmish uch yoshida yer ostini makon tutgan shoirni aniqlang.
A) Najmiddin Kubro
B) Ahmad Yassaviy
C) Jaloliddin Rumiy
D) Bahouddin Naqshband

274. "Tangri osmonni feruza rangida ko'm-ko'k qilib yaratdi. Yulduzlar bilan bezadi. Uzukka ko'z qo'ygandek, qosh oq uzuk uchun ishlatiladigan tosh — mezon yulduzi (turkcha qora qush) unda tuzildi. Kecha bilan kunduz bir-birining ustiga qoplanadi". Ushbu tasvir qaysi asardan o'rin olgan?
A) "Hibat ul-haqoyiq"
B) "Yatimat ut-dahr"
C) "Qutadg'u bilig"
D) "Devoni lug'ot it-turk"

275. Quyidagi qaysi ijodkorning ijodida "qizil, sariq gullarning bir-biriga suyanishib va yashil rayhonlarning bir- biri bilan o'ralashib ko'rinishi, ularni ko'rgan kishining tang qolishi, hayron qolishi" kabi go'zal o'xshatishlarni

...hratish mumkin?
A) Sayfi Saroyi
B) Mahmud Qoshg'ariy
C) Atoyi
D) Yusuf Xos Hojib

276. "Uning ko'zi kishi (ko'nglini) ovlaydigan sehrgardir. O'zi musofirdir, yuzi to'lin oydir. Qarashi bilan u meni otib, yuragimni yordi".
"Yor" ta'rifiga bag'ishlangan ushbu jumla muallifi kim?
A) Sayfi Saroyi
B) Mahmud Qoshg'ariy
C) Atoyi
D) Yusuf Xos Hojib

277. "Yalvin aning ko'zi,
Yelkin aning o'zi,
To'lun ayin yuzi,
Yardi mening yurak".
Ushbu to'rtlik muallifi bo'lgan shaxsning to'liq ismi va to'rtlikdagi ostiga chizilgan so'zlar ma'nosi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang?
A) Abu Mansur Abdumalik ibn Muhammad ibn Ismoil, yalvin-sehrli, yelkin-musofir
B) Ahmad ibn Umar Xivaqiy, yalvin-yalg'on, yelkin-yengil
C) Mahmud Ibn Husayn ibn Muhammad, yalvin-sehrli, yelkin-musofir
D) Maxtumquli ibn Davlatmamad, yalvin-yolg'on, yelkin-yengil

278. "Suvga tayanma, chunki dunyo ne'matlarining shirinligiga, bahor go'zalligiga suyangan kishilar suvga suyanganlar kabidir". Ushbu fikrlar qaysi asardan olingan?
A) "Yatimat ut-dahr"
B) "Devoni lug'ot it-turk"
C) "Hibat ul-haqoyiq"
D) "Qutadg'u bilig"

279. Abu Mansur as-Saolibiy tazkirasi qanday nomlanadi?
A) "Yatimat ad-dahr fi mahosini ahli asr"
B) "Tazkirat ush-shuaro"
C) "Muzakkiri ahbob"
D) "Lubob ul-albob"

280. "Yatimat ad-dahr" asarining nechanchi qismiXuroson vaMovarounnahrdagi arabiynavis ijodkorlarga bag'ishlangan
A) Birinchi
B) Ikkinchi
C) Uchinchi
To'rtinchi

281. "Yorug' yulduz tug'ar vaqtida uyg'onib, daraxtlarga qarayman, qushlarning yoqimli sayrashlarini tinglayman" kabi jumlalar qaysi asardan olingan?
A) "Yatimat ut-dahr"
B) "Devoni lug'ot it-turk"
C) "Hibat ul-haqoyiq"
D) "Qutadg'u bilig"

282. "Senga tashvish va alam yetsa, o'tib ketar deb sabr qil. Dunyo ishlarini bilib turishga tirish. Har qanday kulfatni o'zingga olib, joningni qiynama".

Ushbu parcha olingan asar nomining tarjimasi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

A) "Haqiqatlar armug'oni"
B) "Baxt-saodatga yetaklovchi bilim"
C) "Asr ahlining fozillari haqida zamonasining durdonasi"
D) "Turkiy tillar lug'ati"

283. Quyidagi qaysi asarda "Ko'ngli och, yo'qsil bo'lgan kishini kuch bilan to'q, boy qilish mumkin emas" deb yozib qo'yilgan?

A) "Kul Tigin"
B) "Qutadg'u bilig"
C) "Devoni lug'ot it-turk"
D) "Yatimat ut – dahr"

284. "Bulmishnengig seversan,
Aqrun angar sevingil.
Barmish nengig saqinma,
Azraq angar o'kungil".

Ushbu parcha qaysi asardan olingan va ostiga chizilgan so'zlarning ma'nosi nima?

A) "Hibat ul-haqoyiq", bulmish-bo'lingangan, nengig-molingni
B) "Yatimat ut-dahr", bulmish-qo'lga kiritilgan, nengig-nima uchun
C) "Qutadg'u bilig", bulmish-yo'q, nengig-molingni
D) "Devoni lug'ot it-turk", bulmish-qo'lga kiritilgan, nengig-molingni

285. Quyidagi asarlarning qaysi birida mehnat va marosim qo'shiqlari, lirik qo'shiqlar va o'gitnomalar, marsiya, maqollar, hikmatli so'zlar va badiiy adabiyotning bir qancha janrlarini uchratish mumkin?

A) "Yatimat ut-dahr"
B) "Devoni lug'ot it-turk"
C) "Hibat ul-haqoyiq"
D) "Qutadg'u bilig"

286. "Bulnar meni ulas ko'z,
Qara mengiz qizil juz.
Andin tamar tugal tuz,
Bulnap jana ul qachar".

Qoshg'riyning ushbu to'rtligida qaysi vosita asosiy o'rin tutadi?

A) Jonlantirish
B) Sifatlash
C) Zidlantirish
D) Ramz

287. Quyidagi asarlarning qaysi birida bosh qahramonning o'limi achchiq qismat, dahshatli fojia, o'rnini

to'ldirib bo'lmaydigan yo'qotish sifatida baholanadi?
A) "Alp Er To'nga"
B) "Saddi Iskandariy"
C) "Suhayl va Guldursun"
D) "Sab'ayi Sayyor"

288. "Alp Er To'nga" marsiyasi qanday shaklda yozilgan?
A) ikkilik (masnaviy)
B) uchlik (musalsal)
C) to'rtlik (murabba')
D) beshlik (muxammas)

289. "Alp Er To'nga" marsiyasi qanday vaznda yozilgan?
A) aruzning sa'ri bahrida
B) aruzning mutaqorib bahrida
C) barmoq vaznida
D) aruzning ramal bahrida

290. Abu Mansur as-Saolibiy qayerda vafot etgan?
A) Bolosog'unda
B) Hamadonda
C) Rayda
D) Nishopurda

291. Quyidagilardan 50 dan ortiq ilmiy asarlar muallifi, ko'plab o'lkalarni kezib chiqqan yirik olim, shoir va tarixchini aniqlang.
A) Muhammadsharif So'fizoda
B) Mahmud Qoshg'ariy
C) Abdurauf Fitrat
D) Abu Mansur as-Saolibiy

292. Quyidagilardan arabcha "zikr etish, qayd etish" ma'nolarini bildirib, ijodkorlarning hayoti va ijodi haqida ma'lumot, asarlaridan qisqacha namuna va tahlillar keltiriladigan majmuaviy janrni aniqlang.
A) Qasida
B) Tazkira
C) Rivoyat
D) Qissa

293. Qadimda turli shoir va yozuvchilarning tarjimayi holi, yozgan asarlari, ijodlaridagi yetakchi xususiyatlari haqidagi kitoblar nima deb atalgan?
A) Qasida
B) Rivoyat
C) Qissa
D) Tazkira

294. Quyidagilardan qays biri tazkira yozmagan?
A) Abu Mansur as-Saolibiy
B) Alisher Navoiy
C) Hasanxo'ja Nisoriy
D) Mahmud Qoshg'ariy

295. "Har subhidam nido qildi qulog'img'a
Zikr ayt dedi, zikrin aytib yurdim mano.
Ishqsizlarni ko'rdim ersa yo'lda qoldi,
Ul sababdin ishq do'konin qurdim mano" degan shoir kim?
A) Yusuf Xos Hojib
B) Ahmad Yassaviy

C) Mahmud Qoshg'riy
D) Ahmad Yuganakiy

296. Ahmad Yassaviy necha yoshida "rahmat daryo to'lib-toshdi,
Olloh dedim, shayton mendan yiroq qochdi" deydi?
A) o'n bir
B) o'n ikki
C) o'n uch
D) o'n to'rt

297. Ahmad Yassaviy necha yoshida "nafs boshig'a yuz ming balo qamrab soldim, takabburni yerg'a urib bosib oldim" deydi?
A) o'n bir
B) o'n ikki
C) o'n uch
D) o'n to'rt

298. Quyidagilardan dunyoga mehr qo'yib, xudoni esdan chiqargan shoh timsolini aniqlang.
A) Qorun
B) Fir'avn
C) Xorut
D) Morut

299. Qaysi adib ishqi ilohiyni rasmiy shariat doirasidan uzoqlashmagan holda sharhlagan?
A) Yusuf Xos Hojib
B) Ahmad Yassaviy
C) Mahmud Qoshg'riy
D) As-Saolibiy

300. Quyidagi qaysi asarning tili xalqning jonli so'zlashuv va xalq qo'shiqlari tiliga yaqin turadi?
A) "Qutadg'u bilig"
B) "Hikmat"
C) "Yatimat ad-dahr"
D) "Hibat ul-haqoyiq"

301. Ahmad Yassaviy necha yoshida "nafs havosin qo'lga oldim" deydi?
A) o'n bir
B) o'n ikki
C) o'n uch
D) o'n to'rt

302. "Ishq dardini talab qildim, darmoni yo'q,
Ishq yo'lida jon berganni armoni yo'q,
Bu yo'llarda jon bermasa, imkoni yo'q,
Har ne qilsang, oshiq qilg'il, parvardigor". She'r muallifi kim va she'rda qofiyaning qaysi turi qo'llanilgan?
A) Alisher Navoiy, muqayyad
B) Ahmad Yassaviy, mutlaq
C) Ahmad Yugnakiy, muqayyad
D) Sayfi Saroyi, mutlaq

303. "..., ishqdin qattiq balo bo'lmas,
Marham so'rma, ishq dardiga davo bo'lmas,
Ko'z yoshidin o'zga hesh kim guvoh bo'lmas,

Har ne qilsang, oshiq qilg'il, parvardigor".
Nuqtalar o'rniga kerakli shaxs nomini qo'ying.
A) Qul Xoja Ahmad
B) Ey Najmiddin
C) Jaloliddin
D) Ey Navoiy

304. "Dog'i hijron ezdi bag'rim, qoni dardmand,
Dono – tufroq, nodonlarni ko'ksi baland,
Oyat – hadis bayon qilsam, etmas pisand,
Ko'ksum teshsang, dard-u g'amga to'ldum mano"
misralari muallifini aniqlang.
A) Yusuf Xos Hojib
B) Ahmad Yassaviy
C) Najmiddin Kubro
D) Jaloliddin Rumiy

305. "Yatimat ad-dahr" asarining to'rtinchi qismiga necha bayt she'r kiritilgan?
A) 6140 bayt
B) 4016 bayt
C) 1640 bayt
D) 4160 bayt

306. "Yatimat ad-dahr" asarining to'rtinchi qismidagi she'rlar qaysi janrda?
1) qasida;
2) vasf;
3) hajv;
4) marsiya;
5) masnaviy;
6) g'azal;
7) urjuza.
A) 1, 2, 5, 7
B) 2, 3, 4, 5, 6
C) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7
D) 2, 3, 4, 5, 6, 7

307. Saolibiy keltirgan qasidalar, asosan, qaysi mavzudadir?
A) Qiyinchilikda shikoyat
B) Pand-nasihat
C) Ayrim tarixiy voqealar
D) Inson madhi

308. "Jamiki yaxshi va yomonga muruvvat qil. Qilgan yaxshiliklaring o'zingga qaytadi. Noshukurlar esa o'z yomonligi bilan sharmanda bo'ladi".
"Yatimat ad-dahr"dan olingan ushbu so'zlar kimga tegishli?
A) Abu Mansur at-Tohiriy
B) Muhammad ibn Xotim
C) Muhammad ibn Zayd
D) Al Bo'shanjiy

309. "Kimki quyoshni jahl bilan bekitmoqshi bo'lsa, xato qiladi. Quyoshni choyshab bilan yopib bo'lmaydi". Ushbu jumla qaysi asarga tegishli?
A) "Devoni lug'ot it-turk"
B) "Yatimat ad-dahr"
C) "Hibat ul-haqoyiq"
D) "Qutadg'u bilig"

310. "Kechaning eng yaxshi sifati shuki, "kecha homilador, (ammo) nima tug'ishni bilmaydi". Tuya hasharotlarni yoqtirmaydi, ammo u tirik ekan, ular

uning burnida (yashayveradi). Eshak balchiqqa yumalab (istagan) narsasiga erishdi va ishdan qutildi" kabi falsafiy fikrlar quyidagi qaysi asardan joy olgan?

A) "Mahbub ul-qulub"
B) "Yatimat ad-dahr"
C) "Hibat ul-haqoyiq"
D) "Qutadg'u bilig"

311. "So'ngakda ilik bo'lishi lozim ekanligi kabi er kishiga bilim kerakdir, er kishining ko'rki aqldir, so'ngakning ko'rki esa ilikdir. Ilmsiz kishi iliksiz so'ngak kabi bo'shdir, iliksiz so'ngakka esa qo'l urilmaydi" kabi falsafiy fikrlar qaysi asardan olingan?

A) "Mahbub ul-qulub"
B) "Hayrat ul-abror"
C) "Yatimat ut-dahr"
D) "Hibat ul-haqoyiq"

312. "Bilimlining biri bilimsizning mingiga teng, ilmli kishilar ilmning qadriga yetadi. Endi o'zing sinab, o'qib, boqib ko'r, bilimdan foydaliroq qanday narsa bor". Ushbu jumla qaysi asarga tegishli?

A) "Mahbub ul-qulub"
B) "Hibat ul-haqoyiq"
C) "Hayrat ul-abror"
D) "Yatimat ut-dahr"

313. "Bilim bilan olim ko'tarildi, ilmsizlik esa kishini tubanlashtirdi. Bilimli bo'l, hesh qachon erinma, haq rasuli (payg'ambar) kim ilmli bo'lsa, uni siz maqtang, deb aytdi". Berilgan ushbu so'zlar muallifini toping.

A) Ahmad Yugnakiy
B) Alisher Navoiy
C) Yusuf Xos Hojib
D) Nosiruddin Rabg'uziy

314. Ilm o'rganish zarurati haqidagi quyidagi fikrlar mualifini aniqlang. "Bilimli kishi ilmni farqlaydi, ey do'st, bilim qadrini bilimli odam biladi, bilimning qadrini kishiga ilm bildiradi, bilimni nodon, tuban kishi nima qiladi".

A) Ahmad Yugnakiy
B) Alisher Navoiy
C) Yusuf Xos Hojib
D) Sayfi Saroyi

315. Ilm o'rganish zarurati haqidagi quyidagi fikrlar mualifini aniqlang. "Ilmsizga to'g'ri so'z ma'nosizdir, unga o'git-nasihat foydasizdir. Bir qancha yuviqsizlarga yuvinish uchun buyurilsa, toza bo'lur, ammo johil qancha yuvinmasin, pok bo'lmaydi".

A) Alisher Navoiy
B) Yusuf Xos Hojib
C) Ahmad Yugnakiy
D) Sayfi Saroyi

316. Ilm o'rganish zarurati haqidagi quyidagi fikrlar mualifini aniqlang. "Bilimli kishi kerakli so'zni so'zlaydi,

keraksiz so'zni ko'mib yashiradi. Bilimsiz kishinima gapirsa, nodonligi sababli so'zlaydi, shuning uchun uning tili o'z boshini yeydi".

A) As-Saolibiy
B) Ahmad Yugnakiy
C) Yusuf Xos Hojib
D) Sayfi Saroyi

317. Quyidagi qaysi asarning ikkinchi bo'limi "tilni tiyish va adab-axloq" haqida?

A) "Hibat ul-haqoyiq"
B) "Mahbub ul-qulub"
C) "Yatimat ad-dahr"
D) "Qutadg'u bilig"

318. "Kiyim bo'yoqchi qo'lida garovdir. Eshak ba'zan kasalligi uchun ham hangraydi. Echki faqat ovqat bilan semiradi, echki muloyim gap bilan semirmaydi" kabi "Yatimat ad-dahr"dan olingan ushbu falsafiy fikrlar muallifini aniqlang.

A) Abu Mansur at-Tohiriy
B) Muhammad ibn Xotim
C) Muhammad ibn Zayd
D) Al Bo'shanjiy

319. "Dengiz suvi toshib yotgani ayon bo'lib tursa ham, it undan tili bilan ichadi. Kimki taklif qilinmay dasturxonga kelsa, u o'zini kamsitgan bo'ladi". Ushbu so'zlar qaysi asarga tegishli ekanligini aniqlang.

A) "Guliston bit-turkiy"
B) "Mahbub ul-qulub"
C) "Yatimat ad-dahr"
D) "Hibat ul-haqoyiq"

320. "Yatimat ad-dahr" asarida Abu Ahmad al-Bo'shanjiy tilidan aytilgan uch baxtning nomi qaysi qatorda noto'g'ri berilgan?

A) o'z qo'li bilan ekkan daraxt mevalarini yeyish
B) yozgan she'rining kuylanganini eshitish
C) sevgan farzandlari uning xizmatida turganini ko'rish
D) hech qanday ehtiyojsiz umr kechirish

321. "Yatimat ad-dahr" asarida Abu Ahmad al-Bo'shanjiy tilidan aytilgan uch baxtga xalal beruvchi narsa nima?

A) moddiy yetishmovchilik
B) do'stlardan yiroqlik
C) tananing nimjon bo'lib qolishi
D) haddan ziyod donolik

322. "Haddan ziyod donolik va harakatchanlik tufayli men qo'riq joyda yonayotgan olov kabi edim. Endi nodon bo'lib qoldim, agar cho'ntagida vaqosi yo'q odamning chaqqonligi susayib qolsa,

buning ajablanarlik joyi yo'q".
"Yatimat ad-dahr"dan olingan ushbu falsafiy fikrlar muallifini aniqlang.
A) Abu Mansur at-Tohiriy
B) Muhammad ibn Xotim
C) Muhammad ibn Zayd
D) Abul-Hasan Al-Haroniy

323. "Faqat ixtiyoring bilan kishilarga naf keltirasan va faqat zarurat tug'ilgandagina zararli bo'lasan. Faqat jazo berish uchungina sen yomonlikni ravo ko'rasan, xudo senga behad yaxshilikni ravo ko'rsin". Ushbu so'zlar qaysi asarga tegishli ekanligini aniqlang.
A) "Guliston bit-turkiy"
B) "Mahbub ul-qulub"
C) "Yatimat ad-dahr"
D) "Hibat ul-haqoyiq"

324. Quyidagilardan turkiy tilda birinchi yirik hajmli adabiy-ma'rifiy asar yozgan iste'dodli shoir, davlat arbobi, donishmand adibni aniqlang.
A) Alisher Navoiy
B) Mahmud Qoshg'ariy
C) Abu Mansur as-Saolibiy
D) Yusuf Xos Hojib

325. Quyidagilardan turkiy tilda birinchi yirik hajmli adabiy-ma'rifiy asar yozgan iste'dodli shoir, davlat arbobi, donishmand adibning asari nomini aniqlang.
A) "Devoni lug'ot it-turk"
B) "Yatimat ad-dahr"
C) "Mahbub ul-qulub"
D) "Qutadg'u bilig"

326. Quyidagi qaysi asar 1069 yil yozib tugatilgan?
A) "Devoni lug'ot it-turk"
B) "Yatimat ad-dahr"
C) "Hibat ul-haqoyiq"
D) "Qutadg'u bilig"

327. "Zehnli, vafoli, kishi afzuni,
Qiladi kishiga fido o'zini.
Yuvuqsiz, jafoli, qilig'i tuban,
Tonar, hech tan olmas degan so'zini". Ushbu she'r tegishli bo'lgan shaxs qaysi shaharda dunyoga kelgan?
A) Qoshg'ar
B) Balasog'un
C) Sayram
D) Yassi

328. "Kishilar ara ko'r kishi ul bo'lur,
Aningdin kishilar asig'lar bulur.
Asig'siz kishilar kishida qo'ri,
Asig'liq kishi asg'i elka to'lur".
Ushbu to'rtlik muallifi bo'lgan adib dunyoga kelgan shahar hozir qayerda joylashgan?
A) Qirg'izistondagi To'qmoq shahrida
B) Qozog'istondagi Yassi shahrida

C) Xitoy Xalq Respublikasidagi Xo'tan shahrida
D) O'zbekistondagi O'tror shahrida

329. Quyidagilardan hijriy to'rt yuz oltmish ikkinchi, milodiy 1069-1070- yilda yozilgan asarni aniqlang.
A) "Qutadg'u bilig"
B) "Devoni lug'ot it-turk"
C) "Guliston bit-turkiy"
D) "Mahbub ul-qulub"

330. "Tili yolg'on erning jafo xulqidur,
Jafo kimda ersa o'sha yilqidir.
Kishi yolg'onidan vafo kutmagin,
Bu so'z ko'p sinalgan talay yilgidir".
Ushbu to'rtlik olingan asar nusxalarining nomi noto'g'ri qayd etilgan javob variantini aniqlang.
A) Qohira
B) Namangan
C) Vena
D) Moskva

331. "Agar kimda bo'lsa aql, ilm, zehn
Uni madh etib sen, tugal er degin.
Ziyod bo'lsa kimda uquv, aql, bilim,
Yomon bo'lsa yaxshi de, kichik bo'lsa ulug'la".
Ushbu to'rtlik olingan asarning Namangan va Qohira nusxalari qaysi yozuvda ko'chirilgan?
A) Uyg'ur
B) Arab
C) Turkiy
D) Xorazm

332. "Biro'k dushman ersa, ming ul yasliqi,
Mingin do'stung ersa bir ul azliqi.
Kishi dushmanindan asig' qilmadi,
Qali qildi ersa, o'zi uzliqi".
Ushbu to'rtlik muallifi Tavg'ach ulug' Bug'roxon tomonidan qanday lavozim bilan taqdirlanadi?
A) Solor
B) Sipohsolor
C) Hojib ul hijob
D) Xos hojib

333. "Xos hojib"lik qanday lavozim?
A) Lashkarboshi
B) Munshiy (kotib)
C) Eshik og'asi
D) Otaliq

334. Turkiy adabiyotda aruz vaznidagi dastlabki yirik tajribani kim boshlab bergan?
A) Alisher Navoiy
B) Mahmud Qoshg'ariy
C) Nosiruddin Rabg'uziy
D) Yusuf Xos Hojib

335. Quyidagilardan pandnoma (didaktik) xarakterda

bo'lmagan asarni aniqlang.
A) "Guliston bit-turkiy"
B) "Suhayl va Guldursun"
C) "Hibat ul-haqoyiq"
D) "Qutadg'u bilig"

336. Quyidagi asarlarning qaysi birida tilning fazilati, foyda va zararlari, bilim, o'quv-idrok farqi, bir yigitga qirq hunar ozligi, beklikka loyiq bek qanday bo'lishi haqida qimmatli fikrlar keltirilgan?
A) "Ko'ngullarning sevgani"
B) "Asr ahlining fozillari haqida zamonasining durdonasi"
C) "Haqiqatlar armug'oni"
D) "Baxt-saodatga eltuvchi bilim"

337. Quyidagi qaysi asarni o'ziga xos vatan, el-yurt madhiyasi deb atash mumkin?
A) "Qutadg'u bilig"
B) "Guliston bit-turkiy"
C) "Suhayl va Guldursun"
D) "Hibat ul-haqoyiq"

338. "Qara bash yag'isi qizil til turur,
Necha bash yedi u, taqi ma yeyur
Bashingni tilasang tilingni ko'daz,
Tiling tegma kunda bashingni
yeyur". Ushbu to'rtlik qaysi
asardan olingan va ostiga chizilgan so'zning ma'nosi nima?
A) "Hibat ul-haqoyiq", taqi yana, tegma-har doim, ko'daz-ko'tar
B) "Yatimat ut-dahr", taqi yana, tegma-sergap, ko'daz-asra
C) "Devoni lug'ot it-turk", taqi-yana, tegma-har doim, ko'daz-asra
D) "Qutadg'u bilig", taqi-yana, tegma-har doim, ko'daz-asra

339. "Qora bosh yovi qizil til,
boshing sog'lig'i-chun tilingni
tiyib yur, tiling istagan kun
boshingga yetadi" kabi fikrlar qaysi asardan olingan?
A) "Qutadg'u bilig"
B) "Guliston bit-turkiy"
C) "Suhayl va Guldursun"
D) "Hibat ul-haqoyiq"

340. "Ota pandiga sen tugal qil amal,
Yurarsan bo'lib baxtiyor har mahal.
Otangni, onangni sevintir tamom,
Bu xizmat yetirgay tilakka tugal". Ushbu to'rtlik muallifini aniqlang?
A) Alisher Navoiy
B) Ahmad Yugnakiy
C) Sayfi Saroyi
D) Yusuf Xos Hojib

341. "Yag'iz yer yashil turqu

yuqa badi,

Xitay arqishi yadti
Tavg'ach idi" baytida
talmeh san'atini vujudga
keltiruvchi nechta so'z
qo'llangan?
A) 1
B) 2
C) 3
D) 4

342. "Yalang dov-daraxtlar kiyindi yashil,
Bezandi yopib ol, sariq, ko'k, qizil.
Vodiy, tog', adir, jar liboslar yoyib,
Bezandi qo'li, qoshi, ko'k, ol kiyib". Bahor ta'rifiga bag'ishlangan ushbu satrlar muallifini aniqlang.
A) Mahmud Qoshg'riy
B) Yusuf Xos Hojib
C) Xorazmiy
D) Nosiruddin Rabg'uziy

343. "Qutadg'u bilig"da keltirilgan "qug'u" qaysi qushning nomi?
A) O'rdak
B) G'oz
C) Laylak
D) Oqqush

344. Qushlarning go'zal qizning o'z yorini chaqirgan kabi ohang birla hamrohlarini chorlashi, turnalarning tizilgan tuyadek ko'kda qanot qoqishi kabi benazir o'xshatishlar quyidagi asarlarning qay birida uchraydi?
A) "Muhabbatnoma"
B) "Qutadg'u bilig"
C) "Devoni lug'ot it-turk"
D) "Hibat ul-haqoyiq"

345. "Yashasin bu turklar quti qut bilan,
Teshilsin ko'rolmas ko'zi o't bilan.
Sevinch-la, ovinch-la, quvonch-la eli,
Oshasin, yashasin u Luqmon yili" misrlari qaysi asardan olingan va ushbu misralar orqali qaysi hukmdor madh etilmoqda?
A) "Devoni lug'ot it-turk", Abulqosim al-Muqtado
B) "Qissayi Rabg'uziy", Nosiruddin To'qbug'a
C) "Qutadg'u bilig", Tavg'ach ulug' Bug'raxon
D) "Muhabbatnoma", Muhammad Xo'jabek

346. Qaysi asar davlatni idora etish usuli, hukmdor va xalq munosabatlari, jamiyat hayoti, undagi tabaqalar tavsifi, kasb-kor egalari va ularga xos xususiyatlar haqida?
A) "Devoni lug'ot it-turk"
B) "Yatimat ad-dahr"
C) "Hibat ul-haqoyiq"
D) "Qutadg'u bilig"

347. Yusuf Xos Hojib qaysi

ijtimoiy tabaqa haqida "qo'li ochiq bo'ladi,ko'nglini xudo berganidan ham ziyod keng tutadi" deydi?
A) Chorvadorlar
B) Hunarmandlar
C) Harbiylar
D) Dehqonlar

348. "Butun yer yuzidagi hamma qimirlagan jonning, yuradiganlarning ovqati-yu, uchadiganlarning doni ulardir, o'zing bular bilan aralashgin, qo'shilgin, tilda yaxshi so'zla, yuzingni ochiq tut". "Qutadg'u bilig"dan olingan ushbu parchada kimlar haqida fikr bildirilgan?
A) Chorvadorlar
B) Hunarmandlar
C) Harbiylar
D) Dehqonlar

349. "Adib Ahmad ham turk elidin ermish. Aning ishida g'arib (ajoyib, qiziqarli) nimalar manquldur (naql qilingan). Derlarki, ko'zlari butov (bitgan, yopiq) ermishki, aslo zohir ermas ermish". Ahmad Yugnakiy haqidagi ushbu fikrlar muallifini aniqlang?
A) Husayn Bayqaro
B) Alisher Navoiy
C) Bobur
D) Nodira

350. "Adib Ahmad ham turk elidin ermish. Aning ishida g'arib (ajoyib, qiziqarli) nimalar manquldur (naql qilingan). Derlarki, ko'zlari butov (bitgan, yopiq) ermishki, aslo zohir ermas ermish". Ahmad Yugnakiy haqidagi ushbu fikrlar Navoiyning qaysi asaridan o'rin olganligini aniqlang?
A) "Majolis un-nafois"
B) "Mezon ul-avzon"
C) "Nasoyim ul-muhabbat"
D) "Sab'atu abhur"

351. Adib Ahmad "Hibat ul-haqoyiq" asarida to'g'rilik va egrilik, odob bilan odobsizlik kabi mavzularga to'xtalar ekan, bu o'rinlarda qanday badiiy tasviriy vositlaradan foydalanadi?
A) o'xshatish, tazod
B) takrir, jonlantirish
C) jonlantirish, takrir, tazod
D) o'xshatish, jonlantirish, takrir, tazod

352. "Bezadim kitobi <u>mavoiz</u> masal,
Boqig'li, o'qug'li <u>osig'</u> olsun tep.
Belak ettim ani shohimga men-o'k,
Havodorlig'imni tugal bilsu tep".
Misralar muallifi kim, madhiya kimga bag'ishlangan va ostiga

chizilgan so'zlarning ma'nosi nima?
A) Yusuf xos Hojib, Bug'roxonga, mavoiz-nasihat, osig'-foyda
B) Rabg'uziy, Nosiruddin To'qbug'aga, mavoiz-o'git, osig'-foyda
C) Xorazmiy, Muhammad Xo'jabekka, mavoiz-pand, osig'-foyda
D) Yugnakiy, Dod Sipohsolorbekka, mavoiz-nasihat, osig'-foyda

353. "Chiqartim ochunda oti qolsu(n) tep.
Kitobimni ko'rgan, eshitgan kishi,
Shohimg'a duo birla yod qilsu(n) tep" deya o'z hukmdori uchun asar yozgan adibni toping.
A) Ahmad Yugnakiy
B) Yusuf Xos Hojib
C) Xorazmiy
D) Nosiruddin Rabg'uziy

354. O'z hukmdori uchun "kelgusi avlodlarga uning nomi mangu esdalik bo'lsin deb, uning muhabbati bilan ko'ngillar to'lib, yodi bilan dunyo to'lsin deb" asar yozgan ijodkorni aniqlang.
A) Ahmad Yugnakiy
B) Yusuf Xos Hojib
C) Xorazmiy
D) Nosiruddin Rabg'uziy

355. "Takabbur asilman deb aytsa, men unga keskin javob berayin.
Bu xalq naslining ota, onasi bir, u dunyoda zotan oralarida farq bo'lmaydi" Ushbu fikrlar tegishli bo'lgan asarning to'rtinchi bo'limi nima haqida?
A) ilm manfaati, jaholat zarari
B) tilni tiyish va adab-axloq
C) dunyoning o'zgarib turishi
D) saxovat va baxillik oqibati

356. "Yana o'git-nasihatimni olgin, uzoq amal-o'ylovg'a botma, amal-o'ylov zamirida ajal yashiringan bo'ladi. Amal-o'ylov deb aytgan narsam, ey do'st, bu ko'p o'ylashdir, sen ko'p o'ylanib o'tirma, ko'proq ish qil".Ushbu fikrlar tegishli bo'lgan asarning beshinchi bo'limi nima haqida?
A) ilm manfaati, jaholat zarari
B) tavozelilik manfaati, kibrlilik va harislikning zarari to'g'risida
C) dunyoning o'zgarib turishi
D) saxovat va baxillik oqibati

357. "Kiyim, to'n, sharob, osh, ko'p mol-dunyo, xizmatkor, qul kerak deb aytasan. Agar bir umrga yetadigan mol-dunyo yiqqan bo'lsang, eng

avval bo'rk kiyuvchi bosh kerak." Ushbu fikrlar tegishli bo'lgan asarning so'ngi bo'limi nima haqida?

A) ilm manfaati, jaholat zarari
B) tavozelilik manfaati, kibrlilik va harislikning zarari to'g'risida
C) dunyoning o'zgarib turishi
D) axloqning karomati, harislikni tashlash

358. Quyidagi qaysi ijodkor o'z ijodida Yusuf Xos Hojib kabi "ko'nilik (to'g'rilik) to'ni", "muruvvat yo'li", "ati (nomi) o'luk" singari istioralardan unumli foydalangan?

A) Ahmad Yugnakiy
B) Alisher Navoiy
C) Lutfiy
D) Nosiruddin Rabg'uziy

359. Quyidagi qaysi asar faqat muallif tilidan bayon qilingan?

A) "Qissayi Rabg'uziy"
B) "Hayrat ul-abror"
C) "Yatimat ut-dahr"
D) "Hibat ul-haqoyiq"

360. Quyidagi qaysi asar boshdan oxirigacha ta'rif-tavsifga qurilgan?

A) "Qissayi Rabg'uziy"
B) "Hayrat ul-abror"
C) "Risolayi muammo"
D) "Hibat ul-haqoyiq"

361. Quyidagi qaysi asarda bilimli kishi qimmat baho dinorga, ilmsiz, johil kishi qimmatsiz yemish-mevaga o'xshatiladi?

A) "Hayrat ul-abror"
B) "Mahbub ul-qulub"
C) "Yatimat ut-dahr"
D) "Hibat ul-haqoyiq"

362. "Bilimlik kishi bilan bilimsiz odam qachon teng bo'ladi, bilimlik xotin kishi er kishidir, bilimsiz erkak xotin kishidir. Ilmli kishilar mashhur bo'ldi, bilimsizlar esa tiriklayin o'ldi hisob va unga ko'rgulikdir". Ushbu falsafiy fikrlar muallifini aniqlang.

A) Ahmad Yugnakiy
B) Alisher Navoiy
C) Yusuf Xos Hojib
D) Nosiruddin Rabg'uziy

363. Til odobiga bag'ishlangan quyidagi fikrlar muallifini aniqlang. "Adablar boshi tildir, uni tiymoq zarur, tilingni tiy, tishing sinmasin, agar so'zlab yuborsang, tiling tishingni sindiradi".

A) As-Saolibiy
B) Yusuf Xos Hojib
C) Ahmad Yugnakiy
D) Sayfi Saroyi

364. Til odobiga bag'ishlangan quyidagi fikrlar muallifini aniqlang. "O'ylab so'zlagan kishining so'zi to'g'ridir, o'rinsiz ko'p vaysagan til

shafqatsiz yovdir. So'zingni bo'sh qo'yma, tilingni tiyib tut, erk berilgan til bir kun boshingga yetadi".

A) As-Saolibiy
B) Ahmad Yugnakiy
C) Yusuf Xos Hojib
D) Sayfi Saroyi

365. Til odobiga bag'ishlangan quyidagi fikrlar qaysi asarga tegishli ekanligini aniqlang.
"Til va so'z bo'shi ko'p kishilarning boshini yedi.Kishini o'chakishtirma, uning tilini bil, bu til yaralansa, tuzalmaydi, tig' yarasi esa bitib ketadi"

A) "Hibat ul-haqoyiq"
B) "Mahbub ul-qulub"
C) "Yatimat ad-dahr"
D) "Qutadg'u bilig"

366. Til odobiga bag'ishlangan quyidagi fikrlar qaysi asarga tegishli ekanligini aniqlang.
"Ahmoq kishining tili o'ziga dushman, ko'p kishilarning qoni tili tufayli to'kildi. Ko'p so'zlaganlar ichida o'kingan ko'pdir, tilni tiyganlar orasida o'kingan bormi, qani?"

A) "Hibat ul-haqoyiq"
B) "Mahbub ul-qulub"
C) "Yatimat ad-dahr"
D) "Qutadg'u bilig"

367. "Tilingni tiy, so'zingni qisqa qil, bu til tiyilsa, o'zing ham saqlanasan. Rasul kishini o'tga tashlovchi tildir, deb aytdi, shuning uchun tilingni tiy, o'zingni o'tdan tort". Har qaysi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan ushbu o'gitlar muallifini aniqlang.

A) As-Saolibiy
B) Ahmad Yugnakiy
C) Yusuf Xos Hojib
D) Sayfi Saroyi

368. "Bir kishida ikki narsa bo'lsa, u kishiga muruvvat yo'li yopildi. Birinchidan, behuda so'zlar bilan vaysasa, ikkinchidan, bu kishining so'zlari yolg'on bo'lsa...". Har qaysi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan ushbu o'gitlar qaysi asarga tegishli ekanligini aniqlang.

A) "Gulshan ul-asror"
B) "Hibat ul-haqoyiq"
C) "Yatimat ad-dahr"
D) "Qutadg'u bilig"

369. "Yolg'onchi kishidan o'zingni uzoq tut, umringni sen to'g'rilik bilan kechir. Og'iz va tilning bezagi to'g'ri so'zdir, so'zni to'g'ri so'zla, dilingni beza".
Ushbu o'gitlar qaysi asarga tegishli ekanligini aniqlang.

A) "Gulshan ul-asror"
B) "Hibat ul-haqoyiq"
C) "Yatimat ad-dahr"
D) "Miftoh ul-adl"

370. Qaysi asarda to'g'ri so'z shifoga, yolg'on so'z kasallikka o'xshatiladi?
A) "Gulshan ul-asror"
B) "Yatimat ad-dahr"
C) "Miftoh ul-adl"
D) "Hibat ul-haqoyiq"

371. "Ko'ni bo'l, ko'ni qil, otin ko'ni,
Ko'ni teyu bilsun xaloyiq seni.
Ko'nilik to'nin kiy, qo'yub egrilik,
Kedim to'n to'lusi ko'nilik to'ni".
Ushbu to'rtlik muallifi kim va unda qanday tasviriy vosita qo'llanilgan?
A) Alisher Navoiy, sifatlash
B) Yusuf Xos Hojib, istiora
C) Ahmad Yugnakiy, takrir
D) Sayfi Saroyi, istiora

372. "Do'stim deb, ishonib sir aytma, ehtiyot bo'l, garchi qanchalik yaqin, ishonchli do'sting bo'lsa ham. Siring (rozing) o'zingda saqlanib, singib turmagach, u do'stingda saqlanmaydi, buni yaxshi o'ylab ko'r". Didaktik adabiyotning betakror

373. namunasi bo'lgan ushbu o'gitlar muallifini aniqlang
A) Alisher Navoiy
B) Yusuf Xos Hojib
C) Ahmad Yugnakiy
D) Sayfi Saroyi

374. Quyidagi qaysi asarning uchinchi bo'limi "dunyoning o'zgarib turishi" haqida?
A) "Mahbub ul-qulub"
B) "Muhabbatnoma"
C) "Qutadg'u bilig
D) "Hibat ul-haqoyiq"

## III BO'LIM

- Rabg'uziy
- Pahlavon Mahmud
- Sayfi Saroyi
- Xorazmiy

1. Quyidagi qaysi shoir ijodida nomard itga, mard buyuk daryoga o'xshatiladi?
   A) Ahmad Yugnakiy
   B) As-Saolibiy
   C) Pahlavon Mahmud
   D) Rudakiy

2. "Ko'b yaxshi alin uzatib andan tilamak
   Kim, ikki diram uchun qo'lun keskaylar".
   Ushbu she'r "Guliston bit-turkiy"dagi qaysi hikoyatga ilova qilingan?
   A) "O'g'ri va tilanchi" hikoyatiga
   B) "No'shiravon podshoh va bir qul" hikoyatiga
   C) "Bir kurashchi shogird va ustoz" hikoyatiga
   D) "Ikki xurosonlik sayyoh" hikoyatiga

3. O'zbek adabiyotidagi noma janrining birinchi namunasini aniqlang.
   A) "Latofatnoma"
   B) "Shohnoma"
   C) "Muhabbatnoma"
   D) "Boburnoma"

4. Quyidagi qaysi asar hikoyalarida suhbatning dialog usuli yetakchilik qiladi?
   A) "Devoni lug'ot it-turk"
   B) "Yatimat ad-dahr"
   C) "Qissayi Rabg'uziy"
   D) "Devoni Hikmat"

5. Qaysi shoir o'z she'rlarining birida Nuh payg'ambar kabi ming yil yashamagan bo'lsa ham, Nuh kabi bir emas, ming to'fon ko'rganligini yozadi?
   A) Navoiy
   B) Mashrab
   C) Ahmad Yassaviy
   D) Pahlavon Mahmud

6. Yer yuzini suv bosganda barcha jonzotlardan o'z kemasiga bir juftdan olib, ularning hayotini asrab qolgan payg'ambarning nomi keltirilgan javob variantini toping.
   A) Ayyub
   B) Nuh
   C) Iso
   D) Dovud

7. Hukmdorga qo'yiladigan talablar haqida "Qutadg'u bilig"da so'z boradi. Quyidagi qaysi shoir ham o'z ruboiylarining birida: "Podsholik istasang, bo'l el gadosi,

O'zingni unut-u, bo'l el oshnosi,
El toj kabi boshga ko'tarsin desang,
El qo'lin tutgin-u, bo'l xoki posi" deya so'z yuritadi?
A) Navoiy
B) Sayfi Saroyi
C) Rudakiy
D) Pahlavon Mahmud

8. Sayfi Saroyining "Taolalloh, zehi surat zehi mahbubi ravhoni" matlali g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "n"
B) mutlaq, "r"
C) muqayyad, "d"
D) mutlaq, "n"

9. "Kunashtek belgili shohid, jamoli qavlima shohid,
Kechar hasrat bilan zohid yiroqdan ko'rmagan oni".
Sayfi Saroyi qalamiga mansub ushbu baytdagi ostiga chizlgan so'zning ma'nosini aniqlang.
A) oy
B) quyosh
C) yulduz
D) samo

10. "Jahonda sentekin jonon yo'q, ey jon,
Sening dardinga hech darmon yo'q, ey jon".
Baytda qanday she'riy san'at qo'llanilgan?
A) ta'did
B) tashbeh
C) tazod
D) ruju

11. "Unutting bu Muhammad Xo'jani, oh,
Bizningteklarga angda son yo'q, ey jon.
Sening ishqingda sayrarga Xorazmiy,
Bu kun olamda bir bo'ston yo'q, ey jon"
misralari "Muhabbatnoma"ning nechanchi nomasidan olingan?
A) 3
B) 4
C) 2
D) 8

12. "Seni jonimdin ortuqroq sevarmen,
Bu so'zda, haq bilur, yalg'on yo'q, ey jon".
Baytda qanday she'riy san'at qo'llanilgan?
A) ta'did
B) tashbeh
C) tazod
D) ruju

13. "Sening husnung qamuq olamda mashhur,
Yuzungdin kizlanibtur xuld aro hur"
misralaridagi "xuld" nima?
A) jannat
B) siyrat
C) shamol

D) oy

14. Yerdagi ayolga oshiq bo'lgani uchun xudo g'azabiga uchragan farishtani aniqlang?
A) Morut
B) Xorut
C) Qorun
D) San'on

15. "Qilur o'z jonig'a qasd, o'zi boyiq,
Gadoyekim bo'lur sultona oshiq". Baytda qanday she'riy san'at qo'llanilgan?
A) ta'did
B) tashbeh
C) tazod
D) ruju

16. Xorazmiy nechanchi nomadagi masnaviyda "Bo'loli aysh-u ishrat peshalardin,
Qutulsun ko'nglumiz andeshalardin" deydi?
A) 3
B) 5
C) 6
D) 10

17. "O'shul kunkim, seni xoliq yaratti,
Seni dilbar, meni oshiq yaratti".
Ushbu baytda qanday she'riy san'at qo'llanilgan?
A) tarse'
B) ruju
C) tamsil
D) tazod

18. "Manga tabqungda hargiz bo'lmadi son,
Kishi ul saltanatni bulmas oson" misralarida qanday badiiy san'atdan foydalanilgan?
A) tamsil
B) tarse'
C) tazod
D) tanosub

19. Xorazmiy nechanchi nomada Xo'jabekka nisbatan "Nechakim bersa chehrang ko'zlari nur, Chechaktek bo'lmag'il husnungga mag'rur" deya o'git beradi?
A) 3
B) 5
C) 6
D) 10

20. Xorazmiy nechanchi nomada "Sening ishqingda Xorazmiy yo'qoldi, Valekin yer yuzinda oti qoldi" deydi?
A) 3
B) 5
C) 6
D) 10

21. "Ayo bo'yi sanubar, chehrasi oy,
Quyosh yanglig' jamoling olamoroy".
"Muhabbatnoma"ning qaysi bobi ushbu bayt bilan boshlanadi?

A) ikkinchi
B) uchinchi
C) beshinchi
D) oltinchi

22. "Muhabbatnoma"ning qaysi bobida Xorazmiy yorining ko'zdagi xayolini suv uzra turgan tol niholiga o'xshatadi?
A) ikkinchi
B) uchinchi
C) beshinchi
D) oltinchi

23. "Sening chehrangda, ey firdavs sarvi,
Engin qon birla yur chimgon tazarvi". Ushbu parchadagi "tazarv" so'zining ma'nosi nima?
A) nihol
B) ariq
C) qirg'ovul
D) gasht

24. "Yuzung nuri quyoshning nurin o'rtar,
Saqoqing shu'lasi olamni o'rtar". Ushbu parchadagi "saqoq" so'zining ma'nosi nima?
A) ko'z
B) iyak
C) soch
D) tish

25. "Tishing, la'ling guhar jon durji ichra,
Yuzung, qoshing quyosh oy burji ichra" misralarida qanday badiiy san'atdan foydalanilgan?
A) tamsil
B) tarse'
C) tazod
D) tanosub

26. "Ne bilur qadringizni tekma nodon,
Guhar qadrini a'mo bilmas, ey jon" misralarida qanday badiiy san'atdan foydalanilgan va baytdagi "amo" nima?
A) tamsil, ko'r
B) tarse', omi
C) tazod, qul
D) tanosub, hamma

27. "Muhabbatnoma"ning qaysi bobida Xorazmiy shohga murojaat etib,
"Ko'ngullar ohidin iymangil, ey shoh,
Kim oyina to'nar ko'p qilsalar oh" deydi?
A) ikkinchi
B) uchinchi
C) beshinchi
D) oltinchi

28. "Jahonda saltanatlar qul bila xush,
Chamanning gullari bulbul bila xush" misralari kimning qaysi asarga tegishli?
A) Xorazmiy; "Muhabbatnoma"
B) Sa'diy She'roziy; "Guliston"
C) Gulxaniy; "Zarbulmasal"

D) Yusuf Xos Hojib; "Qutadg'u bilig"

29. "Muhabbatnoma"ning qaysi bobida Xorazmiy "...O'lumdur bizga jononsiz tirilmak,
Mahol erur tana jonsiz tirilmak" deydi?
A) o'ninchi
B) uchinchi
C) beshinchi
D) oltinchi

30. "Husnni to huvaydo qildi xoliq,
Husn birla vafo bo'lmas muvofiq" misralari kimga tegishli va baytda qanday badiiy san'atdan foydalanilgan?
A) Lutfiy, tamsil
B) Saroyi, tarse'
C) Xorazmiy, irsoli masal
D) Atoyi, tanosub

31. "Ayurmen, yuz nechakim kelsa mehnat,
Jafo sizdin, tag'i bizdin muhabbat" misralari kimga tegishli va baytda qanday badiiy san'atdan foydalanilgan?
A) Lutfiy, tamsil
B) Saroyi, tarse'
C) Xorazmiy, tazod
D) Atoyi, tanosub

32. Xorazmiy o'ninchi nomaning so'ngida keltirgan sayyora mumtoz adabiyotda nimaning ramzi?
A) jang-u jadal
B) donishmandlik
C) falak kotibi
D) qahramonlik

33. "Icholing bodani gullar so'liyor,
Tanimiz oqibat tuproq bo'liyor" misralari kimning qaysi asarga tegishli?
A) Xorazmiy; "Muhabbatnoma"
B) Sa'diy She'roziy; "Guliston"
C) Xo'jandiy; "Latofatnoma"
D) Yusuf Xos Hojib; "Qutadg'u bilig"

34. "Man alarning kattasidurman. Ulug'lar, raiyasiga base mehribon bo'lur. Balog'a ulug'lar o'zlarini ro'baro' qilib, kichiklarni xalos qilsa yaxshidur". Ushbu so'zlar qaysi qahramonga tegishli?
A) "Sulaymon va chumoli hikoyati ", Manzara
B) "Namrud hikoyati", Namrud
C) "Uzum hikoyati", Nuh alayhissalom
D) "Ilon va qarlug'och hikoyati", qaldirg'och

35. "Kanz ul-haqoyiq" nomli masnaviy yozgan ijodkorni aniqlang.
A) Jomiy
B) Xoja

C) Sayfi Saroyi
D) Pahlavon Mahmud

36. "Muhabbatnoma"ning qaysi bobida Xorazmiy "Bu yerga yetti so'z ta'xir bo'ldi, Burun o'n dedim, u o'n bir bo'ldi" deydi?
A) o'n birinchi
B) o'ninchi
C) uchinchi
D) beshinchi

37. "Ilohi, pok qilg'il jonimizni, Xalaldin saqlagil imonimizni" misralari kimning qaysi asarga tegishli?
A) Yusuf Xos Hojib; "Qutadg'u bilig"
B) Xorazmiy; "Muhabbatnoma"
C) Sa'diy She'roziy; "Guliston"
D) Xo'jandiy; "Latofatnoma"

38. Xorazmiy "Muhabbatnoma"ning qaysi qismida Xo'jabekni "Jamshedi soniy" deb ataydi?
A) masnaviy
B) g'azal
C) qit'a
D) munojot

39. "Muhabbatnoma"ning nechanchi bobida Xusrav va Shirin nomi tilga olinadi?
A) uchinchi
B) beshinchi
C) oltinchi
D) o'ninchi

40. "Saodatni hunarg'a yor qilg'il,
Hunardin bizni barxurdor qilg'il". Bayt muallifi kim?
A) Xorazmiy
B) Sayfi Saroyi
C) Sakkokiy
D) Atoyi

41. "Tama dominda qolur qush emasman,
Talim ayvon uza uchqon humomen.
Qilichtek til bila tuttum jahonni,
Qanoat mulki ichra podshomen" misralari muallifi kim?
A) Xorazmiy
B) Sayfi Saroyi
C) Sakkokiy
D) Atoyi

42. "Necha hashamatli sulton bo'lsa bo'lsun,
Ayitmon mol uchun madh-u sano men.
Qiyomatqa tekin qolsun oting teb,
Sening tabqungda bo'ldum oshno men" misralari muallifi kim?
A) Atoyi
B) Xorazmiy
C) Sayfi Saroyi
D) Sakkokiy

43. Sulaymon payg'amabarning dono

vaziri nomi keltirilgan javobni aniqlang.
A) Bilqis
B) Osaf
C) Yosaf
D) Badoyi

44. "Bu daftarkim, bo'lubtur Misr qandi,
Yeti yuz elli to'rt ichra tugandi". Ushbu bayt qaysi asarning tugallanishi haqida bitilgan?
A) "Muhabbatnoma"
B) "Gulistoni bit-turkiy"
C) "Latofatnoma"
D) "Qutadg'u bilig"

45. "Muni kim ishq birla bir o'qug'ay,
Haqiqat olamini munda bilg'ay.
Ayitqon bu kitobni ham bitig'ay,
Tilarmenkim duoda yod qilg'ay" misralari kimning kelajak avlodga bo'lgan murojaati bo'lib qoldi?
A) Rudakiy
B) Xorazmiy
C) Sayfi Saroyi
D) Sakkokiy

46. "Niyozim bu turar sendin, nigoro,
Unutma bandani, bahri xudoro" ushbu she'r mansub bo'lgan janr anglatgan ma'no qaysi qatorda to'g'ri berilgan?
A) "ikkilik", "juft"
B) "kesik", "bo'lak", "parcha"
C) "oshiqona so'z"
D) "yakka", "yagona", "yolg'iz"

47. "Muhabbatnoma"ning qaysi qismida Xusrav va Shirin nomi tilga olinadi?
A) masnaviy
B) munojot
C) g'azal
D) qit'a

48. Quyidagi qaysi asarda Amir Temur va To'xtamishxon o'rtasida bo'lib o'tgan jang manzaralari tasvirlanadi?
A) "Shayboniynoma"
B) "Suhayl va Guldursun"
C) "Gulistoni bit-turkiy"
D) "Muhabbatnoma"

49. "Qissayi Rabg'uziy"dagi hikoyatga ko'ra, Sulaymon alayhissalomni o'z donoligi ila lol qoldirgan jonzotni aniqlang.
A) qaldirg'och
B) ari
C) qarincha
D) yo'lbars

50. Xorazmiyning "Tama dominda qolur qush emasmen ..." deb boshlanuvchi she'ri janrini toping.
A) masnaviy
B) fard

C) g‘azal
D) qit’a

51. “Muhabbatnoma” asari ta’sirida yaratilgan asarlarni belgilang.
A) “Taashshuqnoma”, “Latofatnoma”
B) “Humoyunnoma”, “Dahnoma”
C) “Xudoynoma”, “Boburnoma”
D) “Sayohatnoma”, “Shohnoma”

52. Kimning ijodida egasini osmonga olib chiqqan qushlar obrazi uchraydi?
A) Saroyi
B) Yugnakiy
C) Rabg‘uziy
D) Rudakiy

53. Qaysi asar qaharamoni sahroda o‘ziga tig‘ urib halok bo‘ladi?
A) “Shohnoma”
B) “Layli va Majnun”
C) “Suhayl va Guldursun”
D) “Gulistoni bit-turkiy”

54. “Gulistoni bit-turkiy” asarida shoh No‘shiravoni odil o‘z g‘ulomiga shahardan nima keltirishni buyuradi?
A) yumurta (tuxum)
B) kiyik g‘o‘shti
C) non
D) tuz

55. Qaysi shoir o‘z yurtidan ketishni “falak jabr ayladi”, “tuprog‘im uzra nayzalar o‘sdi” degan jumlalar orqali bayon qiladi?
A) Rudakiy
B) Saroyi
C) Yugnakiy
D) Xorazmiy

56. “Gar vasling davlati muyassar bo‘lsa, Surayin poyingga bu ro‘yi zardim”. Ushbu parchadagi “ro‘yi zard” nima?
A) yer yuzi
B) sarg‘aygan yuz
C) qora soch
D) ilm-u dunyo

57. Eski turkiy tilga oid quyidagi so‘zlarni o‘z ma’nosi bilan muvofiq joylashtiring.
1) shikva;
2) uluq;
3) zangor;
4) yitmoq;
5) rafiq;
6) laka;
7) sano.
a) do‘st;
b) shikoyat;
c) ulug‘;
d) g‘ubor;
e) yo‘qolmoq;
f) laqqa;
g) maqtov.
A) 1-b, 2-c, 3-j, 4-f, 5-a, 6-a, 7-i

B) 1-b, 2-c, 3-d, 4-f, 5-a, 6-j, 7-i
C) 1-i, 2-c, 3-d, 4-f, 5-a, 6-j, 7-b
D) 1-b, 2-c, 3-d, 4-a, 5-f, 6-j, 7-i

58. "Bir-biri bilan jang qilmoq, kurashmoq" ma'nosini anglatadigan taxallusni belgilang.
A) "Qitoliy"
B) "Puryoyvaliy"
C) "Mijmar"
D) "Pahlavon"

59. Tasavvuf nechta bosqichga bo'linadi?
A) 4 ta
B) 3 ta
C) 7 ta
D) 8 ta

60. Tasavvuf bosqichlari ketma-ketligi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat
B) tariqat, ma'rifat, haqiqat, shariat
C) ma'rifat, shariat, tariqat, haqiqat
D) haqiqat, shariat, tariqat, ma'rifat

61. Qaysi adib jismoniy jihatdan baquvvat va sharqona kurshning kata vakili bo'lgan?
A) Rudakiy
B) Firdavsiy
C) Sakkokiy
D) Pahlavon Mahmud

62. Qaysi mutasavvuf shoir takabburni yerga urib 14 yoshida tuproqsifat bo'lganini aytadi?
A) Rudakiy
B) Ahmad Yassaviy
C) Sakkokiy
D) Pahlavon Mahmud

63. Namrud ko'kka uchish uchun qanday sandiq qurdiradi?
A) ikki eshikli, 4 poyali, 2 poyasi yuqori, 2 poyasi quyi
B) to'rt eshikli, 8 poyali, 4 poyasi yuqori, 4 poyasi quyi
C) ikki eshikli, 2 poyali, 1 poyasi yuqori, 1 poyasi quyi
D) ikki eshikli, 8 poyali, 4 poyasi yuqori, 4 poyasi quyi

64. Qaysi asarning yaratilishi, "Qur'on" va "Hadis"larga, tarixiy manbalarga, xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi?
A) "Shohnoma"
B) "Qissayi Rabg'uziy"
C) "Yatimat ad-dahr"
D) "Gulistoni bit-turkiy"

65. Eski turkiy tilga oid bir xil ma'noli bo'lmagan so'zlarni toping?
A) habib va rafiq

B) zulf va meng
C) qamar va moh
D) jud va karam

66. "Suhayl va Guldursun"da Guldursan kimning qizi edi?
A) shohning
B) saroybonning
C) lashkarboshining
D) oddiy dehqonning

67. Yassaviy ijodidagi yobon qush nimaning ramzi?
A) qora qarg'aning
B) nafsning
C) o'limning
D) jahlning

68. Eski o'zbek tiliga oid ushbu so'zlarni o'z ma'nosi bilan muvofiq joylashtiring.
1) mukarram;
2) kunosh;
3) musaxxar;
4) farah;
5) musavvar.
a) mujassam;
b) quyosh;
c) mehrli;
d) taslim;
e) shodlik.
A) 1-c, 2-b, 3-d, 4-e, 5-a
B) 1-d, 2-b, 3-c, 4-e, 5-a
C) 1-c, 2-e, 3-d, 4-b, 5-a
D) 1-a, 2-b, 3-d, 4-e, 5-c

69. Tasavvufga ko'ra inson haqiqatda o'zlikni anglash uchun nimalar qilmog'i kerak?
1) jismonan yetuk bo'lmog'i;
2) xudo yo'liga kirmog'i;
3) xudoga muhabbat paydo qila bilmog'i;
4) butun kuch va vujudini shu yo'lga qarata olmog'i.
A) 1, 2
B) 1, 2, 4
C) 2, 3, 4
D) 1, 2, 3

70. Eski o'zbek tilidagi "adiz" so'zining ma'nosi nima?
A) aziz
B) yuksak
C) pok
D) dono

71. Quyiadagi qaysi adibning otasi qozi bo'lgan?
A) Rudakiy
B) Firdavsiy
C) Sakkokiy
D) Rabg'uziy

72. Qaysi asarda olamdagi butun mavjudot egasi bo'lgan Ollohni ulug'lash, payg'ambarlar hayotiga oid lavhalar, ota-ona va farzand munosabatlari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan?
A) "Shohnoma"
B) "Qissayi Rabg'uziy"
C) "Yatimat ad-dahr"
D) "Gulistoni bit-turkiy"

73. Xorazmiy "Muhabbatnoma"ning qaysi qismida ikki tilda

ijod qilganini keltirib o'tadi?
A) masnaviyda
B) "Vasf ul-hol aytur"da
C) "Bayoni voqeyini aytur"da
D) o'ninchi nomada

74. "Suhayl va Guldursun" dostonida "Xamsa"ning qaysi qahramonlari nomi keltirilgan?
A) Layli va Majnun
B) Xusrav va Shirin
C) Bahrom va Dilorom
D) Mehr va Suhayl

75. "Lut" haqidagi qissa qaysi asarda uchraydi?
A) "Zarbulmasal"
B) "Qissayi Rabg'uziy"
C) "Yatimat ad-dahr"
D) "Gulistoni bit-turkiy"

76. Sarkarda Muhammad Xo'jabek davrida yashagan shoirni toping.
A) Saroyi
B) Yugnakiy
C) Rabg'uziy
D) Xorazmiy

77. "Suhayl va Guldursun" dostonida keltirilgan payg'ambar mumtoz adabiyotda nimaning ramzi?
A) sabrning
B) go'zallikning
C) e'tiqod mustahkamligining
D) falak kotibining

78. "Mutrib" so'zining ma'nosi nima?
A) so'zlovchi
B) kuylovchi
C) tinglovchi
D) nolachi

79. "Suhayl va Guldursun"da Suhayl qanday vafot etadi?
A) ochlikdan
B) o'ziga xanjar uradi
C) zaharlanib
D) suvsizlikdan

80. "Qissayi Rabg'uziy"dagi qaysi hikoyatda inson xayolotining imkonlari madh etilgan?
A) "Namrud"
B) "Uzum"
C) "Sulaymon"
D) "Lut"

81. Pahlavon Mahmud kimlarni dunyoga bino qo'yganalar deydi?
A) amaldor, podshohlarni
B) go'l, mast, devonalarni
C) go'zal, ko'rkam qizlarni
D) pahlavonlarni

82. "Jahon shoirlari, ey gulshani bog',
Kimi bulbuldurur so'zda, kimi zog'". Ushbu baytda tashbehning qaysi turi qo'llanilgan?
A) tashbehi muzmar
B) tashbehi tavsiya
C) tashbehi sareh
D) tashbehi aks

83. "Qissayi Rabg'uziy"da shayton qaysi meva urug'ini o'g'irladi va uch marta sug'orish uchun ruxsat oldi?
A) anjir
B) uzum
C) behi
D) nok

84. Bilqis qaysi payg'ambarning sevgilisi sanaladi?
A) Ya'qub
B) Sulaymon
C) Nuh
D) Ibrohim

85. "Sanodin o'zga nav atlas to'quyin,
Qish o'rtada bahoriyot o'quyin.
Kim ujmoh tur sening bazming binosi,
Hamisha yoz erur, jannat havosi".
Ushbu misralarda qaysi ijodkor qaysi hukmdorga atab mubolag'aviy tasvirlar yaratgan?
A) Sayyfi Saroyi Batxasbekka
B) Xorazmiy Muhammad Xo'jabekka
C) Xo'jandiy Mahmudxonga
D) Rabg'uziy Nosiruddin To'qbo'g'aga

86. "Qissayi Rabg'uziy"dagi qaysi hikoyatda quyidagi parcha uchraydi?
"Qushlar go'shtni olurmiz, deb uchgani sari go'sht ham yuqori borur edi. Yana bir kecha-kunduz uchdi".
A) "Namrud hikoyati"
B) "Ilon va qarlug'och hikoyati"
C) "Uzum hikoyati"
D) "Sulaymon va chumoli hikoyati"

87. Rabg'uziyning asl ismi berilgan qatorni aniqlang.
A) Muhammad
B) Nosiruddin
C) Burhoniddin
D) To'qbug'a

88. Rabg'uziy "Qissayi Rabg'uziy" asarining qaysi qismida otasi haqida ma'lumot beradi.
A) xotimasida
B) yigirmanchi bobda
C) muqaddimasida
D) o'n ikkinchi bobda

89. Quyidagilardan o'zbek nasrining eng qadimiy namunalaridan biri bo'lib, turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan, payg'ambarlar haqidagi qissalardan iboratdir bo'lgan asarni belgilang.
A) "Guliston bit-turkiy"
B) "Tarixi muhojiron"
C) "Zubdat ul-osor"
D) "Qissayi Rabg'uziy"

90. Pahlavon Mahmud Hindiston shohi Roy Ropoy Cho'nani o'limdan qutqarib qolgani uchun evaziga undan nima so'raydi?
A) hindlar bosib olgan ona yerlarini Xorazmga qaytarishni
B) och hamrohlarining qornini to'yg'azishni
C) asirlikdagi vatandoshlarini ozod qilishni
D) Xorazmga yurish qilmasligini

91. "Qitoliy" so'zining ma'nosi nima?
A) bir-biri bilan jang qilmoq
B) ma'naviy ustoz
C) yetuk, komil
D) aziz, mukarram

92. Sayfi Saroyining "Taolalloh, zehi surat zehi mahbubi ravhoni," matlali g'azalining beshinchi baytida kimga yoki nimaga murojaat qiladi?
A) soqiyga
B) dibari manzurga
C) o'ziga
D) ko'ngilga

93. "Qoshing chun bayram oyidur, jahon husning gadoyidur,
Qulung ... dur, bukun ul sun hayroni".
Nuqtalar o'rniga kerakli ismni qo'ying.
A) oshiq Atoyi
B) Lutfiy
C) Sayfi Saroyi
D) gado Sakkokiy

94. "Ko'ngul olur ko'zi oli, farah berur engi oli,
Bo'yidur sarvning toli, yuzi jannat gulistoni".
Sayfi Saroyi qalamiga mansub ushbu baytda qanday she'riy san'at qo'llanilgan?
A) tazod
B) tashbeh
C) tanosub
D) tarse

95. Qaysi shoir o'z she'rlarining birida mahbubasini "mufarrih shevali dilbar, tili to'ti, so'zi shakkar,kiyik ko'zli, qamar manzar, malohat mulki sultoni, bo'yidur sarvning toli, yuzi jannat gulistoni" deya ta'riflaydi?
A) Atoyi
B) Lutfiy
C) Sayfi Saroyi
D) Sakkokiy

96. "Qoshing chun bayram oyidur, jahon husning gadoyidur,
Qulung ... dur, bukun ul sun hayroni".
Nuqtalar o'rniga kerakli ismni qo'ying.
A) oshiq Atoyi
B) Lutfiy
C) Sayfi Saroyi

D) gado Sakkokiy

97. Sayfi Saroyining "Bu falak nechun meni doim qara qinda tutar" matlali g'azali necha baytdan iborat?
A) 5
B) 6
C) 7
D) 8

98. Sayfi Saroyining "Bu falak nechun meni doim qara qinda tutar" matlali g'azalining maqtasi berilgan qatorni aniqlang.
A) Bu otim Sayf o'ldug'uchunmi qara qinda tutar
B) Doimo oshiqlarini ishtiyoqinda tutar
C) Kim aning vaslin tilasa, ul firoqinda tutar
D) Ul yuzi oy hajr o'tining ihtiroqinda tutar

99. Sayfi Saroyining "Bu falak nechun meni doim qara qinda tutar" matlali g'azalining begona bayti berilgan qatorni aniqlang.
A) Odati budur hamisha bevafo ma'shuqaning – Kim aning vaslin tilasa, ul firoqinda tutar
B) Ol bilan oldi ko'ngul mendan bir oy yuzli malih, Kim muanbar xoli asvad ol yangoqinda tutar
C) Husn ichinda yo'q naziri, lekin ul joni jahon Doimo oshiqlarini ishtiyoqinda tutar
D) Bu falak javri bekin Sayfi Saroyi bag'rini Ul yuzi oy hajr o'tining ihtiroqinda tutar.

100. Sayfi Saroyining boshdan oxir tajnis san'atidan foydalanilgan g'azalini aniqlang.
A) "Ul yuzi oykim, jahonning jonidur"
B) "Taolalloh, zehi surat zehi mahbubi ravhoni"
C) "Bu falak nechun meni doim qara qinda tutar"
D) "Dilbarimning zulfi sunbul, chehrasi gulzor erur"

101. "Ishqining elchisina ko'nglum munaqqash dor erur, Zulfina tushgan ko'ngullarning maqomi dor erur". Bayt muallifi kim va unda qanday badiiy san'at qo'llanilgan?
A) Xorazmiy, tarse
B) Atoyi, tanosub
C) Lutfiy, tajohilu orifona
D) Sayfi Saroyi, tajnis

102. Kim "shakartek til", "tong yoqtusitek", "tan ichra jon", "arslon yurak", shuningdek, "oldini tutmoq", "oldin kechmoq",

"yer o'pmoq", "yelga bermoq" kabi ifodalar orqali o'z tilining betakror nafosatini belgilab bergan?
A) Xo'jandiy
B) Atoyi
C) Xorazmiy
D) Sayfi Saroyi

103. "Muhabatnoma"da qaysi sayyora nomidan ijodiy foydalanilmagan?
A) Atorud
B) Mushtariy
C) Zuhro
D) Mirrix

104. Mumtoz adabiyotda qaysi sayyora falak kotibi sifatida tilga olinadi?
A) Atorud
B) Mushtariy
C) Zuhro
D) Mirrix

105. "Muhabbatnoma"da keltirilgan Zuhro qaysi yulduzning nomi?
A) Merkuriy
B) Venera
C) Yupiter
D) Mars

106. Rabg'uziyning otasi qanday kasb bilan shug'ullangan?
A) kosibchilik
B) ruhoniylik
C) hunarmandchilik
D) qozilik

107. Quyidagilardan Raboti O'g'uz qozisi Nosiruddin xonadonida dunyoga kelgan adibni aniqlang.
A) Yugnakiy
B) Pahlavon Mahmud
C) Sakkokiy
D) Rabg'uziy

108. Quyidagilardan Xorazm diyorida tug'ilib voyaga yetgan shaxslarni belgilang.
A) Pahlavon Mahmud, Rabg'uziy
B) Atoyi, Lutfiy
C) Najmiddin Kubro, Rumiy
D) Xorazmiy, As-Saolibiy

109. "Qissayi Rabg'uziy", ilon va qarlug'och hikoyatida kemadagi teshikni qaysi hayvon berkitadi?
A) ilon
B) mushuk
C) qaldirg'och
D) yo'lbars

110. "Qissayi Rabg'uziy", ilon va qarlug'och hikoyatida Nuh alayhissalom kemasi qancha vaqt suv ichida yuradi?
A) bir yil
B) olti oy
C) bir yarim yil
D) uch oy

111. Qaysi shoir haqida Shamsiddin Somiyning "Qomus ul-a'lam", Lutf Alibek Ozarning

"Otashkadayi Ozariy", Kamoliddin Husayn Fanoyining "Majolis ul-ushshoq" singari asarlarida ma'lumotlar keltirilgan?
A) Lutfiy
B) Najmiddin Kubro
C) Pahlavon Mahmud
D) Xorazmiy

112. Adabiyot tarixidagi "kuragi yerni ko'rmagan" pahlavonni aniqlang.
A) Rustam
B) Afrosiyob
C) Mahmud
D) Suhrob

113. "Oh tortgan chog'ingda yo'lga ko'z tutgil,
Yo'lda quduq bordur, ehtiyoting qil,
Do'st uyida mahram bo'lgan vaqtingda,
Qo'lingni, ko'zingni, dilni tiya bil". Ruboiy muallifi kim va unda qanday badiiy san'at qo'llanilgan?
A) Firdavsiy, tazod
B) Pahlavon Mahmud, tanosub
C) Rudakiy, tarse
D) Xorazmiy, husni ta'lil

114. Bir tojir o'g'lonning ilm-u hunar hosil qilgani, qachonki, olimlar majlisida o'tursa, bir kalima so'zlamasligi, otasi "o'g'lim, so'zlagil, ulardan ortiq bilursan"-degani va o'g'ilning "qo'rqarm... bilmaganimdan so'ra... degani haqidagi hikoya qaysi asarda keltirilgan?
A) "Yatimat ad-dahr"
B) "Miftoh ul-adl"
C) "Gulistoni bit-turkiy"
D) "Qutadg'u bilig"

115. "Erdam (yaxshi fazila... erning davlatidur bil ya...
Kim, tuganmas mol er... matlablayin (istaganingcha)".
Ushbu parcha qaysi asar... tegishli?
A) "Yatimat ad-dahr"
B) "Gulistoni bit-turkiy"
C) "Hibat ul-haqoyiq"
D) "Qutadg'u bilig"

116. Sayfi Saroyining "Ul yu... oykim, jahonning jonidur" matlali g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "n"
B) mutlaq, "r"
C) muqayyad, "d"
D) mutlaq, "n"

117. Sayfi Saroyining "Taolalloh, zehi surat zehi mahbubi ravhoni," matlali g'azali necha baytdan iborat?
A) 5
B) 6
C) 7
D) 8

118. Sayfi Saroyining "Qamar yuzungdin bo'lur munavvar" matlali g'azalining maqtasi berilgan qatorni aniqlang.
A) Bo'lub tururlar senga musaxxar
B) Kelib xayoling bo'lur musavvar
C) Qachon visoling bo'lur muyassar?
D) Yozib dafotir uza mufassar

119. Sayfi Saroyining "Qamar yuzungdin bo'lur munavvar" matlali g'azalining begona bayti berilgan qatorni toping.
A) Tugandi umrum firoq elinda,
Qachon visoling bo'lur muyassar?
A) Kunash yuzungni ko'rub xaloyiq,
Bo'lub tururlar senga musaxxar
B) Ko'ngulga doyim farah berurg'a,
Kelib xayoling bo'lur musavvar
C) O'qur sifoting bu Sayfi shaydo,
Yozib dafotir uza mufassar

120. Sayfi Saroyining "Qamar yuzungdin bo'lur munavvar" matlali g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "r"
B) mutlaq, "s"
C) muqayyad, "y"
D) mutlaq, "r"

121. Sayfi Saroyining "Vasf ul-shuaro" g'azalining begona bayti berilgan qatorni toping.
A) Kimining so'zlari mavzun-u shirin,
Kimining loyiqi tashrif-u tahsin
B) Kimi o'zganing ash'orin menim der,
Kimi halvo kabi shalg'am cho'bin yer
C) Kimi ma'ni qo'yub lafzin tuzatur,
Kimi vaznin buzub san'at kuzatur
D) Alarning ush biri Sayfi Saroyi,
Jahon oriflarining xoki poyi

122. Navoiyning qaysi asarida Xorazmiy "Muhabbatnoma"sidan bayt keltirilgan?
A) "Muhokamat ul-lug'atayn"da
B) "Majolis un-nafois"da
C) "Mahbub ul-qulub"da
D) "Mezon ul-avzon"da

123. "Muhabbatnoma"ning nechanchi nomasida "O'lumdur bizga jonsiz tirilmak,
Mahol erur tana jonsiz tirilmak" misralari mavjud?

A) 3-nomasida
B) 4-nomasida
C) 2-nomasida
D) 5-nomasida

124. Xorazmiyning "Yaratqonkim, tan ichra jon yarotti" matlali g'azali necha baytdan iborat?
A) 9
B) 6
C) 7
D) 8

125. Xorazmiy "Muhabbatnoma"ning qaysi qismida Xo'jabekni payg'ambarlar: Sulaymon, Yusuf va Isoga qiyoslaydi?
A) masnaviy
B) g'azal
C) qit'a
D) munojot

126. "Oshar eldin seni yelganda oting,
Quyosh yanglig' jahonni tutti oting".
Bayt muallifi kim va unda qanday she'riy san'at qo'llanilgan?
A) Sayfi Saroyi, tazod
B) Sakkokiy, tashbeh
C) Xorazmiy, tajnis
D) Atoyi, tarse

127. "Agar ming yil tirilsa Hotami Tay,
Sening oting eshitgach, yerlar o'pgay.
Erur davlatqa diydoring tafovul
Bo'lubtur ta'latingg'a Mushtariy qul" misralari kim haqida so'z bormoqda va she'rda qanday badiiy san'at qo'llanilgan?
A) Tavg'ach ulug' Bug'roxon, takrir
B) Muhammad Xo'jabek, talmeh
C) Mahmud Sulton, ta'did
D) Mirzo Ulug'bek, ruju

128. Qaysi hukmdor jangga huddi, ochiqqan bo'ri yoki to'yga kirgan insondek kiradi deyiladi?
A) Suhrob
B) Mirzo Ulug'bek
C) Muhammad Xo'jabek
D) Mahmud Sulton

129. Mumtoz adabiyotda qayer sehr-u jodular makoni sifatida tilga olinadi?
A) Xo'tan
B) Kashmir
C) Mochin
D) Shom

130. "Yuzi navro'z", "qoshi bayramoy", "ko'zi Kashmir jodusiga ustoz", "beli qil", "qamar chehra", "kiprigi jon o'qi", "jamoli yetti olamga doston", "falak ishqi yo'lida besaranjom", "latofat mulki sultoni", "shakar lab", "qaro xolli", "qizil yanoq", "bo'yi sarv-u sanubar" yor obrazi kimning ijodida uchraydi?

A) Xorazmiy
B) Lutfiy
C) Sakkokiy
D) Atoyi

131. Xorazmiyning "Jahonda sentekin jonon yo'q, ey jon," matlali g'azali necha baytdan iborat?
A) 9
B) 10
C) 7
D) 8

132. Xorazmiyning "Jahonda sentekin jonon ..." deb boshlanuvchi g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "o"
B) mutlaq, "n"
C) muqayyad, "n"
D) mutlaq, "y"

133. "Saxovat mulkida sohibqadamsen,
Latofat ma'dani koni karamsen.
Bulut ichra yoshundi oy yuzungdin,
Shakar sizdi qamish ichra so'zungdin". Parcha qaysi asarga tegishli?
A) "Qutadg'u bilig"
B) "Muhabbatnoma"
C) "Latofatnoma"
D) "Qissayi Rabg'uziy"

134. "Latofatnoma"dan olingan quyidagi qaysi baytda raviy qoidasi buzilgan?
A) Jamoling aksidin xurshed olur nur,
Oting bo'ldi qamug' olamda mashhur
B) Quyosh yuzung ko'rib yerga yiqildi,
Adog'ing tufrog'ini surma qildi
C) Falak boshi bila evrulsa ming yil,
Seningtek qilmag'ay dunyoda hosil
D) So'z aymoq siz bikin dono qotinda,
Quduq qazmoq erur daryo qotinda

135. Bu kitobni tuzgan, toat yo'lida tizgan, ma'siyat yobonin kezgan, oz ozuqliq, ko'p yoziqlu ...". Nuqtalar o'rniga kerakli ismni qo'ying.
A) Rabot O'g'uzining qozisi Burhoniddin
B) Nosiruddin To'qbug'a
C) Rabot O'g'uzining qozisi Ibrohim
D) Nosiruddin

136. "Qissayi Rabg'uziy" asari kimga bag'ishlangan?
A) Muhammad Xo'jabekka
B) Nosiruddin To'qbug'aga
C) Mahmud Sultonga
D) Dod Sipohsolorga

137. "... yigitlar ariq (pok)i, ulu otli, qutlu zotli, ezgu xulqli, islom yoriliq, mo'g'ul

sanili, musulmon dinli, odamiylar inonchi, mo'minlar quvonchi, himmati adiz (yuksak), aqli tengiz beg". Ushbu madh kimga qaratilgan?
A) Muhammad Xo'jabekka
B) Nosiruddin To'qbug'aga
C) Mahmud Sultonga
D) Dod Sipohsolorga

138. "... yigitlar ariqi". Ushbu jumladagi "ariq" so'zining ma'nosi nima?
A) pok
B) kuchli
C) mard
D) tengsiz

139. Quyidagi qaysi asarda XIII asr oxiri – XIV asr boshlarida o'zbek adabiyotining bir qator o'ziga xos xususiyatlari aks etgan bo'lib, undagi qissalar asosini tarixiy voqealar tashkil etadi?
A) "Gul va Navro'z"
B) "Qissayi Rabg'uziy"
C) "Yusuf va Zulayho"
D) "Risola"

140. Quyidagi qaysi asardagi qissalar o'z ildizlari bilan "Qur'on" va "Hadis"larga, tarixiy manbalarga, xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi.?
A) "Gul va Navro'z"
B) "Qissayi Rabg'uziy"
C) "Yusuf va Zulayho"
D) "Devoni Hikmat"

141. Quyidagi qaysi asar hikoyalarida insonparvarlik, yurtparvarlik, insonni komillik darajasiga ko'tarish, axloqiy poklik, qalb pokligi, til odobi, ma'naviy barkamollik sari undash yetakchilik qiladi?
A) "Devoni lug'ot it-turk"
B) "Qissayi Rabg'uziy"
C) "Muhabbatnoma"
D) "Devoni Hikmat"

142. "Qissayi Rabg'uziy", ilon va qarlug'och hikoyatida dengizdagi kemani ichida uch hayvon paydo bo'ladi. Bular qaysilar?
1) mushuk;
2) yo'lbars
3) sichqon;
4) qo'ng'iz;
5) ilon.
A) 1, 2, 3
B) 2, 4, 5
C) 1, 4, 5
D) 1, 3, 4

143. "Qissayi Rabg'uziy", ilon va qarlug'och hikoyatida Nuh alayhissalom dunyodagi eng shirin go'sht nimaniki ekanligini aniqlashni qaysi hayvonga topshiradi?
A) qaldirg'och
B) ilon
C) ari
D) mushuk

144. To'rtta qush bolasi

yordamida bir kecha va kunduz osmonga ko'tarilgan bozigar qaysi asar qahramoni?
A) "Hayrat ul-abror"
B) "Zarbulmasal"
C) "Mahbub ul-qulub"
D) "Qissayi Rabg'uziy"

145. Qirq tabaqa yeri, har tabaqada qirq ming furqa, har furqada qirq ming muakkirlari bo'lgan chumoli obrazi qaysi asarda uchraydi?
A) "Zarbulmasal"
B) "Qissayi Rabg'uziy"
C) "Hayrat ul-abror"
D) "Guliston bit-turkiy"

146. Ikki xurosonlik faqirning safarga otlangani, biri kunduzi ro'za tutib, birining uch mahal ovqatlangani, ularning asir tushgani, bir haftadan so'ng ularning ozod etilgani, shunda sabrli kishi tirik va ko'p ovqat yegan kishining ochlikka chidolmay vafot etgani haqidagi hikoyat qaysi asarda keltirilgan?
A) "Yatimat ad-dahr"
B) "Miftoh ul-adl"
C) "Gulistoni bit-turkiy"
D) "Qutadg'u bilig"

147. "Erdam (axloq) egasi davlatidan tushsa, qayg'usi yo'qdir. Uning uchun erdam davlatidir. Erdam sohibi qayga borsa, oltun berurlar, yana yuqori kechururlar, lekin erdamsizlar luqma tilanib, minnat yukin ko'tarib yururlar". Ushbu parcha qaysi asarga tegishli?
A) "Gulistoni bit-turkiy"
B) "Yatimat ad-dahr"
C) "Hibat ul-haqoyiq"
D) "Qutadg'u bilig"

148. "Dilbarimning zulfi sunbul, chehrasi gulzor erur,
Bo'yina oshiq sanavbar, yuzina gul zor erur".
Bayt muallifi kim va unda qanday badiiy san'at qo'llanilgan?
A) Atoyi, tanosub
B) Sayfi Saroyi, tajnis
C) Lutfiy, tajohilu orifona
D) Sakkokiy, tarse

149. "Og'zi fastuq, ko'rki tangsuq, o'zi mushfiq yor erur,
Husnining chovi Xito-u Chin ichinda bor erur".
Bayt muallifi kim va unda qanday badiiy san'at qo'llanilgan?
A) Atoyi, tanosub
B) Sayfi Saroyi, talmeh
C) Lutfiy, tajohilu orifona
D) Sakkokiy, tarse

150. "... alpni elttilar asirga,
Hama qoldi bo'lub ojiz bu sirga.

Sipohiylar qilolmay
qoldi chora,
Faqat qondirdi bu g'am
dilda yora".
Nuqtalar o'rniga kerakli ismni qo'ying.
A) Rustam
B) Suhrob
C) Suhayl
D) Afrosiyob

151. "Faqat holini ko'rganlar
etur oh,
Uchar atrofda qushlar –
dardli hamroh
Bo'lub mutrib gulistonlarda
bulbul,
Qilur ming turli nag'ma
birla g'ulg'ul.
Boshin egmish yetib oltin
boshoqlar,
Boshoqlarni ekinchilar
mashoqlar".
Ushbu misralarda qaysi qahramonning asirlikdagi holati tasvirlangan?
A) Farhod
B) Suhayl
C) Navro'z
D) Farrux

152. Quyidagilardan hijriy 754, milodiy 1353-yilda "Qomug'in Sir yaqosinda bitilgan" asarni belgilang.
A) "Latofatnoma"
B) "Gulistoni bit-turkiy"
C) "Muhabbatnoma"
D) "Suhayl va Guldursun"

153. Qaysi ijodkor o'z asarining "Bayoni voqeyini aytur" nomli bir bobida ikki til: turkiy va forsiy tilda ijod ilganini aytadi?
A) Ahmad Yugnakiy
B) Xorazmiy
C) Xo'jandiy
D) Firdavsiy

154. Xorazmiy qaysi tillarda ijod qilgan?
A) forsiy va turkiy
B) arab va forsiy
C) arab va turkiy
D) uyg'ur va arab

155. "Muhabbatnoma" necha bobdan iborat?
A) 10
B) 12
C) 14
D) 8

156. Sayfi Saroyining "Dilbarimning zulfi sunbul chehrasi gulzor erur" matlali g'azali qofiyalanish tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) a-a, a-a, a-a
B) a-b, a-b, a-b
C) a-a, b-a, c-a
D) a-a, b-b, c-c

157. "Muhabbatnoma"da qanday janrlar jamlangan?
1) g'azal;
2) noma;
3) soqiynoma;
4) munojot;
5) qit'a;
6) masnaviy;
7) fard.

A) 1, 2, 6, 7
B) 1, 2, 3, 5, 6
C) 1, 2, 4, 5, 6, 7
D) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7

158. "Muhabbatnoma"da muallif o'z fikrlarini qanday shaklda bitadi?
A) fard
B) noma
C) soqiynoma
D) munojot

159. Noma janrining o'zbek adabiyotida shakllanishi va rivoji kimning nomi bilan bog'liq?
A) Firdavsiy
B) Xorazmiy
C) Xo'jandiy
D) Amiriy

160. Quyidagi asarlarni muallifi bilan muvofiq joylashtiring.
1) "Muhabbatnoma";
2) "Latofatnoma";
3) "Dahnoma";
4) "Taashshuqnoma";
5) "Haqiqatnoma";
6) "Sadoqatnoma".
a) Yusuf Amiriy;
b) Said Qosimiy;
c) Said Ahmad;
d) Xo'jandiy;
e) Xorazmiy
A) 1-a, 2-d, 3-e, 4-c, 5,6-b
B) 1-e, 2-d, 3-a, 5-c, 4,6-b
C) 1-e, 2-d, 3-a, 4-c, 5,6-b
D) 1-c, 2-d, 3-e, 4-c, 5,6-b

161. "Zullisonayn" atamasi qanday adiblarga nisbatan ishlatilgan?
A) nazmda ijod qiladigan
B) ishqiy mavzuda qalam tebratadigan
C) nasrda ijod qiladigan
D) ikki tilda ijod qiladigan

162. "Muhabbatnoma" asarining necha bobi forsiy tilda yaratilgan?
A) 2
B) 4
C) 3
D) 5

163. "Muhabbatnoma" aruzning qaysi bahrida yaratilgan?
A) hazaji musaddasi mahzuf
B) ramali musaddasi mahzuf
C) rajazi musammani solim
D) mutaqoribi musammani solim

164. "Muhabbatnoma" asari vazni nomi berilgan qatorni aniqlang.
A) mafoiylun-mafoiylun-faulun
B) foilotun-foilotun-foilun
C) mustaf'ilun-mustaf'ilun-mustaf'ilun
D) faulun-faulun-faulun-faal

165. "Muhabbatnoma" asari vazni taqtesi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) – V – – / – V – – / – V –

B) V – – – / V – – – / V – –

C) – – V – / – – V – / – – V – /– – V –

D) V – – / V – – / V – – / V – –

166. "Muhabbatnoma"ning nechanchi nomasida
"O'shul kunkim seni xoliq yaratti,
Seni dilbar, meni oshiq yaratti" misralari mavjud?

A) 3-nomasida
B) 4-nomasida
C) 2-nomasida
D) 5-nomasida

167. "Muhabbatnoma"da qaysi janrdagi she'rlar bir xil misralar bilan tugallangan?

A) qit'a
B) g'azal
C) fard
D) masnaviy

168. "Qaro meng ol yanog'ingga yaroshur,
Boshim doim adog'ingga yaroshur" misralarida qanday badiiy san'atdan foydalanilgan?

A) tanosub, tarse
B) tazod, sifatlash
C) tamsil, tarse
D) ishtiqoq, takrir

169. XIV asrda qit'a va fardning dastlabki namunalari kimning ijodida uchraydi?

A) Lutfiy
B) Atoyi
C) Xorazmiy
D) Sayfi Saroyi

170. "Muhabbatnoma"da qanday tarixiy hamda afsonaviy nomlar uchraydi?

1) Faridun;
2) Sulaymon;
3) Masih;
4) Yusuf;
5) Muso;
6) Hotami Toy;
7) Rustam;
8) Ali;
9) Muhammad Xo'jabek.

A) 2, 3, 4, 6, 7, 8, 9
B) 1, 2, 3, 4, 6, 7, 8, 9
C) 2, 3, 5, 6, 8, 9
D) 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8

171. Xorazmiyning "Yuzungda ko'rdum, ey jon, bayram oyin" matlali g'azalining begona bayti berilgan qatorni toping.

A) Ijozat bersangiz, tong yoqtusidek,
Jahong'a husnungiz jovin yoyoyin
B) Shakardek til bila to'ti tilingiz.
Necha ko'p sayd etar jonlar humoyin
C) Saodat birla baxt ikisi bichti,
Bo'yungizg'a latofatning buqoyin
D) Siza teb keldi Xorazmiyni asrang,
Kim asrarlar qamuq shahlar gadoyin

172. Xorazmiyning "Yuzungda ko'rdum, ey jon, bayram oyin" matlali g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "o"
B) mutlaq, "n"
C) muqayyad, "n"
D) mutlaq, "y"

173. Xorazmiyning "Yuzungda ko'rdum, ey jon, bayram oyin" matlali g'azali qofiyalanish tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) a-a, a-a, a-a
B) a-b, a-b, a-b
C) a-a, b-a, c-a
D) a-a, b-b, c-c

174. "Gar Aflotun sening ishqingda tushsa,
Berur yelga qamuq tadbir-u royin".
Bayt kimning qalamiga mansub va ushbu baytda qanday she'riy san'at qo'llanilgan?
A) Sayfi Saroyi, tazod
B) Sakkokiy, tashbeh
C) Xorazmiy, talmeh
D) Atoyi, tarse

175. "Davisqincha g'azal shah go'sh tutti,
Mango xil'at kiyurub, qo'sh tutti.
Bir oz kechti, dag'i majlis isindi,
Qadah javruldi-yu, may boshqa mindi" misralari muallifini aniqlang.
A) Lutfiy
B) Atoyi
C) Xorazmiy
D) Sayfi Saroyi

176. Xorazmiyning "Yaratqonkim, tan ichra jon yarotti" matlali g'azalining maqtasi berilgan qatorni aniqlang.
A) Tag'i manzurini sulton yarotti
B) Falakdek bizni sargardon yarotti
C) O'shal kunkim seni yazdon yarotti
D) Meni ul surata hayron yarotti

177. "...Sahar vaqtinda kim sultoni xovar
Jamolidin jahon bo'ldi munavvar" misralaridagi "xovar" so'zining m'nosi nima?
A) buyuk
B) sharq
C) xalq
D) g'arb

178. "Jahonda qarnlar tirik bo'lub izzat bila turg'il,
Azal vaqtida chun oting, shahi sohibqiron keldi" misralarida kim haqida so'z bormoqda?
A) Xalil Sulton
B) Mirzo Ulug'bek
C) Xo'ja Tarxon
D) Muhammad Xo'jabek

179. "Himmati adiz, aqli tengiz beg". Ushbu jumladagi "adiz" so'zining ma'nosi nima?
A) kuchli
B) benazir
C) yuksak
D) tengsiz

180. "Qissayi Rabg'uziy"dagi qissalar qanday manbalardan ozuqalanmagan?
A) "Qur'on" va "Hadis"
B) tarixiy manbalar
C) xalq og'zaki ijodi
D) Yassaviy hikmatlaridan

181. Quyidagi qaysi asar muallif badiiy tafakkurining mevalari bo'lib, Ollohni ulug'lash, payg'ambar hayotiga doir lavhalarni eslash, ota-ona va farzand munosabatlari, sevgi va sadoqat, vatan va vatanparvarlik, erk va adolat, do'stlik va hamjihatlik, urush va tinchlik mavzusidagi qisslardan tashkil topgan?
A) "Gul va Navro'z"
B) "Qissayi Rabg'uziy"
C) "Yusuf va Zulayho"
D) "Devoni Hikmat"

182. "Qissayi Rabg'uziy" asari necha bobdan iborat?
A) 56
B) 67
C) 70
D) 72

183. "Qissayi Rabg'uziy"dagi "Qissayi Yusuf" qissasi salkam necha sahifani tashkil etadi?
A) 50
B) 70
C) 80
D) 100

184. Bir necha sahifadangina iborat bo'lgan "Lut" haqidagi qissa quyidagi asarlarning qaysi biridan o'rin olgan?
A) "Shohnoma"
B) "Hayrat ul-abror"
C) "Yusuf va Zulayho"
D) "Qissayi Rabg'uziy"

185. Quyidagi qaysi asarda suhbatning dialog asosida olib borilishi, gaplarning tuzilishiga ko'ra ko'proq soddaligi, donishmandlik, topqirlik, hozirjavoblik fazilatlarining ustuvorligi, ifodalarning qisqa, aniq, lo'ndaligi: og'zaki ijoddan ta'sirlanish yaqqol ko'zga tashlanadi?
A) "Devoni lug'ot it-turk"
B) "Qissayi Rabg'uziy"
C) "Hayrat ul-abror"
D) "Yatimat ad-dahr"

186. "Mal'un" so'zining ma'nosini toping.
A) yo'qotilgan
B) bo'ysundirilgan
C) la'natlangan

D) ajratilgan

187. "Qissayi Rabg'uziy" asarida shayton uzumning urug'ini topib berish evaziga Nuh alayhissalomga qanday shart qo'yadi?
A) uzumni uch bor sug'orish
B) salsabil suvidan berish
C) zanjabil suvidan berish
D) uzumdan tatib ko'rish

188. Bir shogirdning o'z ustozidan 359 hunar (usul) o'rganib, shoh huzuriga borib, ustozidan ham yaxshi kurash tushishini aytib havolangani, buning podshohga xush kelmay bellashuv tashkil etgani, ustozning bundan ko'ngli ranjib, havolangan o'z shogirdini asrab qo'ygan 360-usuli bilan mag'lub etgani haqidagi hikoyat qaysi asarda keltirilgan?
A) "Miftoh ul-adl"
B) "Yatimat ad-dahr"
C) "Qutadg'u bilig"
D) "Gulistoni bit-turkiy"

189. "Do'stqa ul qadar yori qilg'ilkim, dushman bo'lsa zafar topmag'ay".
Ushbu maqol "Guliston bit-turkiy"dagi qaysi hikoyatga ilova qilingan?
A) "Uzun bo'yli ahmoq va qisqa bo'yli oqil haqida"gi hikoyatga
B) "No'shiravon podshoh va bir qul" hikoyatiga
C) "Bir kurashchi shogird va ustoz" hikoyatiga
D) "Ikki xurosonlik sayyoh" hikoyatiga

190. Quyidagi qaysi asarda qattiq so'zlab onasini ranjitgan Rustam haqida hikoyat keltirilgan?
A) "Shohnoma"
B) "Gulistoni bit-turkiy"
C) "Miftoh ul-adl"
D) "Hayrat ul-abror"

191. "Odob-bir chashmadirki, doim suvi toshib kelar".
Ushbu parcha qaysi asarga tegishli?
A) "Yatimat ad-dahr"
B) "Hibat ul-haqoyiq"
C) "Qutadg'u bilig"
D) "Gulistoni bit-turkiy"

192. "Erdam (hunar) o'graningkim, dunyoning moli, mulki va joh (amal) a e'tibor yo'qdir. Joh (mansab) bir kun eshikdan chiqib ketar. Oltin, kumush safarda haromiy olur, yo shaharda o'g'ri, yo sohibi yeb tugatur. Erdam (fazilat) – bir chashmadirkim, doim suvi toshib kelar".
Ushbu parcha qaysi asarga tegishli?
A) "Yatimat ad-dahr"
B) "Hibat ul-haqoyiq"
C) "Qutadg'u bilig"

D) "Gulistoni bit-turkiy"

193. "Onasi injinib Rustamga aytti,
Ayo ko'rgan o'zun haybatli arslon.
Agar bo'lsa edi yodingda ul kun – Kim, qo'limda eding bir yashar o'g'lon.
Bugun bo'yla menga javr etmas eding –
Ki, sen bir pahlavon, men bir qari jon". Ushbu parcha qaysi asardan olingan?
A) "Rustamxon"
B) "Shohnoma"
C) "Gulistoni bit-turkiy"
D) "Miftoh ul-adl"

194. "Topti erdam (yaxshi fazilat) li kishi anda sharaf,
Ey necha erdamsiz er bo'ldi talaf.
Bo'ldi erdamli faqir o'g'li vazir,
Qoldi erdamsiz vazir o'g'li faqir
Ilm-u hunar va yaxshi fazilatlar ulug'langan ushbu parcha qaysi asarga tegishli?
A) "Yatimat ad-dahr"
B) "Gulistoni bit-turkiy"
C) "Hibat ul-haqoyiq"
D) "Qutadg'u bilig"

195. Sayfi Saroyining "Ul yuzi oykim, jahonning jonidur" matlali g'azali necha baytdan iborat?
A) 5
B) 6
C) 7
D) 8

196. Sayfi Saroyining "Ul yuzi oykim, jahonning jonidur" matlali g'azalining maqlai berilgan qatorni aniqlang
A) Bu zamona xublarining xonidur
B) Haq taolo suning hayronidur
C) Zulfi jannat bog'ining rayhonidur
D) Qoshi yosining jahon qurbonidur

197. "Yetolmay ko'rgoni ruxsori mohg'a,
Yiqildi yugrubon poy uzra chohg'a.
Uyonib bildi shunda tush ekonin,
Va sezdi botg'anin anduh tikonin".
Ushbu misralardagi tasvirlangan qahramon kim?
A) Suhayl
B) Kuntug'mish
C) Majnun
D) Farrux

198. Xorazmiyning qaysi g'azalida Muhammad Xo'jabek Hazrati Aliga qiyos etiladi?
A) "Yarotti" radifli g'azalida
B) "Ichinda" radifli g'azalida
C) "Yo'q, eyjon" radifli g'azalida

D) "Yuzungda ko'rdim ..." deb boshlanuvchi g'azalida

199. Muhammad Xo'jabek jang ichra "ukush javlon qilur" sifatida kimga qiyos etiladi?
A) Rustamga
B) Hazarati Aliga
C) Faridunga
D) Hotami Tayga

200. Nogoh sandon-temir kundaga tegsa, o'qi sandonni teshadigan qahramonni aniqlang.
A) Kul Tigin, ("Kul Tigin bitigi")
B) Alp Er To'nga, ("Alp Er To'nga" marsiyasi)
C) Rustam, ("Shohnoma")
D) Muhammad Xo'jabek, ("Muhabbatnoma")

201. "Raqibingdur tikan, siz toza gulsiz,
Chechak chimgan aro bo'lmas tikansiz".
Baytda qanday she'riy san'at qo'llanilgan?
A) ta'did
B) tashbeh
C) irsoli masal
D) ruju

202. "Muhabbatnoma"ning uchinchi nomasida yorning ijobiy sifatlari madh etilib, nechanchi baytga kelganda yorning jafokashligi tasviriga o'tiladi?
A) 3
B) 10
C) 12
D) 8

203. Xorazmiyning "Jahonda sentekin jonon..." deb boshlanuvchi she'ri qaysi janrda?
A) masnaviy
B) g'azal
C) qit'a
D) munojot

204. Xorazmiyning "Jahonda sentekin jonon yo'q, ey jon," matlali g'azalining qofiyalanish tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) a-a, b-a, c-a
B) a-a, a-a, a-a
C) a-b, a-b, a-b
D) a-a, b-b, c-c

205. Xorazmiyning "Jahonda sentekin jonon..." deb boshlanuvchi g'azalining radifi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) ey jon
B) yo'q
C) yarotti
D) yo'q, ey jon

206. Quyidagi qaysi asarda og'zaki ijodning latifa janriga xos bo'lgan belgilar hikoyaga ko'chib o'tgan?
A) "Devoni lug'ot it-turk"
B) "Qissayi Rabg'uziy"
C) "Hayrat ul-abror"

D) "Devoni Hikmat"

207. "Qissayi Rabg'uziy" asari qaysi tilda yozilgan?
A) arab
B) fors
C) uyg'ur
D) turkiy

208. Quyidagi qaysi asarda e'tiqod va iymonga sodiqlik, pok insoniy axloqning badnafslik, hirs-u hasad, qonxo'rlik va nohaqliklar ustidan g'alabasi tasvirlangan?
A) "Devoni lug'ot it-turk"
B) "Qissayi Rabg'uziy"
C) "To'nyuquq"
D) "Kultegin"

209. "Qissayi Rabg'uziy" asarida uzumning urug'ini kim yoki nima o'g'irlaydi?
A) tulki
B) to'ng'iz
C) ilon
D) shayton

210. "Qissayi Rabg'uziy" asarida shayton uzumni nimaning qoni bilan sug'ormaydi?
A) tulki
B) sher
C) to'ng'iz
D) ilon

211. "Qissayi Rabg'uziy" asarida shayton uzumni sug'orgach undan nima paydo bo'ladi?
A) chog'ir
B) shinni
C) sirka
D) zahar

212. "Qissayi Rabg'uziy" asarida shayton sug'organ uzumning chog'iridan ichgan kimsa qaysi hayvondek ko'rmagan kishi birla do'stlik og'oz qilur (boshlar)?
A) tulki
B) yo'lbars
C) to'ng'iz
D) ayiq

213. "Qissayi Rabg'uziy" asarida shayton sug'organ uzumning chog'iridan ichgan kimsa qaysi hayvondek himmati jo'sh bo'lub, har kimga bir nimarsa berur?
A) tulki
B) yo'lbars
C) to'ng'iz
D) ayiq

214. "Qo'zutti jang bilan olamda to'fon,
Oqitti suv tekin yer uzra ko'p qon.
Ekinchi evlari yoqildi o'tqa,
Buday sovruldi, tuproq bo'ldi bo'tqa".
Mamlakatni yov tutgandagi ushbu holat qaysi asardan olingan?
A) "Shohnoma" dostoni
B) "Suhayl va Guldursun" dostoni

C) "Gul va Navro'z" dostoni
D) "Saddi Iskandariy" dostoni

215. "Qissayi Rabg'uziy" asarida shayton sug'organ uzumning chog'iridan ichgan kimsa qaysi hayvondek yuraklik bo'lub, hech ishdin qo'rqmas, har qism yomon ishlar sodir bo'lur?
A) tulki
B) yo'lbars
C) to'ng'iz
D) ayiq

216. "Suhayl" so'zining ma'nosi nima?
A) quyosh
B) oy
C) porloq yulduz
D) tong shamoli

217. Qaysi asar quyidagi so'zlar bilan boshlanadi?
"Emas afsona chin ushbu bitilmish,
Bu chin afsonatek ishqda yetilmish.
Ayittim og'labon davrim jafosin,
Bir erning qissayi ahd-u vafosin".
A) "Sab'ayi Sayyor" dostoni
B) "Suhayl va Guldursun" dostoni
C) "Gul va Navro'z" dostoni
D) "Layli va Majnun" dostoni

218. "O'lib katti so'g'ishda To'xtamishxon,
Tiri ayrildi tuvg'ondin tug'ushg'on". Ushbu baytdagi "so'g'ish" so'zini izohlang.
A) qatl
B) jang
C) zindon
D) surgun

219. "... husni erur Yusufdin oliy,
Etar mot olmani yuzining oli.
Biyik ardamlari bor, so'zi shirin,
Bo'lur oshiq ani ko'rganda Shirin".
Nuqtalar o'rniga kerakli ismni qo'ying.
A) Farhod
B) Suhayl
C) Majnun
D) Farrux

220. "Vale javr toshi yog'ib boshi uzra,
Etipti boshini xam qoshi uzra.
Una yo'qtur zulmkorlarda parvo,
Kima mungaysin etib darda davo?"
Ushbu misralarda qaysi qahramonning asirlikdagi holati tasvirlangan?
A) Farhod
B) Suhayl
C) Navro'z
D) Farrux

221. Quyidagi qaysi asar

qahramoni zindonda yotib tush ko'radi va tushida shoh qizini sevib qoladi?
A) "Kuntug'mish"
B) "Suhayl va Guldursun"
C) "Shohnoma"
D) "Ravshan"

222. "Muhabbat nardida ko'plarni yutgan, Shakardek til bilan olamni tutgan" shoirni aniqlang.
A) Sakkokiy
B) Atoyi
C) Xorazmiy
D) Sayfi Saroyi

223. "Zihi qodirki, ul bir qatra suvni, Muhabbat gavharingga qon yarotti" misralari qaysi asarga tegishli?
A) "Latofatnoma"
B) "Muhabbatnoma"
C) "Gulistoni bit turkiy"
D) "Suhayl va Guldursun"

224. "Muhabbatnoma"da Muhammad Xo'jabek qaysi payg'ambarga qiyoslanmaydi?
A) Iso
B) Sulaymon
C) Yusuf
D) Muso

225. "Muhabbatnoma"ning qaysi nomasida Muhammad Xo'jabek tilidan aytiladigan g'azal mavjud?
A) 2-nomasida
B) 3-nomasida
C) 5-nomasida
D) 1-nomasida

226. "Muhabbatnoma"ning qaysi nomasida Xorazmiy ta'riflashni yorning yuzidan boshlab, keyin qaddini, jamolini, zulfini, ko'zini, so'zini madh etadi?
A) 7-nomasida
B) 3-nomasida
C) 5-nomasida
D) 4-nomasida

227. "Muhabbatnoma"ning nechanchi nomasi so'ngidagi masnaviyda Xorazmiy gulchehra, ya'ni gul yuzli soqiyga murojaat etib o'zining hayrat maqomiga yetkazilishini so'raydi?
A) 3-nomasida
B) 2-nomasida
C) 5-nomasida
D) 1-nomasida

228. "Bo'yung sarv-u sanubartek, beling qil, Vafo qilg'on kishilarga vafo qil" misralarida qanday badiiy san'atdan foydalanilmagan?
A) tazod
B) tashbeh
C) litota
D) tarse

229. Qaysi shoir kecha va

kunduzni bir chiroyli qiz yoki kelinchak kabi tasvirlab, Olloh uning qizil yuzida meng-katta xol yaratdi, shuningdek, bo'yi bilan sochini teng yaratdi deya turkiy adabiyotda badiiy topilma qildi?
A) Lutfiy
B) Atoyi
C) Xorazmiy
D) Sayfi Saroyi

230. "Tilarmankim, bizing til birla paydo,
Kitobe aylasang bu qish qotimdo" deya iltimos qilgan ma'rifatparvar hukmdor kim va uning tashabbusi ila qaysi asar dunyoga kelgan?
A) Dod Sipohsolorbek, "Hibat ul-haqoyiq"
B) Muhammad Xo'jabek, "Muhabbatnoma"
C) Mahmud Sulton, "Latofatnoma"
D) Nosiruddin To'qbug'a, "Qissayi Rabg'uziy"

231. Xorazmiyning "Yuzungda ko'rdum, ey jon, bayram oyin" matlali g'azalining maqtasi berilgan qatorni aniqlang.
A) Necha ko'p sayd etar jonlar humoyin
B) Bo'yungizg'a latofatning buqoyin
C) Jahong'a husnungiz jovin yoyoyin
D) Kim asrarlar qamuq shahlar gadoyin

232. "Erurman vaslingg'a doyim talabgor,
Nechakim tun uzun bo'lsa tongi bor.
Og'ir uyquchi baxtim necha yotqay,
Visoling mashriqidin ham tong otqay".
She'r kimning qalamiga mansub?
A) Xorazmiy
B) Sayfi Saroyi
C) Sakkokiy
D) Atoyi

233. Qaysi afsonaviy podshoh ichidagi mayi tugamaydigan va olamni ko'rsatib turadigan jom-qadah ixtiro qilgan?
A) Sulaymon
B) Jamshid
C) Faylaqus
D) Pog'dixon

234. "Muhabbatnoma"dagi har bir masnaviylar oxirida takrorlanib keladigan baytni aniqlang.
A) Og'ir uyquchi baxtim necha yotqay,
Visoling mashriqidin ham tong otqay.
B) Kel, ey soqiy, keturgil jomi Jamni,
Kishining ko'nglidin may yur g'amni,

C) Kim oshti ko'kka
ohim ihtiroqi,
Kuyurdi ko'nglumi
dilbar firoqi.
D) Saburdin yaxshi
yo'qtur pesha qilsam,
Bu yo'lda sabr yo'q
andesha qilsam.

235. "Muhabbatnoma"ning nechanchi nomasida yor yuzi firdavs-jannat bog'iga o'xshatiladi?
A) 3
B) 2
C) 6
D) 5

236. "Ayo xurshidtek olam charog'i,
Munavvar chehrangiz firdavs bog'i". Baytdagi qo'llanilgan she'riy san'at nomini aniqlang?
A) tamsil
B) ta'did
C) ruju
D) tashbeh

237. "Qamuq ko'rkluklar uzra podshosen,
Masih anfosliq, Yusuf liqosen".
Baytdagi "Masih" so'zi qaysi payg'ambarning nomi (sifati)?
A) Muso
B) Muhammad (s.a.v.)
C) Iso
D) Ayyub

238. "Muhabbatnoma"ning nechanchi nomasida yorning bo'yi sarvga emas, sarv daraxtining qomati yor bo'yiga o'xshatiladi?
A) 3
B) 2
C) 6
D) 5

239. "Jahon bo'ldi jamolingdin munavvar,
Zihi husn-u jamol Allohu Akbar!" misralari muallifi kim?
A) Xorazmiy
B) Sayfi Saroyi
C) Sakkokiy
D) Atoyi

240. "Yarar ming jon bir ishkoling fidosi,
Ko'zum mardumi xolingni fidosi". Xorazmiy qalamiga mansub ushbu baytdagi "mardum" so'zining ma'nosi nima?
A) kiprik
B) nur
C) qorachiq
D) nigoh

241. "Qissayi Rabg'uziy" asarida Nuh alayhissalom uzumni behishti zanjabil bilan sug'orgach undan nima paydo bo'ladi?
A) asal
B) sharob
C) shinni
D) sirka

242. "Qissayi Rabg'uziy" asarida Nuh alayhissalom uzumni salsabil bilan sug'orgach undan nima paydo bo'ladi?
A) asal
B) sharob
C) shinni
D) sirka

243. "Qissayi Rabg'uziy" asarida "bu nimarsalar har uyda bo'lsa, uydin hargiz farishta kam bo'lmas" deya nimalarga ishora qilinadi?
A) uzum va uning urug'i
B) sirka va asal
C) shinni va chog'ir
D) sirka va shinni

244. "Qissayi Rabg'uziy", ilon va qarlug'och hikoyatida Nuh alayhissalom qaysi hayvonni peshonasini silagach uning burnidan mushuk tushadi?
A) tulki
B) yo'lbars
C) to'ng'iz
D) ayiq

245. "Qissayi Rabg'uziy", ilon va qarlug'och hikoyatida ilon kemaning teshigini berkitish uchun Nuh alayhissalomga qanday shart qo'yadi?
A) insoniyatning go'shtini yeyishni
B) qaldirg'ochning go'shtini yeyishni
C) qurbaqaning go'shtini yeyishni
D) nimaning go'shti shirin bo'lsa, shuni yeyishni

246. "Qissayi Rabg'uziy"da Namrud necha kun osmonda uchadi?
A) ikki kecha va kunduz
B) uch kecha va kunduz
C) bir kecha va kunduz
D) to'rt kecha va kunduz

247. "Qissayi Rabg'uziy", Sulaymon va chumoli hikoyatida chumoli qanday nom bilan tilga olinadi?
A) qumursqa
B) mo'rcha
C) qarinchqa
D) chumoli

248. "Qissayi Rabg'uziy"da Namrudi lain qaysi qushning bolasini olib saqlaydi?
A) itolg'u
B) lochin
C) karkas
D) ilvasin

249. "Qissayi Rabg'uziy", Sulaymon va chumoli hikoyatida Manzara Sulaymonning qaysi so'zidan keyin "ma'rifat markabiyni minganingizda erdi, ko'z yumub ochquncha arshi a'loga borur edingiz" deydi?
A) shamolni musaxxar qilib berdi
B) falakka irtifo etdim

C) bir mulk tiladimki hech kimda yo'q
D) bu uzukni berdi, olamning bandi shu uzukdadir

250. O'z ruboiylarining birida "Dedim: ayt, umrning ma'nosi nima?
Dedi: chaqmoq, yo sham, yoki parvona.
Dedim: bu dunyoga bino qo'ygan kim?
Dedi: yo go'l, yo mast, yoki devona" kabi tasavvufiy fikrlarni yozgan shoirni aniqlang.
A) Jaloliddin Rumiy
B) Najmiddin Kubro
C) Ahmad Yassaviy
D) Pahlavon Mahmud

251. "Qissayi Rabg'uziy", ilon va qarlug'och hikoyatida Nuh alayhissalom yo'lbarsning peshonasini silagach uning burnidan qaysi hayvon tushadi?
A) ilon
B) mushuk
C) qaldirg'och
D) sichqon

252. "Borma aytmaganning dasturxoniga,
Qo'l uzotsang, qadring ketar, noniga.
Qo'shma o'zgalarning barra kabobin
Qotgan non-u sovuq suvning soniga". Ushbu she'r muallifini aniqlang.
A) Ahmad Yugnakiy
B) Pahlavon Mahmud
C) Yusuf Xos Hojib
D) Ahmad Yassaviy

253. Pahlavon Mahmud ruboiylarining birida nimani hamma darddan ko'ra yomon, hamma qayg'udan ham yomon deya ta'riflaydi?
A) nochorlikni
B) ayriliqni
C) nomardlikni
D) tanholikni

254. Quyidagi asarlarni atab yozilgan shaxsi bilan muvofiq joylashgan javobni aniqlang.
1) "Gulistoni bit-turkiy";
2) "Devoni lug'ot it-turk";
3) "Hibat ul haqoyiq";
4) "Qutadg'u bilig";
5) "Qissayi Rabg'uziy";
6) "Muhabbatnoma";
7) "Latofatnoma".
a) Nosiruddin To'qbo'g'a;
b) Mahmud Sulton;
c) Muhammad Xo'jabek;
d) Batxasbek;
e) Bug'roxon;
f) Dod Sipohsolorbek;
g) Al-Muqtado.
A) 1-a, 2-g, 3-e, 4-f, 5-d, 6-c, 7-b
B) 1-d, 2-f, 3-e, 4-g, 5-a, 6-c, 7-b
C) 1-d, 2-g, 3-e, 4-f, 5-a, 6-b, 7-c
D) 1-d, 2-g, 3-f, 4-e, 5-a, 6-c, 7-b

255. 1391-yili yozilib, Misr amiri Batxasbekka tortiq etilgan asarni aniqlang.
A) "Shohnoma"
B) "Gulistoni bit-turkiy"
C) "Muhabbatnoma"
D) "Latofatnoma"

256. "Suhayl va Guldursun" dostonining muallifi berilgan qatorni aniqlang.
A) Sakkokiy
B) Xoja
C) Sayfi Saroyi
D) Pahlavon Mahmud

257. Qaysi shoir o'z masnaviylarining birida o'zining adabiy-estetik qarashlarini bayon etib, ijodkorlarning turli guruhlari mavjud ekanligini (bulbul, zog'), shunga muvofiq ularning taqlidchi (to'ti) yoki mustaqil ijodkor bo'lishi va boshqa xususiyatlar haqida to'xtab o'tadi?
A) Sakkokiy
B) Yusuf Xos Hojib
C) Sayfi Saroyi
D) Nodira

258. Bir podshohning tuz yo'qligi uchun o'z qulini kentga yuborib, tuzni qiymat bilan olib kelishni buyurgani, qulning buyuk shohning bu gapiga "tuzni ko'p olmoqlik ila qanday ayb ish qilgayman" deya savol berib, shohning quliga "zulmning asosi avval oz edi, har kim keldi ko'paytirdi, natijada bu g'oyatka yetdi" degani haqida qaysi asarda keltiriladi?
A) "Miftoh ul-adl"
B) "Yatimat ad-dahr"
C) "Qutadg'u bilig"
D) "Gulistoni bit-turkiy"

259. "Dilbarimning zulfi sunbul, chehrasi gulzor erur,
Bo'yina oshiq sanavbar, yuzina gul zor erur".
Bayt muallifi kim va unda qanday badiiy san'at qo'llanilgan?
A) Atoyi, tajnis
B) Sayfi Saroyi, tanosub
C) Lutfiy, tajohilu orifona
D) Sakkokiy, tarse

260. Sayfi Saroyining "Qamar yuzungdin bo'lur munavvar" matlali g'azali necha baytdan iborat?
A) 5
B) 6
C) 7
D) 8

261. Sayfi Saroyining "Qamar yuzungdin bo'lur munavvar" matlali g'azali qofiyalanish tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) a-a, a-a, a-a
B) a-b, a-b, a-b

C) a-a, b-a, c-a
D) a-a, b-b, c-c

262. "Jahon shoirlari, ey gulshani bog',
Kimi bulbuldurur so'zda, kimi zog'".
Bayt kimning qalamiga mansub va ushbu baytda qanday she'riy san'at qo'llanilgan?
A) Sayfi Saroyi, tazod
B) Sakkokiy, tashbeh
C) Lutfiy, tanosub
D) Atoyi, tarse

263. Yusuf Xos Hojib shoirlarni "so'z teruvchilar", Navoiy esa "ruh chamanining xushxon bulbullari" degani ma'lum. Yana kim shoirlarni "so'z bulbuli" deb ataydi?
A) Lutfiy
B) Atoyi
C) Sakkokiy
D) Sayfi Saroyi

264. Xorazmiyning "Qadah chavruldi ush bo'ston ichinda" matlali g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "o"
B) mutlaq, "n"
C) muqayyad, "n"
D) mutlaq, "y"

265. Xorazmiyning "Qadah chavruldi ush bo'ston ichinda" matlali g'azali qofiyalanish tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) a-a, b-a, c-a
B) a-a, a-a, a-a
C) a-b, a-b, a-b
D) a-a, b-b, c-c

266. Kim o'zining bir g'azalida jannat guliga nisbatan "o'tloqqa chiqqil, bu kun o'lturmag'il ayvon ichinda" deya murojaat qiladi?
A) Feruz
B) Xorazmiy
C) Lutfiy
D) Atoyi

267. Xorazmiyning qaysi g'azalida Muhammad Xo'jabekka sohibqiron-baxtli yulduz egasi, saodatli shoh nisbati beriladi?
A) "... yarotti" radifli g'azalida
B) "... ichinda" radifli g'azalida
C) "... yo'q, eyjon" radifli g'azalida
D) "Yuzungda ko'rdim ..." deb boshlanuvchi g'azalida

268. Xorazmiy "Qadah chavruldi ..." g'azalining nechanchi baytidao'z hukmdori uchun "O'kush yillar yaratqon boqiy tutsun,
Hayotingni, begim,

davron ichinda" deya yaratganga ibodat qiladi?
A) 7
B) 8
C) 9
D) 10

269. "Qissayi Rabg'uziy", ilon va qalrug'och hikoyatida ari eng shirin go'sht nimaniki ekanligini aytadi?
A) qaldirg'och
B) odam
C) mushuk
D) sigir

270. "Qissayi Rabg'uziy", ilon va qarlug'och hikoyatida qaysi jonzot arining tilini uzib olib, eng shirin go'sht baqaniki ekan degan mujdani keltiradi?
A) qaldirg'och
B) musicha
C) chumoli
D) mushuk

271. "Qissayi Rabg'uziy", Sulaymon va chumoli hikoyatida Manzara Sulaymondan "haq taolodan nima talab qildingiz?" deganda u nima deydi?
A) shamolni musaxxar qilib berishni
B) falakka irtifo etishni
C) bir mulk tiladimki hech kimda yo'q
D) oyinayi uzuk ato etishini

272. "Yoding bilan ko'nglim
har zamon toza,
Nasim essa bo'lg'ay
guliston toza.
Diydoring farahbaxsh, uni
ko'rganda —
Xotir jam, dil xurram,
tanda jon toza".
Mahmud qalamiga mansub ushbu she'r ruboiyning qaysi turiga mansub va qofiyalanish tartibi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?
A) taronayi, a-a-b-a
B) xosa, a-a-b-a
C) taronayi, a-a-a-a
D) xosa, a-a-a-a

273. Ustoz va ustozini mag'lub etolmagan shogird haqida "Guliston bit-turkiy"da maxsus hikoyat keltirilgan. Yana qaysi zamonaviy shoir xuddi mana shu mavzuda qalam tebratgan?
A) Azim Suyun
B) Iqbol Mirzo
C) Faxriyor
D) Mirzo Kenjabek

274. Sayfi Saroyining "Ul yuzi oykim, jahonning jonidur" matlali g'azalining begona bayti berilgan qatorni aniqlang.
A) Beslasin ushshoq jonin
chun bukun,
Ko'z qamar yuz
husnining davronidur.
B) G'amzasining oltina
olam asir,
Ko'zlari davri qamar

fattonidur.
C) Kirpugining o'qina jonlar nishon,
Qoshi yosining jahon qurbonidur.
D) Shams aning har kun yoqasindan tug'ar,
Ul sababdan bu jahon nuroniydur.

275. Qaysi shoir o'z she'rlarining birida mahbubasining tanini yosaminga, qomatini sarvi ravonga, zulfini jannat bog'ining rayhoniga, ko'zlarini asir qiluvchiga, yuzini quyoshga o'xshatib, yorining ruxsori mavjudligi uchun butun olam nurafshonligini yozadi?
A) Atoyi
B) Lutfiy
C) Sayfi Saroyi
D) Sakkokiy

276. "Yosamin tan, qomati sarvi ravon,
Zulfi jannat bog'ining rayhonidur".
Sayfi Saroyi qalamiga mansub ushbu baytda qanday she'riy san'at qo'llanilgan?
A) tazod
B) tashbeh
C) tanosub
D) tarse

277. Sayfi Saroyining "Ul yuzi oykim, jahonning jonidur" matlali g'azali qofiyalanish tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) a-a, a-a, a-a
B) a-b, a-b, a-b
C) a-a, b-a, c-a
D) a-a, b-b, c-c

278. Sayfi Saroyining "Ul yuzi oykim, jahonning jonidur" matlali g'azalidagi qofiyadosh so'zlar tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
1) nuroniydur;
2) xonidur;
3) davronidur;
4) fattonidur;
5) qurbonidur;
6) jonidur;
7) rayhonidur;
8) hayronidur.
A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8
B) 3, 8, 1, 4, 5, 6, 7, 2
C) 5, 2, 3, 4, 1, 6, 7, 8
D) 6, 2, 7, 4, 5, 1, 3, 8

279. Sayfi Saroyining "Taolalloh, zehi surat zehi mahbubi ravhoni," matlali g'azalining maqtasi berilgan qatorni aniqlang.
A) Kechar hasrat bilan zohid yiroqdan ko'rmagan oni
B) Qulung Sayfi Saroyidur, bukun ul sun hayroni
C) Ko'ngullar qilmag'il ranjur, kechar bu husn davroni
D) Bu izzat birla bo'l ko'b yil, xaloyiqning sevar

joni

280. "Agar desam seni Rustam, yararsen.
Qiliching birla saflarni yorarsen.
Agar madhing bitisa ko'k dabiri,
Tuganmas ming yil ichra mingda biri".
Ushbu she'rda qanday badiiy san'at qo'llanilgan va "ko'k dabiri" deya qaysi yulduzga ishora qilinmoqda?
A) talmeh, Mushtariy
B) mubolag'a, Atorud
C) talmeh, Mirrix
D) mubolag'a, Zuhal

281. "Sanodin o'zga nav atlas to'quyin,
Qish o'rtada bahoriyot o'quyin.
Kim ujmoh tur sening bazming binosi,
Hamisha yoz erur, jannat havosi" misralari kimga tegishli?
A) Xorazmiy
B) Sayfi Saroyi
C) Sakkokiy
D) Atoyi

282. Xorazmiyning "Qadah chavruldi ush ..." deb boshlanuvchi she'ri qaysi janrda?
A) masnaviy
B) g'azal
C) qit'a
D) munojot

283. Xorazmiyning "Qadah chavruldi ush bo'ston ichinda" matlali g'azali necha baytdan iborat?
A) 9
B) 10
C) 7
D) 12

284. "Saburdin yaxshi yo'qtur, pesha qilsam,
Bu yo'lda sabr yo'q, andesha qilsam".
Ushbu bayt qaysi asardan olingan?
A) "Qutadg'u bilig"
B) "Muhabbatnoma"
C) "Shohnoma"
D) "Gulistoni bit turkiy"

285. "Kim ush yeldek kezar ayyomi foniy,
Ajaldin hech kishining yo'q amoni".
Ushbu bayt qaysi asarga tegishli?
A) "Qutadg'u bilig"
B) "Muhabbatnoma"
C) "Shohnoma"
D) "Gulistoni bit turkiy"

286. "Bu qushlar teva chog'luq bo'ldi". Ushbu gapdagi "teva" so'zining ma'nosini toping.
A) tepa
B) baland
C) katta
D) tuya

287. "Qissayi Rabg'uziy", Sulaymon va chumoli

hikoyatida Manzara Sulaymonning qaysi so'zidan keyin "ey, Sulaymon, Mag'ribdan Mashriqqacha tamom olamni musaxxar qilib beribdur. Aning bahosi o'zining nazdida ekan, bas, andog' bo'lsa, anga tamanno qilg'udek ish ermas" deydi?
A) shamolni musaxxar qilib berdi
B) falakka irtifo etdim
C) bir mulk tiladimki hech kimda yo'q
D) olamning bandi shu uzukdadir

288. Qaysi adibning asarlari turli qo'lyozmalar orqali ham yetib kelgan bo'lishiga qaramay, ular, asosan, XIX asrda ko'chirilgan, qadimgi manbalar haligacha topilgan emas?
A) Lutfiy
B) Najmiddin Kubro
C) Pahlavon Mahmud
D) Xorazmiy

289. "Olam ...ni qaytarolmas jur'atimiz.
Charxdan zo'rroq qudratimiz – shavkatimiz,
Gar chumoli kirib qolsa safimizga,
Sher etajak uni darhol davlatimiz". Ushbu so'zlar muallifi kim?
A) Yusuf Xos Hojib
B) So'fi Olloyor
C) Pahlavon Mahmud
D) Haydar xorazmiy

290. "Qora tosh sira ham bo'lmas lojuvard,
Toza qalbga yuqmas aslo chang-u gard,
Quloq solgin Puryoyvaliy so'ziga,
Qo'rqoqlardan biron chiqqanmidi mard".
Mahmud qalamiga mansub ushbu ruboiyda qanday badiiy san'at qo'llanilgan?
A) talmeh
B) husni ta'lil
C) tajnis
D) tazod

291. Qaysi shoir o'z ruboiylarining birida nodon suhbatidan ko'ra uch yuz Ko'hi Qofni belida tuyishni, dil qonidan falakka bo'yoq berishni yoki bir asr zindonda yotishni afzal deb biladi?
A) Navoiy
B) Najmiddin Kubro
C) Lutfiy
D) Pahlavon Mahmud

292. "Uch yuz Ko'hi Qofni belida tuymoq,
Dil qonidan bermoq falakka bo'yoq,
Yoinki bir asr zindonda yotmoq,
Nodon suhbatidan yaxshiroq".
Mahmud qalamiga mansub ushbu ruboiyda qanday

badiiy san'at qo'llanilgan?
A) talmeh
B) husni ta'lil
C) tajnis
D) tazod

293. "Gurkiragan olov-dilim yo'ldoshi,
To'lqin urgan daryo-ko'zlarim yoshi,
Ko'zagarlar yasayotgan har ko'za-
Ko'hna do'stlar xoki-qo'li yo boshi".
Ushbu ruboiy muallifi kim va unda qanday badiiy san'at qo'llanilgan?
A) Navoiy, tarse
B) As-Saolibiy, husni ta'lil
C) Ahmad Yugnakiy, ishtiqoq
D) Pahlavon Mahmud, tazod

294. "Uzun bo'yli ahmoqdan qisqa bo'yli oqil yaxshidir", "bir tavila (to'da) eshakdan zaif tozi it yaxshidir" kabi mazmundagi fikrlar quyidagi asarlarning qaysi birida uchraydi?
A) "Miftoh ul-adl"
B) "Yatimat ad-dahr"
C) "Qutadg'u bilig"
D) "Gulistoni bit-turkiy"

295. "Qilmadi rozin bilikli yor, fosh,
Ketmasun deb shoh sirri birla bosh".
Ushbu she'r "Guliston bit-turkiy"dagi qaysi hikoyatga ilova qilingan?
A) "O'g'ri va tilanchi" hikoyatiga
B) "No'shiravon podshoh va bir qul" hikoyatiga
C) "Sulton Mahmud qullari va Xoja Hasan Maymandiy" hikoyatiga
D) "Ikki xurosonlik sayyoh" hikoyatiga

296. "Shahd so'zi, orif o'zi, voqifi asror erur,
Vasli bo'stonida xush oshiqlarin asror erur".
Bayt muallifi kim va unda qanday badiiy san'at qo'llanilgan?
A) Xorazmiy, tajnis
B) Atoyi, talmeh
C) Sayfi Saroyi, tazod
A) Lutfiy, tajohilu orifona

297. Sayfi Saroyining "Vasf ul-shuaro" g'azalining ikkinchi baytida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "r"
B) mutlaq, "n"
C) muqayyad, "d"
D) mutlaq, "r"

298. Sayfi Saroyining "Vasf ul-shuaro" g'azalining qofiyalanish tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) a-a, a-a, a-a
B) a-b, a-b, a-b
C) a-a, b-a, c-a

D) a-a, b-b, c-c

299. "Jahon shoirlari, ey gulshani bog',
Kimi bulbuldurur so'zda, kimi zog'".
Sayfi Saroyi qalamiga mansub ushbu baytda qanday she'riy san'at qo'llanilgan?
A) talmeh
B) tashbeh
C) tanosub
D) tarse

300. Kim bir masnaviysida o'zining adabiy-estetik qarashlarini bayon etib, u ijodkorlarning turli guruhlari mavjud ekanligini (bulbul, zog'), shunga muvofiq ularning taqlidchi (to'ti) yoki mustaqil ijodkor bo'lishi va boshqa xususiyatlari haqida to'xtab o'tadi?
A) Lutfiy
B) Atoyi
C) Sakkokiy
D) Sayfi Saroyi

301. "Seningdek podshoning marhabosi,
Meningtek ming gadoning xun bahosi" misralari muallifi kim va baytda qanday she'riy san'at qo'llanilgan?
A) Sayfi Saroyi, iyhom
B) Sakkokiy, tashbeh
C) Xorazmiy, tazod
D) Atoyi, tarse

302. "Qissayi Rabg'uziy", Sulaymon va chumoli hikoyatidagi chumolining ismi nima?
A) Tazarru
B) Mo'rcha
C) Qarinchqa
D) Manzara

303. "Ulug'lar, raiyasiga base mehribon bo'lur. Balog'a ulug'lar o'zlarini ro'baro' qilib, kichiklarni xalos qilsa yaxshidur". Ushbu fikrlar qaysi asarda uchraydi?
A) "Zarbulmasal"
B) "Hayrat ul-abror"
C) "Qissayi Rabg'uziy"
D) "Guliston bit-turkiy"

304. Qaysi ijodkorning bir qancha ruboiylari uning qabri ustiga o'rnatilgan maqbara devorlari, peshtoqlariga badiiy naqsh sifatida tushirilgan?
A) Umar Xayyom
B) Najmiddin Kubro
C) Pahlavon Mahmud
D) Sayfi Saroiy

305. Pahlavon Mahmud haqida quyidagi qaysi asarda ma'lumot uchramaydi?
A) "Qomus ul-a'lam"
B) "Otashkadayi Ozariy"
C) "Majolis ul-ushshoq"
D) "Majolis un-nafois"

306. "Puryoyvaliy (yokiPuryoyiVali) xorazmlik Pahlavon Mahmudning laqabidir. Bunda kurash ilmidan mahorat qozongan keksa pahlavon, zo'rxona pahlavonlarining boshlig'i nazarda tutiladi. Zero, qaysi bir kurashchi zo'rxonaga kirmoqchi bo'lsa, dastlab Puryoyvaliyning qadamiga (oyog'iga) bosh qo'yadi". Ushbu ma'lumot qaysi asardan olingan?
A) "Kanz ul-haqoyiq"
B) "Majolis un-nafois"
C) "G'iyos ul-lug'at"
D) "Tarixi mulki ajam"

307. Quyidagilardan o'z ruboiylari bilan mashhur bo'lmagan ijodkorni belgilang.
A) Pahlavon Mahmud
B) Bobur
C) Umar Xayyom
D) Ahmad Yugnakiy

308. Kim ijod maydonini bog' gulshaniga, shoirlarni esa shu bog'dagi qushlarga o'xshatadi?
A) Lutfiy
B) Sayfi Saroyi
C) Atoyi
D) Sakkokiy

309. Muallifning benazir o'xshatishicha qaysi qaharamon o'z seviklisi oldida yer quyosh atrofida aylangandek aylanadi?
A) Mehr
B) Guldursun
C) Layli
D) Shirin

310. Qaysi asarda oshiq yigit bulbulga, ma'shuq qiz esa gulga o'xshatiladi?
A) "Suhayl va Guldursun"
B) "Kuntug'mish"
C) "Layli va Majnun"
D) "Farhod va Shirin"

311. "Iloho, asragin ...,
Xalos aylab zulmdin keng saroying.
Yodi yuz to'qson olti, navro'z oyi,
Xatm etti buni ...".
Nuqtalar o'rniga kerakli ismni qo'ying.
A) bedor Sakkokiy
B) mahzun Navoiy
C) oshiq Atoyi
D) Sayfi Saroyi

312. Quyidagi qaysi adibning taxallusi o'z asarlarida qayd etilgan?
A) Ahmad Yugnakiy
B) Xorazmiy
C) Yusuf Xos Hojib
D) Firdavsiy

313. "Muhabbatnoma" asari kimga bag'ishlab yozilgan?
A) Muhammad Xo'jabekka
B) Nosiruddin To'qbug'aga

C) Mahmud Sultonga
D) Dod Sipohsolorga

314. Quyidagilardan adabiyot tarixida "davlat humoyi" deb ta'riflangan hukmdorni aniqlang.
A) Mirzo Ulug'bek
B) Muhammad Xo'jabek
C) Mahmud Sulton
D) Nosiruddin To'qbug'a

315. "Va ne chora qilsin bulbul qafasda,
Kerak gul g'unchasi ozod nafasda.
Sevar bulbul gulin, gul bulbulin ham,
Nechun gul aylasin bulbul ko'zin nam?"
Ushbu misralar qaysi asardan olingan?
A) "Farhod va Shirin"
B) "Suhayl va Guldursun"
C) "Sab'ayi Sayyor"
D) "Layli va Majnun"

316. "Qissayi Rabg'uziy"dagi qaysi hikoyatda makr-hiyla bilan osmonga chiqib tushgan odam tasvirlangan?
A) Ilon va qarlug'och hikoyatida
B) Uzum hikoyatida
C) Sulaymon va chumoli hikoyatida
D) Namrud hikoyatida

317. Quyidagi qaysi asarda "Avval ko'rishkanin aytur", "Bayoni voqein aytur", "Vasf ul-hol aytur", "Avvalgi nomani aytur", "Xotimatul-kitob", "Iltimosin aytur" kabi nomdagi maxsus boblar uchraydi?
A) "Latofatnoma"
B) "Gulistoni bit-turkiy"
C) "Muhabbatnoma"
D) "Suhayl va Guldursun"

318. "Buyurdi o'zga shodurvon uruldi,
Qadah kelturdilar, majlis quruldi.
Husayniy pardasi uzra tuzub soz,
Mug'anniy bu g'azalni qildi og'oz".
Qaysi asar ushbu so'zlar bilan boshlanadi?
A) "Shohnoma"
B) "Latofatnoma"
C) "Muhabbatnoma"
D) "Suhayl va Guldursun"

319. "Muhabbatnoma"ning nechanchi nomalari forsiy tilda yaratilgan?
A) 1-, 5-nomalar
B) 4-, 8-, 11-nomalar
C) 3-, 7-, 10-nomalar
D) 3-, 6-nomalar

320. "Muhabbatnoma"da Xorazmiy qaysi o'lkalarda bo'lganligini qayd etadi?
A) Misr va Hindiston
B) Oltin O'rda va Chinda
C) Rim va Yamanda
D) Shom va Rumda

321. Adabiyot tarixida "olam podshohi", "gulchehralar molik riqobi", "shohi qaboyil", "ohu nazarlar shahriyori" deya ulug'langan hukmdorni aniqlang?
A) Mirzo Ulug'bek
B) Muhammad Xo'jabek
C) Mahmud Sulton
D) Nosiruddin To'qbug'a

322. "Muhabbatnoma"da Muhammad Xo'jabekning qaysi urug'danligi aytiladi?
A) mang'it
B) kenagas
C) chig'atoy
D) qo'ng'irot

323. "Qattiq kulsagina, og'zi bilinadigan", "isirg'a donasi Zuhro", "qamuq (xalq)ning taniga jon", "yuzining bir nuriga ming kun yetmas", "agar oyog'ini kim o'psa, mangu yashar", "poyida behisob shohlar yer o'puvchi", "ovozasi Saroydan Chin-u Mochingacha borgan" yor obrazi kimning ijodida keltiriladi?
A) Atoyi
B) Lutfiy
C) Sakkokiy
D) Xorazmiy

324. "Xorazmiy "Muhabbatnoma"ning nechanchi nomasida "Salomimni tegur ul dilstong'a, Rahmsiz bevafo jon-u jahong'a" deya tong nasimiga murojaat qiladi?
A) 3
B) 2
C) 6
D) 5

325. Quyidagilardan Muhammad Xo'jabekka armug'on qilingan asarni belgilang.
A) "Latofatnoma"
B) "Qissayi Rabg'uziy"
C) "Hibat ul-haqoyiq"
D) "Muhabbatnoma"

326. "Ayit, mendinkim, ul miskin urur oh, Qachon engay gadoning evina shoh" misralari muallifi kim va baytda qanday she'riy san'at qo'llanilgan?
A) Sayfi Saroyi, iyhom
B) Sakkokiy, tashbeh
C) Xorazmiy, tazod
D) Atoyi, tarse

327. "Qissayi Rabg'uziy"da Namrud qanday qushlar yordamida falakka ko'tariladi?
A) itolg'u
B) lochin
C) karkas
D) ilvasin

328. Quyidagilardan 1247-1326-yillarda Xorazm

diyorida yashab o'tgan ijodkorni aniqlang.
A) Umar Xayyom
B) Najmiddin Kubro
C) Pahlavon Mahmud
D) Xorazmiy

329. "Qissayi Rabg'uziy"da Namrud nechta qush yordamida falakka ko'tariladi?
A) ikkita
B) sakkizta
C) to'rtta
D) oltita

330. "Qissayi Rabg'uziy", Sulaymon va chumoli hikoyatida Manzara Sulaymonning qaysi so'zidan keyin baxil ekansiz deydi?
A) shamolni musaxxar qilib berdi
B) falakka irtifo etdim
C) bir mulk tiladimki hech kimda yo'q
D) uzukni berdi

331. "Olam yeldek o'tar, yelning vujudi bo'lmas, hamma ishlari foniydur, yelni minguncha ma'rifat markaziyni mining". Ushbu so'zlar qaysi asarga tegishli ekanligini aniqlang.
A) "Yatimat ad-dahr"
B) "Hibat ul-haqoyiq"
C) "Qutadg'u bilig"
D) "Qissayi Rabg'uziy"

332. "Man bu zaif holim bila har kecha uxlamay, hamma lashkarimning atrofini aylanib, agar ag'riqi bo'lsa, borib ko'rib sihatligiga munojot qilurman...". Ushbu so'zlar qaysi asardan olingan?
A) "Saddi Iskandariy"
B) "Shohnoma"
C) "Qissayi Rabg'uziy"
D) "Guliston bit-turkiy"

333. Quyidagilardan Kamoliddin Husayn Foniy qalamiga mansub bo'lgan asarni belgilang.
A) "Qomus ul-a'lam"
B) "Otashkadayi Ozariy"
C) "Majolis ul-ushshoq"
D) "Majolis un-nafois"

334. Quyidagi taxalluslardan Pahlavon Mahmudga tegishli bo'lmaganini aniqlang.
A) Qitoliy
B) Puryoyvaliy
C) Puryorvaliy
D) Qalandar

335. Qaysi ijodkor, asosan, po'stindo'zlik, telpakdo'zlik bilan shug'ullangan?
A) Ahmad Yassaviy
B) Umar Xayyom
C) Rudakiy
D) Pahlavon Mahmud

336. "Mahbubimning shirin maqoli yaxshi,
Ham serishva qoshi-hiloli

yaxshi.
Og'iz kunjin kulgidan hech
tiyolmas,
Bo'sa uchun bo'sh joyi –
soli yaxshi".
Pahlavon Mahmud
qalamiga mansub ushbu
ruboiy ruboiyning qaysi
turiga mansub va qofiyaga
olingan so'zlardagi raviy
qaysi qatorda to'g'ri
berilgan?
A) taronayi, "o"
B) xosa, "l"
C) taronayi, "i"
D) xosa, "sh"

337. "Dunyo binokori tuzar
qasr-ayvon,
Tuzib bo'ladi-yu, qiladi
vayron.
Falakka yetkazib bugun
toqini,
Ertaga etadi yer bilan
yakson". Ushbu she'r
muallifini aniqlang.
A) Ahmad Yugnakiy
B) Pahlavon Mahmud
C) Yusuf Xos Hojib
D) Ahmad Yassaviy

338. Sayfi Saroyining "Bu falak nechun meni doim qara qinda tutar" matlali g'azalidagi qofiyadosh so'zlar tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
1) qara qinda;
2) qaroqinda;
3) ishtiyoqinda;
4) yangoqinda;
5) quloqinda
6) firoqinda;
7) ihtiroqinda;
A) 1, 2, 5, 4, 3, 6, 7
B) 7, 2, 3, 1, 5, 6, 4
C) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7
D) 3, 2, 1, 4, 5, 6, 7

339. Sayfi Saroyining "Dilbarimning zulfi sunbul, chehrasi gulzor erur" matlali g'azalining maqtasi berilgan qatorni aniqlang.
A) Husnining chovi Xito-u Chin ichinda bor erur
B) Andin o'zga birla oshiqqa demak ash'or erur
C) Ming yashar har kim dudog'i sharbatin totor erur
D) Zulfina tushgan ko'ngullarning maqomi dor erur

340. Sayfi Saroyining "Qamar yuzungdin bo'lur munavvar" matlali g'azalidagi qofiyadosh so'zlar tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
1) munavvar;
2) mukarrar;
3) mufassar;
4) musavvar;
5) muyassar;
6) musaxxar.
A) 3, 2, 1, 4, 5, 6
B) 1, 5, 3, 4, 2, 6
C) 1, 2, 3, 4, 5, 6
D) 1, 2, 6, 4, 5, 3

341. “Kunash yuzungni ko‘rub xaloyiq,
Bo‘lub tururlar senga musaxxar”.
Ushbu baytdagi “musaxxar” so‘zining ma’nosini toping.
A) muloyim
B) taslim
C) hayratda
D) mujassam

342. “Ko‘ngulga doyim <u>farah</u> berurg‘a,
Kelib xayoling bo‘lur <u>musavvar</u>”.
Ushbu baytdagi ostiga chizilgan so‘zlarning ma’nosini toping.
A) farah-madad, musavvar-tayyor
B) farah-azob, musavvar-egilgan
C) farah-shodlik, musavvar-mujassam
D) farah-forig‘, musavvar-tasvirchi

343. Sayfi Saroyining “Vasf ul-shuaro” g‘azali necha baytdan iborat?
A) 5
B) 6
C) 7
D) 8

344. Sayfi Saroyining “Vasf ul-shuaro” g‘azalining maqtasi berilgan qatorni aniqlang.
A) Kimining loyiqi tashrif-u tahsin
B) Qamar yuzga hamisha mushtari bil
C) Kimi halvo kabi shalg‘am cho‘bin yer
D) Jahon oriflarining xoki poyi

345. “Qamar yuzungdin bo‘lur munavvar,
Shakar so‘zungdin kelur mukarrar”.
Sayfi Saroyi qalamiga mansub ushbu baytda qanday she’riy san’at qo‘llanilgan?
A) talmeh
B) tashbeh
C) tanosub
D) tarse

346. Sayfi Saroyining “Vasf ul-shuaro” g‘azalidagi hojibni aniqlang.
A) shuaro
B) bog‘, zog‘
C) kimi, kimining
D) ash’or, shoir

347. “Alarning ush biri ...,
Jahon oriflarining xoki poyi”.
Nuqtalar o‘rniga kerakli javobni qo‘ying?
A) bedor Sakkokiy
B) mahzun Navoiy
C) oshiq Atoyi
D) Sayfi Saroyi

348. O‘ktam Suhayl Navoiyning “Sab’ayi Sayyor” asaridagi mavjud obraz. Yana kim Suhayl ismli

yigitni o'z asarining bosh obrazi qilib olgan?
A) Sayfi Saroyi
B) Jomiy
C) Haydar Xorazmiy
D) Firdavsiy

349. "Suhayl va Guldursan" nomli dostonning muallifi berilgan qatorni toping?
A) Sayfi Saroyi
B) Jomiy
C) Haydar Xorazmiy
D) Firdavsiy

350. Kim agar quyosh olamni yoritmasa ham, husni butun dunyoni yorug' jahon qila oladi deya ta'riflanadi?
A) Sulaymon
B) Muhammad Xo'jabek
C) Mahmud Sulton
D) Nosiruddin To'qbug'a

351. Xorazmiyning "Yuzungda ko'rdum, ey jon, bayram oyin" matlali g'azali necha baytdan iborat?
A) 5
B) 6
C) 7
D) 8

352. Xorazmiyning "Yaratqonkim, tan ichra jon yarotti" matlali g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "o"
B) mutlaq, "n"
C) muqayyad, "n"
D) mutlaq, "y"

353. Xorazmiyning "Yaratqonkim, tan ichra jon yarotti" matlali g'azali qofiyalanish tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) a-a, b-a, c-a
B) a-a, a-a, a-a
C) a-b, a-b, a-b
D) a-a, b-b, c-c

354. Muhammad Xo'jabek husn bobida kimga qiyoslanadi?
A) Ya'qubga
B) Rustamga
C) Yusufga
D) Ayyubga

355. "Ko'rkluklar uzra xon", "quyosh yanglig'", "falakdek sargardon", "to'lin", "husn ichra sad" kabi badiiy tasviriy vositalar Xorazmiyning qaysi janrdagi she'rida uchraydi?
A) masnaviy
B) g'azal
C) qit'a
D) munojot

356. Xorazmiyning "Yaratqonkim, tan ichra jon" deb boshlanuvchi g'azalining radifi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) jon
B) seni
C) yarotti

D) xon

357. "Eshitting ersa Yusufning jamolin, Seni husn ichra sad chandon yarotti". Baytda kim haqida hukm ketmoqda va qanday she'riy san'at qo'llanilgan?
A) Mahmud Sulton, talmeh
B) Mirzo Ulug'bek, tashbeh
C) Afrosiyob, tarse
D) Muhammad Xo'jabek, talmeh

358. Kim bir jangda Hindiston shohi Roy Ropoy Cho'nani o'limdan qutqarib qolgan?
A) Dehlaviy
B) Bedil
C) Gulxaniy
D) Pahlavon Mahmud

359. "Zihi qodirki, ul bir qatra suvni, Muhabbat gavharingga qon yarotti" misralari qaysi asardan olingan?
A) "Muhabbatnoma"
B) "Gulistoni bit-turkiy"
C) "Latofatnoma"
D) "Qissayi Rabg'uziy"

360. Xorazmiyning "Qadah chavruldi ush ..." deb boshlanuvchi g'azalining radifi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) ichinda
B) bo'ston
C) yarotti
D) qilsam

361. Xorazmiy "Muhabbatnoma"ning qaysi qismida "Muhammad Xo'jabek madhin tugattim, "Muhabbatnoma"ni bunyod ettim deydi?
A) "Vasf ul-hol"da
B) "Avvalg'i nomani aytur"da
C) "Bayoni voqein aytur"da
D) "Avval ko'rishkanin aytur"da

362. "Muhabbatnoma"da keltirilgan Atorud qaysi yulduzning nomi?
A) Merkuriy
B) Venera
C) Yupiter
D) Mars

363. Jannat bulog'ining nomi qaysi javobda berilgan?
A) bahr ul-najot
B) kavsar
C) ayn ul-hayot
D) firdavs

364. Quyidagilardan abadiy barhayot payg'ambar nomi keltirilgan javobni aniqlang.
A) Muso
B) Ayyub
C) Iso
D) Xizr

365. "Jamolingtek kishining yo'q jamoli Darig'o, bo'lmasa erdi zavoli". Ushbu baytda

qofiyaning qaysi turi qo'llanilgan va qofiyadagi tirgak tovushni toping?
A) muqayyad, "o"
B) mutlaq, "o"
C) muqayyad, "i"
D) mutlaq, "l"

366. Quyidagi qaysi adibning "qitoliy" degan taxallusi bo'lgan?
A) Xusrav Dehlaviy
B) Gulxaniy
C) Pahlavon Mahmud
D) Firdavsiy

367. "Xorazmiy "Muhabbatnoma"ning ikkinchi nomasida nimaga murojaat qiladi?
A) oy yuzli dilbarga
B) soqiyga
C) mug'anniyga
D) tong nasimiga

368. Adabiyot tarixida qaysi obraz odamzotning ilonlarga yem bo'lishidan saqlab qolgan?
A) kabutar
B) Semurg'
C) qaldirg'och
D) chumoli

369. Quyidagilardan Shamsiddin Somiy qalamiga mansub bo'lgan asarni belgilang.
A) "Qomus ul-a'lam"
B) "Otashkadayi Ozariy"
C) "Majolis ul-ushshoq"
D) "Majolis un-nafois"

370. Quyidagilardan Lutf Alibek Ozar qalamiga mansub bo'lgan asarni belgilang.
A) "Qomus ul-a'lam"
B) "Otashkadayi Ozariy"
C) "Majolis ul-ushshoq"
D) "Majolis un-nafois"

371. Quyidagi qaysi adibning "Puryoyvaliy", "Puryorvaliy" degan taxalluslari bo'lgan?
A) Xusrav Dehlaviy
B) Gulxaniy
C) Pahlavon Mahmud
D) Firdavsiy

372. Qaysi asarda qora boshning yovi qizil til ekanligi yozilgan?
A) Alisher Navoiy; "Mahbub ul-qulub"
B) Sa'diy She'roziy; "Guliston"
C) Gulxaniy; "Zarbulmasal"
D) Yusuf Xos Hojib; "Qutadg'u bilig"

373. Umar Xayyomdan keyin ijodini faqat ruboiy orqali boyitgan shoirni aniqlang.
A) Pahlavon Mahmud
B) Bobur
C) Navoiy
D) Lutfiy

374. Pahlavon Mahmud qaysi tilda ijod qilgan?
A) fors-tojik
B) arab

C) turkiy
D) ozarbayjon

375. Pahlavon Mahmudning "Kanz ul-haqoyiq" asari qaysi janrda yozilgan?
A) tarkibband
B) masnaviy
C) noma
D) qasida

376. Pahlavon Mahmud tasavvufning qaysi tariqat vakili edi?
A) Yassaviya
B) Kubroviya
C) Naqshbandiya
D) Qalandariya

377. "Dilim yana dilbar domiga tushdi,
Ne dilbar, sitamgar domiga tushdi,
Birining bandidan qutulmay hanuz,
Boshqa paripaykar domiga tushdi".
Ushbu xosa ruboiy muallifi kim va radif qaysi?
A) Pahlavon Mahmud, domiga tushdi
B) Bobur, tushdi
C) Navoiy, dilbar, sitamgar, par-paykar
D) Lutfiy, domiga

378. "Oqil aqli hirsga giriftor bo'lmas,
Hasad qilgan bilan tillo xor bo'lmas,
Nomard – it kabidir, mard – buyuk daryo,
Daryo it damidan hech murdor bo'lmas" misralari kimga tegishli?
A) Pahlavon Mahmud
B) Ahmad Yugnakiy
C) Ahmad Yassaviy
D) Yusuf Xos Hojib

379. Quyidagi qaysi ijodkorning ismi "qilich" degan ma'noni anglatadi?
A) Sakkokiy
B) Bedil
C) Sayfi Saroyi
D) Nodira

380. "Gulistoni bit-turkiy" asarining muallifi berilgan qatorni aniqlang.
A) Sakkokiy
B) Xoja
C) Sayfi Saroyi
D) Pahlavon Mahmud

381. Sayfi Saroyining "Taolalloh, zehi surat zehi mahbubi ravhoni," matlali g'azalining begona bayti berilgan qatorni aniqlang.
A) Kunashtek belgili shohid, jamoli qavlima shohid,
Kechar hasrat bilan zohid yiroqdan ko'rmagan oni
B) Alo, ey dilbari manzur, bu ko'rkingga bo'lub mag'rur, Ko'ngullar qilmag'il ranjur, kechar bu husn davroni

C) Bu muddatni g'animat bil, bu fursatda vafolar qil,
Bu izzat birla bo'l ko'b yil, xaloyiqning sevar joni
D) Qoshing chun bayram oyidur, jahon husning gadoyidur, Qulung Sayfi Saroyidur, bukun ul sun hayroni

382. Sayfi Saroyining "Taolalloh, zehi surat zehi mahbubi ravhoni" matlali g'azalidagi qofiyadosh so'zlar tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
1) hayroni;
2) nuroni;
3) gulistoni;
4) sultoni;
5) oni;
6) davroni;
7) joni;
8) ravhoni.
A) 2, 1, 3, 4, 5, 6, 7, 8
B) 8, 2, 4, 3, 5, 6, 7, 1
C) 3, 2, 1, 7, 5, 6, 4, 8
D) 2, 1, 3, 8, 6, 5, 7, 4

383. Sayfi Saroyining "Bu falak nechun meni doim ..." deb boshlanuvchi g'azalidagi radifni toping.
A) tutar
B) qinda tutar
C) doim tutar
D) qinda

384. Sayfi Saroyining "Dilbarimning zulfi sunbul, chehrasi gulzor erur" matlali g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "r"
B) mutlaq, "o"
C) muqayyad, "d"
D) mutlaq, "u"

385. "Shahd so'zi, orif o'zi, voqifi asror erur,
Vasli bo'stonida xush oshiqlarin asror erur".
Bayt muallifi kim va unda qanday badiiy san'at qo'llanilgan?
A) Sayfi Saroyi, tajnis
B) Xorazmiy, tarse
C) Atoyi, talmeh
D) Lutfiy, tajohilu orifona

386. "Falak aylanmasi-la davr yetgay,
Adolat urlug'undin baxt bitgay".
Ushbu misralar qaysi asardan olingan?
A) "Muhabbatnoma"
B) "Suhayl va Guldursun"
C) "Shohnoma"
D) "Qutadg'u bilig"

387. Quyidagi qaysi asarlarda tushdan badiiy obraz sifatida foydalanilgan?
1) "Kuntug'mish";
2) "Qutadg'u bilig";
3) "Ona tilim";
4) "Alpomish";
5) "Shum bola";

6) "Shohnoma";
7) "Suhayl va Guldursun";
8) "Mirzo Ulug'bek";
9) "Abulfayzxon".
A) 2, 3, 5, 6, 7, 9
B) 1, 3, 4, 6, 7, 8, 9
C) 2, 3, 5, 6, 8, 9
D) 1, 2, 3, 4, 6, 7, 9

388. "Seningsiz manga olamdur qorong'u,
O'lim-da solmag'ay bizlara g'ulg'u.
Agar ming jonim o'lsa senga tortiq,
Bo'lurmu do'st-u yorliq shunda ortiq?".
Ushbu so'zlar qaysi ikki sevishgan yorning o'zaro suhbatidir?
A) Mehr va Suhayl
B) Majnun va Layli
C) Suhayl va Guldursun
D) Farhod va Shirin

389. "Yuzungda ko'rdum, ey jon, bayram oyin,
Munung shukronasi qurbon bo'loyin", deb boshlanuvchi misralar qaysi janrda?
A) masnaviy
B) qit'a
C) g'azal
D) fard

390. Xorazmiy "Qadah chavruldi ush ..." g'azalining beshinchi baytida nimga murojaat qiladi?
A) tong nasimiga
B) oy yuzli dilbarga
C) Ollohga
D) jannat guliga

391. "Ulusqa rahm etib, g'amxor bo'lg'il,
Hamisha shod-u barxurdor bo'lg'il.
Jahonni ezgu oting tutti mutlaq,
Yamon ko'zdin yiroq tutsun seni haq".
O'z davlatpanohiga yo'llangan ushbu o'git va madhlar muallifi kim?
A) Yusuf Xos Hojib
B) Sakkokiy
C) Sayfi Saroyi
D) Xorazmiy

392. "Soching bir torina ming hur yetmas,
Yuzungning nurina ming nur yetmas.
Kishining sensizin ne joni bo'lsun, Aningtek umrining ne soni bo'lsun" kabi misralar muallifini toping?
A) Sakkokiy
B) Xorazmiy
C) Lutfiy
D) Atoyi

393. "Saroydin bordi Chin-Moching'a choving,
Qiyo boqsang bo'lur arslonlar oving" misralari muallifi kim va baytda qanday she'riy san'at qo'llanilgan, Mochin qaysi hududga to'g'ri keladi?

A) Sayfi Saroyi, talmeh, Xo'tan
B) Sakkokiy, tashbeh, Qoshg'ar
C) Xorazmiy, talmeh, Sharqiy Turkiston
D) Atoyi, tarse, Mo'g'uliston

394. "Muhabbatnoma"da keltirilgan Mushtariy qaysi yulduzning nomi?
A) Merkuriy
B) Venera
C) Yupiter
D) Mars

395. Quyidagilardan "foniy" (yoki "fanoiy") taxallusi bilan ijod qilgan adiblarni belgilang.
A) Alisher Navoiy, Lutf Alibek Ozar
B) Furqat, So'fizoda
C) Kamoliddin Husayn, Alisher Navoiy
D) Maxtumquli, Fitrat

396. "Puryoyvaliy" taxallusiga qaysi asarda "aziz va mukarram" deya izoh beriladi?
A) "Kanz ul-haqoyiq"
B) "Majolis un-nafois"
C) "G'iyos ul-lug'at"
D) "Tarixi mulki ajam"

397. "Puryoyvaliy" so'zining majoziy ma'nosi nima?
A) bir-biri bilan jang qilmoq
B) ma'naviy ustoz
C) yetuk, komil
D) aziz, mukarram

398. Pahlavon Mahmud ruboiylari tarjimoni bo'lmagan shaxsni aniqlang.
A) To'xtasin Jalolov
B) Matnazar Adbulhakim
C) Ergash Ochilov
D) Asqar Mahkam

399. Xorazmda Najmiddin Kubrodan boshlangan javonmardlik tariqatining davomchisi, Sharqda nomi chiqqan, hayotda mardlik va jasurlikni, muhtojlarga beminnat saxovat ko'rsatish, o'zi uchun esa hech narsa ta'ma qilmaslikni targ'ib etgan va botinda ilohiy ma'rifatni kashf etish, riyozat bilan irfoniy kamolot sari borishni hidoyat etgan allomani aniqlang.
A) Pahlavon Mahmud
B) Mashrab
C) Gulxaniy
D) Maxmur

400. "Yo'lga boqqin, yo'lchi odamlar ketdi,
G'ofil o'tirmagil, hamdardlar ketdi,
Bir qavm senga yaqin va uyg'un edi,
U qavm o'tib, yaqin odamlar ketdi".
Ushbu ruboiy muallifi kim va unda qanday badiiy san'at qo'llanilgan?

A) Navoiy, tarse
B) As-Saolibiy, tazod
C) Ahmad Yugnakiy, ishtiqoq
D) Pahlavon Mahmud, takrir

401. Qaysi shoir o‘z she’rlaridan birida “oqil ahlining nafsga giriftor bo‘lmasligi, hasad qilgan bilan oltinning xor bo‘lmasligi, daryoning it damidan hech iflos bo‘lib qolmasligi” haqidagi falsafiy fikrlarni ilgari suradi?
A) Pahlavon Mahmud
B) Ahmad Yugnakiy
C) As-Saolibiy
D) Yusuf Xos Hojib

402. “Nechakim ishqi o‘ti bu jon ichinda bor erur, Qahrabo uzra ko‘zumda dam-badam dur bor erur”.
Bayt muallifi kim va unda qanday badiiy san’at qo‘llanilgan?
A) Sayfi Saroyi, tajnis
B) Xorazmiy, tarse
C) Atoyi, talmeh
D) Lutfiy, tajohilu orifona

403. Pahlavon Mahmud ruboiylari tarjimoni bo‘lmagan shaxsni aniqlang.
A) Imomiddin Qosimov
B) Omonulla Valixonov
C) Vasfiy
D) Mirsodiq Is’hoqov

404. “Ishqining elchisina ko‘nglum munaqqash dor erur, Zulfina tushgan ko‘ngullarning maqomi dor erur”.
Bayt muallifi kim va unda qanday badiiy san’at qo‘llanilgan?
A) Xorazmiy, tajnis
B) Atoyi, tanosub
C) Lutfiy, tazod
D) Sayfi Saroyi, takrir

405. Sayfi Saroyining “Vasf ul-shuaro” g‘azalining to‘rtinchi baytida qofiyaning qaysi turi qo‘llangan va qofiyadosh so‘zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, “r”
B) mutlaq, “n”
C) muqayyad, “d”
D) mutlaq, “r”

406. “Qo‘l-oyog‘in etib zanjir bilan band, Yog‘ochnida anga ettilar poband.
Va oni tashladilar katta chohga,
Sira osmay alar go‘sh oh-u vohga”.
Ushbu misralarda qaysi qahramonning chohga tashlanish holati tasvirlangan?
A) No‘mon
B) Farhod
C) Suhayl

D) Navdar

407. "U yolg'iz sahro ichra qoldi yolg'iz,
Bo'lub tashna, qurub qolg'ontek ildiz.
Menga yaxshi dedi yor birla o'lmak,
Na lozim g'am bilan dunyoda qolmak!" misralarida qaysi qahramonning holati tasvirlangan?
A) Kuntug'mish
B) Xolbeka
C) Guldursun
D) Suhayl

408. "Qiloyin ikki bobin porsi ham,
Kim atlas to'n yarashur bo'lsa, mu'lam" misralarida Xorazmiy nimani nazarda tutgan?
A) asarni ikki tilda yozilganini
B) asarning ikki bobi Xo'jabekka bag'ishlanganini
C) asarning ikki bobi forsiy tilda bitilganini
D) asarning ikki yilda yozilganini

409. "Muhabbatnoma"ning 5-nomasida Xorazmiy kimga murojaat qiladi?
A) soqiyga
B) bodi saboga
C) oy yuzli dilbarga
D) mug'anniyga

410. Xorazmiy qaysi janrning o'zbek adabiyotidagi dastlabki namunasini yaratmagan?
A) qit'a
B) g'azal
C) fard
D) qasida

411. Zullisonaynlik an'anasi asosida yaratilgan asarni belgilang.
A) "Gulistoni bit-turkiy"
B) "Latofatnoma"
C) "Muhabbatnoma"
D) "Suhayl va Guldursun"

412. "Arslon yurak", "qo'ng'irot urug'", "ulug'larning ulug'i", "saodat ma'dani", "iqbol ganji", "olam kunji" deya ulug'langan hukmdorni aniqlang.
A) Tavg'ach ulug' Bug'roxon
B) Muhammad Xo'jabek
C) Mahmud Sulton
D) Nosiruddin To'qbug'a

413. "Ulus tuttung qamuq aqling kuchindin,
Cherikta qon tomar qamching uchindin.
Sanga jud-u shijoat bo'ldi pesha, Shijoat birla judungdin hamisha" misralarida kim haqida so'z bormoqda va she'rda qanday badiiy san'at qo'llanilgan, ostiga chizilgan so'zning ma'nosi

nima?
A) Mirzo Ulug'bek, ruju, muruvvat
B) Tavg'ach ulug' Bug'roxon, ramz, baxt
C) Mahmud Sulton, ta'did, azm
D) Muhammad Xo'jabek, takrir, saxovat

414. "Gahe Hotam uyolur bazm ichinda.
Gahe Rustam yuponur razm ichinda.
Qachonkim ikki saf bo'lsa muqobil,
Sening chokarlaring o'q ko'krayur, bil" misralarida qanday badiiy san'at qo'llanilgan va she'rdagi "razm" so'zining ma'nosi nima?
A) ta'did, nazar
B) tashbeh, qo'shin
C) takrir, jang
D) tarse, kuch

415. "Nechakim bo'lsalar ko'k ichra jovid,
Atorud bitgachi, borbatchi Nohid.
Quyoshdek davlating tobanda bo'lsun,
Eshikingda yeti ko'k banda bo'lsun".
Ushbu misralarda kimning sha'niga tilaklar o'qilmoqda va she'rda qanday she'riy san'atlardan foydalanilgan?
A) Tavg'ach ulug' Bug'roxon, tak...
tashbeh
B) Muhammad Xo'jab...
talmeh, tashbeh
C) Mahmud Sulton, ta'd...
ruju
D) Mirzo Ulug'bek, ruju,
tamsil

416. Pahlavon Mahmud ruboiylari tarjimoni bo'lmagan shaxsni aniqlang.
A) Shoislom Shomuhamedov
B) Ulfat
C) Muinzoda
D) Asqar Mahkam

417. "Yigitsen, boda ichkil, nuql oshog'il,
Bugundin sen yuz ellik yil yashog'il" misralaridagi majoziy "boda ichkil" birikmasini qaysi ma'noda tushunish mumkin?
A) no'sh (may) ichgil
B) asarni zavq ila o'qigil
C) hayotdan bahra olgil
D) ishq sharobin ichgil

418. "Kim asru bevafodur bu zamona,
Jahon qolmas kishiga jovidona (abadiy)"misralari muallifi kim?
A) Xorazmiy
B) Rudakiy
C) Firdavsiy
D) Atoyi

419. "Qaro mengol
yang'oqingga yaroshur,
Boshim doyim adoqing'a
yaroshur.
Bo'yung sarv-u sanubartek,
beling qil,
Vafo qilg'on kishilarg'a vafo
qil". Ostiga chizilgan
so'zlar ma'nosini izohlang.
A) meng-men, ol-ochiq, adoq-oyoq, sarv-tik o'suvchi daraxt
B) meng-xol, ol-qizil, adoq-oyoq, sarv-tik o'suvchi daraxt
C) meng-xol, ol-qizil, adoq-bosh, sarv-chiroyli gul
D) meng-xol, ol-go'zal, adoq-oyoq, sarv-tik o'suvchi daraxt

420. Pahlavon Mahmudning nomi qayerlarda mashhur bo'lgan?
A) Eron va Hindistonda
B) Xorazm va Turkistonda
C) Chig'atoy va Eronda
D) Hindiston va Xorazmda

421. "Ul qodirki arz-u aflok
yaratdi,
Ko'ngulda dog', dilni
g'amnok yaratdi.
Mushkin zulflarni-yu,
yoqut lablarni
Yerga qorib, oxirda xok
yaratdi".
Ushbu ruboiy muallifi kim va uchinchi misradagi "mushkin" so'zining ma'nosi nima?
A) Bobur, "egilgan"
B) Ogahiy, "kishandek"
C) Pahlavon Mahmud, "qora"
D) Mashrab, "qizil"

422. "Ko'nglim oppoq, na
kek va na kiynam bor,
Dushmanim ko'p,
valekin men hammaga
yor.
Mevali daraxtman, har
bir o'tkinchi,
Tosh otib o'tsa ham
menga bo'lmas or".
Mahmud qalamiga mansub ushbu ruboiyda qanday badiiy san'at qo'llanilgan?
A) tarse
B) husni ta'lil
C) tajnis
D) tazod

423. "Tuproq to'shagida
yotgan ko'p ko'rdim,
Qaro yer bag'riga botgan
ko'p ko'rdim,
Yo'qlik olamiga ko'z
tashlaganda,
Kelmagan ko'p ko'rdim,
ketgan ko'p ko'rdim".
She'r muallifi kim va she'rda qofiyaning qaysi turi qo'llanilgan?
A) Sadiy She'roziy, muqayyad
B) Pahlavon Mahmud, mutlaq
C) Sayfi Saroyi, och
D) Rudakiy, to'q

424. "Yo vafo yo'q turur bu
olamda,

Yo kishi qilmadi jahonda ani.
Mendan o'q ilmin o'granib ketkan,
Oqibat qildi ul nishona mani".
Ushbu she'r "Guliston bit-turkiy"dagi qaysi hikoyatga ilova qilingan?
A) "Uzun bo'yli ahmoq va qisqa bo'yli oqil haqida"gi hikoyatga
B) "No'shiravon podshoh va bir qul" hikoyatiga
C) "Bir kurashchi shogird va ustoz" hikoyatiga
D) "Ikki xurosonlik sayyoh" hikoyatiga

425. Bir o'g'rining bir tilanchiga "-uyalmaysanmi, bir xasis yoniga borib, ter to'kib qo'l uzatursan",- degani va tilanchining bunga javoban "-ikki dirham uchun qo'lim uzilgan ko'ra, arzimagan aqcha uchun ko'p turib qo'l uzatganim yaxshi"-degani haqidagi hikoyat qaysi asarda keltirilgan?
A) "Yatimat ad-dahr"
B) "Miftoh ul-adl"
C) "Gulistoni bit-turkiy"
D) "Qutadg'u bilig"

426. Sayfi Saroyining "Bu falak nechun meni doim qara qinda tutar" matlali g'azali qofiyalanish tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) a-a, a-a, a-a
B) a-b, a-b, a-b
C) a-a, b-a, c-a
D) a-a, b-b, c-c

427. Sayfi Saroyining "Dilbarimning zulfi sunbul chehrasi gulzor erur" matlali g'azalining [illegible] bayti berilgan qatorni toping.
A) Asli alchin, so'zlari chin ko'zlari totor erur,
Ming yashar har kim dudog'i sharbatin totor erur
B) Ishqining elchisina ko'nglum munaqqash dor erur,
Zulfina tushgan ko'ngullarning maqomi dor erur
C) Nechakim ishqi o'ti bu jon ichinda bor erur,
Qahrabo uzra ko'zumda dam-badam dur bor erur
D) Shahd so'zi, orif o'zi, voqifi asror erur,
Vasli bo'stonida xush oshiqlarin asror erur

428. "Alar ko'p yurdi-yu sahrog'a kirdi,
Gunashdin sahro ichra do'zax erdi.
Yo'q erdi suv, yemakka anda o'tmak,
Agar bo'lganda ham aqchasi lak-lak.
Uchib kelmas edi

qushlar bu yerga,
Topilmas erdi suv,
tashna har erg'a".
Ushbu misralarda qaysi qahramonlar holati tasvirlangan?
A) Kuntug'mish va Xolbeka
B) Majnun va Layli
C) Yusuf va Zulayho
D) Suhayl va Guldursun

429. "Muhabbatnoma"ning nechanchi nomasi tong nasimiga murojaat bilan boshlanadi?
A) 2-nomasi
B) 3-nomasi
C) 5-nomasi
D) 1-nomasi

430. "Muhabbatnoma"da nomalar so'ngidagi masnaviylarning barchasida soqiyga murojaat qilinadi. Nechanchi nomada Xorazmiy soqiyga emas, oy yuzli dilbarga murojaat qiladi?
A) 2-nomada
B) 3-nomada
C) 5-nomada
D) 1-nomada

431. Xorazmiy "Aningkim, ol enginda meng yaratti,
Bo'yi birla sochini teng yaratti", deganda nimani nazarda tutgan?
A) qizil yuz va bo'y-kecha, meng va soch-kunduz, kun bilan tunning tengligi
B) qizil yuz va bo'y-kunduz, meng va soch-kecha, oshiq-ma'shuqlarning tengligi
C) qizil yuz va bo'y-kunduz, meng va soch-kecha, shoh va xalqning tengligi
D) qizil yuz va bo'y-kunduz, meng va soch-kecha, kun bilan tunning tengligi

432. "Kuchum yetmishcha ko'p xizmat qiloyin,
Jahong'a ezgu otingni yoyoyin.
Bu kun tongga tekin may no'sh qilg'in,
Badiha bu g'azalni go'sh qilg'in" misralari kimga tegishli?
A) Ahmad Yugnakiy
B) Rudakiy
C) Xorazmiy
D) Sayfi Saroyi

433. Muhammad Xo'jabek hukmdorlik bobida kimga qiyoslanadi?
A) Ya'qubga
B) Rustamga
C) Yusufga
D) Sulaymonga

434. Xorazmiy "Qadah chavruldi ush bo'ston ichinda" matlali g'azalida nima chaman farroshiga

qiyoslanib, uning bo'ston ichra gulafshonlik qilishi aytiladi?
A) sabo parilari
B) tong tomchilari
C) xushxon bulbullar
D) tong nasimi

435. Kimning qaysi g'azalida tanasidan yerga uzilib tushgan chechak yaproqlari qon ichidagi aqiq-majozan yorning qizil lablariga o'xshatiladi?
A) Saroyining "Dilbarimning zulfi sunbul, chehrasi gulzor erur" matlali g'azalida
B) Sakkokiyning "Ey gul, yuzingga hur-u pari bandayi joni" matlali g'azalida
C) Xorazmiyning "Qadah chavruldi ush bo'ston ichinda" matlali g'azalida
D) Atoyining "Ko'ngulni olg'ali zulfung kamandi" matlali g'azalida

436. "Yiroqdan qarasam, labing purxanda,
Ozod edim, tag'in bo'libman banda.
Ozodlikdan har bir banda erur shod,
Men shodmanki, senga bo'lubman banda". Ushbu ruboiy muallifi kim va ilk misradagi "purxanda" so'zining ma'nosi nima?
A) Pahlavon Mahmud, "kulgi ila to'la"
B) Bobur, "qip-qizil"
C) Navoiy, "kishandek"
D) Lutfiy, "ovlovchi"

437. "Ey xoja, sen nechun buncha bexabar,
Xayolingda kecha-kunduz kumush, zar,
Dastmoyang-ku bu olamda bir kafan,
Buyurganmi senga kafan, kim aytar?".
O'ziga xos murojaatning bir ko'rinishi bo'lgan ushbu she'r muallifi kim va ostiga chizilgan so'zning ma'nosi nima?
A) Bobur, "nihoya"
B) Ogahiy, "taqdir"
C) Pahlavon Mahmud, "pul"
D) Mashrab, "gunoh"

438. "Davronda ko'p ko'zni men giryon ko'rdim,
Neki balo bo'lsa, beomon ko'rdim.
Nuh-ku ming yil yashab ko'rdi bir to'fon,
Men Nuh bo'lmasam ham ming to'fon ko'rdim".
Pahlavon Mahmud qalamiga mansub ushbu ruboiyda qanday badiiy san'at qo'llanilgan?
A) talmeh
B) husni ta'lil
C) tajnis
D) tazod

439. "Ko'zgumga berardim kechqurun sayqal, Boqdim unga tiniq bo'lgan bir mahal, Shuncha ko'p ko'rindi o'z aybimki, men O'zgalar aybini unutdim tugal". Yashamoqning ma'no-maqsadi o'ziga xos talqin etilgan ushbu she'r muallifi kim?
A) Jaloliddin Rumiy
B) Pahlavon Mahmud
C) Yusuf Xos Hojib
D) Ahmad Yassaviy

440. "Ey ishq, nechuk o'tsan axir, duding yo'q,
Ey g'am, nechuk kuysankim, suruding yo'q?
Ey orzu, nechuksan, tutqich bermaysan,
Ey shodlik, nechuksankim, vujuding yo'q?
She'r muallifi kim va she'rdagi "surud" so'zining ma'nosi nima?
A) Sadiy She'roziy, so'z
B) Pahlavon Mahmud, qo'shiq
C) Sayfi Saroyi, soz
D) Rudakiy, yig'i

441. O'z she'rlarining birida "orazing yuzidan yonib, qizardim, agar vaslingga yetishsam, poyingga bu qizargan yuzimni suraman" degan shoir kim?
A) Atoyi
B) Lutfiy
C) Pahlavon Mahmud
D) Xorazmiy

442. O'z ruboiylarining birida yozishicha, "necha yil ilm-u hunar, zar-zevar payida bo'lib, olam sirlaridan ogoh bo'lganda, hammasini qo'yib, qalandar bo'lgan" shoirni aniqlang.
A) Boborahim Mashrab
B) Lutfiy
C) Pahlavon Mahmud
D) Rudakiy

443. "Xudoni yod etib, biyobon ketdik,
Biz tan olamidan jon tomon ketdik,
Tun-u kun fikr etdim yetmish ikki yil,
Sarson bo'lub yurdik, ham hayron ketdik".
She'r muallifi kim va she'rda qofiyaning qaysi turi qo'llanilgan?
A) Rudakiy, mutlaq
B) Pahlavon Mahmud, muqayyad
C) Sayfi Saroyi, och
D) Rudakiy, to'q

444. "Toki bor mardlig-u g'ayratdan asar,
Ahl-u ayolingni etma darbadar,
Meva shoxi agar devordan oshsa,

Yo‘lovchilar unga beshak qo‘l cho‘zar”. She’r muallifi kim va qofiyaga olingan so‘zlardagi raviyni toping?
A) Pahlavon Mahmud, “r”
B) Ahmad Yugnakiy, “a”
C) Firdavsiy, “r”
D) Yusuf Xos Hojib, “a”

445. Quyidagilardan 1321-1396-yillarda yashab o‘tgan ijodkorni aniqlang.
A) Sakkokiy
B) Lutfiy
C) Pahlavon Mahmud
D) Sayfi Saroyi

446. Muhammad ibn Arabshoh qaysi shaharga “tutgan o‘rni va xalqining juda ko‘p bo‘lishi bilan eng katta shaharlarning biri bo‘lib, fan markaziga aylandi va oz vaqt ichida bu yerda ko‘plab atoqli, mashhur kishilar to‘plandi” deya ta’rif beradi?
A) Xorazm
B) Saroy
C) Isfahon
D) Bag‘dod

447. Quyidagilardan Saroy shahrida ijod etmagan shoirni belgilang.
A) Qutbiddin ar-Roziy
B) Masoud Taftazoniy
C) Atoyi
D) Kamoliddin at-Turkmaniy

448. Quyidagilardan Saroy shahrida ijod etmagan shoirni belgilang.
A) Muhammad ibn Bazzoziy
B) Kamoliddin Xo‘jandiy
C) Masoud Taftazoniy
D) Sakkokiy

449. “O‘sib tuprog‘im uzra nayzalar, men evdin ayrildim,
Vatandin benishon o‘ldim da, o‘zga yurtga evrildim,
Nechun menga falak jabr ayladi, qanday gunohim bor?
Iloho, ayla kam jabring, men elga sodiq ul erdim”, degan misralar qaysi shoir qismatiga ishoradir?
A) Sakkokiy
B) Bedil
C) Sayfi Saroyi
D) Nodira

450. “Gulistoni bit-turkiy” asari kimga bag‘ishlab yozilgan?
A) Amir Batxasbekka
B) Dod Sipohsolorga
C) Muhammad Xo‘jabekka
D) Mahmud Sultonga

451. Adabiy tanqidchilikning o‘ziga xos bir ko‘rinishi sifatida ham qabul qilish mumkin bo‘lgan “Vasf ul-shuaro” (“Shoirlar vasfi”) she’ri muallifi berilgan qatorni aniqlang.

A) Sakkokiy
B) Lutfiy
C) Atoyi
D) Sayfi Saroyi

452. "Suhayl va Guldursun" dostoni necha bayt, necha misradan iborat?
A) 82 bayt, 164 misra
B) 92 bayt, 184 misra
C) 72 bayt, 144 misra
D) 62 bayt, 124 misra

453. Sayfi Saroyi kimning mashhur "Guliston" asarini "Gulistoni bit-turkiy" nomi bilan o'zbekchalashtirgan?
A) Hofiz She'roziy
B) Firdavsiy
C) Rudakiy
D) Sadiy She'roziy

454. Quyidagi qaysi dostonda inson erki haqida kuchli mulohazalarga keng o'rin berilgan?
A) "Shohnoma"
B) "Suhayl va Guldursun"
C) "Qutadg'u bilig"
D) "Shayboniynoma"

455. "Gulistoni bit-turkiy" asari qaysi vaznda yozilgan?
A) hazaji musaddasi maqsur
B) ramali musaddasi maqsur
C) mutaqoribi musammani maqsur
D) rajazi musaddasi solim

456. "Xalq bog'ining bir olmasin sulton olib yesa,
Yuzor mundin yegay bir qul barini ilmayin tishka.
Buyursa kuch bila sulton besh tuxumni olurg'a,
Navkarlari tutub sanchar yigirma g'ozni bir shishka".
Ushbu she'r "Gulistoni bit-turkiy"dagi qaysi hikoyatga ilova qilingan?
A) "Uzun bo'yli ahmoq va qisqa bo'yli oqil haqida"gi hikoyatga
B) "No'shiravon podshoh va bir qul" hikoyatiga
C) "Bir kurashchi shogird va ustoz" hikoyatiga
D) "Ikki xurosonlik sayyoh" hikoyatiga

457. "Har kima bo'lsa tabiat oz yemak,
Ollina kelsa mashaqqat sabr etar.
Kim badan beslar esa keng aysh uza,
Tor yerga o'g'rasa eldan ketar".
Ushbu she'r "Guliston bit-turkiy"dagi qaysi hikoyatga ilova qilingan?
A) "Uzun bo'yli ahmoq va qisqa bo'yli oqil haqida"gi hikoyatga
B) "No'shiravon podshoh va bir qul" hikoyatiga
C) "Bir kurashchi shogird va ustoz" hikoyatiga
D) "Ikki xurosonlik sayyoh"

hikoyatiga

458. Sayfi Saroyining "Bu falak nechun meni doim qara qinda tutar" matlali g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "r"
B) mutlaq, "q"
C) muqayyad, "d"
D) mutlaq, "a"

459. "Odati budur hamisha bevafo ma'shuqaning –
Kim aning vaslin tilasa, ul firoqinda tutar" misralari muallifini toping.
A) Atoyi
B) Lutfiy
C) Sayfi Saroyi
D) Sakkokiy

460. Sayfi Saroyining "Dilbarimning zulfi sunbul, chehrasi gulzor erur" matlali g'azali necha baytdan iborat?
A) 5
B) 6
C) 7
D) 8

461. "Asli alchin, so'zlari chin, ko'zlari totor erur,
Ming yashar har kim dudog'i sharbatin totor erur".
Bayt muallifi kim va unda qanday badiiy san'at qo'llanilgan?
A) Xorazmiy, tarse
B) Atoyi, tanosub
C) Lutfiy, tajohilu orifona
D) Sayfi Saroyi, tajnis

462. 1321-yili Qamishli (Xorazm)da tug'ilib, Oltin O'rda poytaxti Saroyda bilimini oshirgan va umrining oxirini Misrda o'tkazgan ijodkorni aniqlang.
A) Xorazmiy
B) Sakkokiy
C) Lutfiy
D) Sayfi Saroyi

463. "Vasfina Sayfi Saroyining ishi ash'or erur,
Andin o'zga birla oshiqqa demak ash'or erur".
Bayt muallifi kim va unda qanday badiiy san'at qo'llanilgan?
B) Xorazmiy, tarse
C) Atoyi, talmeh
D) Sayfi Saroyi, tajnis
E) Lutfiy, tajohilu orifona

464. "Kimi o'zganing ash'orin menim der,
Kimi halvo kabi shalg'am cho'bin yer". Bayt muallifi kim?
A) Lutfiy
B) Atoyi
C) Navoiy
D) Sayfi Saroyi

465. "... shu yo'l uzar bormoqda g'amgin,

Sevinchi qora kiygan, ko'zi namgin.
Uning ko'nglinda so'lg'inliq hamisha,
Ko'rinmas unga gulzor-u na besha".
Ushbu misralarda qaysi qahramonning asirlikdagi holati tasvirlangan?
A) Majnun
B) Suhayl
C) Farhod
D) Navro'z

466. "Gunash dunyo yuzindin chohg'a botti,
Uzulgan gul tekin tuproqda yotti.
U yotgan choh ichi yo'q shu'layi nur,
O'langamas tiriga erdi bir go'r".
Ushbu misralarda qaysi qahramonning chohga tashlanish holati tasvirlangan?
A) Mehr
B) Farhod
C) Suhayl
D) Navdar

467. Deyub anga ... "Ne gul terursen?
O'zing gulshanda ko'rkli gul erursen.
Nedur zoting, pari yo odamizod?
Manga ayt, otingni doim etay yod,
Shukurlar etoyin allog'a ming bor,
Ki yetkurdi manga sentek gunash yor".
Ushbu misralar kimning kimga murojaati?
A) Ravshanning Zulxumorga
B) Majnunning Layliga
C) Suhaylning Guldursunga
D) Farhodning Shiringa

468. "Bor erdi shoh qizi, ... oti,
Tilim evrilmas aytmog'a sifoti(n).
Emas gul yuzi ... din ortuq,
Aning ko'nglinda ishq tengizdin ortuq.
Eturdi fasli gul sayri xiyobon,
Necha mahramlari birlan xiromon".
Ushbu she'rda tasvirlangan qahramonni aniqlang.
A) Mehr
B) Guldursun
C) Layli
D) Gul

469. "Suhayl va Guldursun" dostonida Suhayl qachon o'zini asir, qul emas podshohdek his qiladi?
A) Guldursunni ilk bor tushida ko'rganda
B) Ozodlikka erishganda
C) Do'stini ko'rganda
D) Guldursunni ilk bor o'ngida ko'rganda

470. "Xotin sodiq, ani sevgil, aziz er,

Har og'ir ishda ham doim seni der.
Unga do'st bo'l, uni sevgil, ko'ngul ber,
Uning so'z bahridan gavharlarin ter!",
Ushbu misralar qaysi asardan olingan?
A) "Qarolar falsafasi"
B) "Suhayl va Guldursun"
C) "Muhabbatnoma"
D) "Mahbub ul-qulub"

471. "Kelib ko'nglima Majnun, Layli yodi,
Dafotir ustina so'z seli yog'di.
Bo'lur bu bitikkim, tarixga yodgor,
Bu yodgorimda yolg'on yo'g'-u chin bor".
Ushbu misralar qaysi asarga tegishli?
A) "Farhod va Shirin"
B) "Sab'ayi Sayyor"
C) "Muhabbatnoma"
D) "Suhayl va Guldursun"

472. Qaysi shoir o'z asarida mol uchun madh-u sano aytmasligini aytadi?
A) Sakkokiy
B) Xorazmiy
C) Xo'jandiy
D) Sayfi Saroyi

473. "Aningkim, ol enginda meng yaratti,
Bo'yi birla sochini teng yaratti" misralaridagi "meng" so'zining ma'nosi nima?
A) o'xshatish
B) kattaroq xol
C) meni
D) egilgan, zaif

474. Xorazmiy "Muhabbatnoma"ni dastlab o'n noma qilmoqchi bo'ladi, lekin yana bir noma qo'shadi. Bu haqda asarning qaysi qismida to'xtaladi?
A) qit'a qismida
B) g'azal qismida
C) fard qismida
D) masnaviy qismida

475. Qaysi hukmdor Oltin O'rda xoni Jonibekxon bilan qiyoslanadi: "Uza jonsiz tan erdi mulk sensiz, Shahanshoh Jonibekxonga yetansiz? "
A) Mirzo Ulug'bek
B) Muhammad Xo'jabek
C) Mahmud Sulton
D) Nosiruddin To'qbug'a

476. Mavjud 946 misraning 634 misrasi o'zbek, 312 misrasi forsiy tilda yaratilgan asarni belgilang.
A) "Gulistoni bit-turkiy"
B) "Latofatnoma"
C) "Muhabbatnoma"
D) "Suhayl va Guldursun"

477. "Kim ush yeltek kechar ayyomi foniy,
Jahonda qolsa bizdin armug'one" misralari qaysi asardan olingan?

A) "Muhabbatnoma"
B) "Gulistoni bit-turkiy"
C) "Latofatnoma"
D) "Qissayi Rabg'uziy"

478. Bir masnaviysida "Kitobat boshladim, anjoma yetgay, ... Misr-u Shoma yetgay. Burun, alqissa, bek madhin ayoyin, O'sh andin so'ngra noma boshlag'oyin" deya yozgan adibni toping.
A) Xorazmiy
B) Yusuf Xos Hojib
C) Xo'jandiy
D) Sayfi Saroyi

479. Xorazmiy "Muhabbatnoma"ning qaysi qismida Xo'jabekni "arslon yurak", "qo'ng'irot urug'", "ulug'larning ulug'i", "saodat ma'dani", "iqbol ganji", "olam kunji" deya ulug'lagan?
A) masnaviy
B) g'azal
C) qit'a
D) munojot

480. Xorazmiy "Muhabbatnoma"ning qaysi qismida Xo'jabekni Oltin O'rda xoni Jonibekka qiyoslaydi?
A) masnaviy
B) g'azal
C) qit'a
D) munojot

# IV BO‘LIM

- ❖ **Xo‘jandiy**
- ❖ **Sakkokiy**
- ❖ **Atoyi**
- ❖ **Gadoyi**
- ❖ **Lutfiy**
- ❖ **Firdavsiy**
- ❖ **Rudakiy**

1. “Tahamtan” qaysi qahramonning jahon pahlavonligi laqabidir?
A) Afrosiyob
B) Rustam
C) Suhrob
D) Kovus Kay

2. Faxri Hirotiyning “Radoyif ul-ash’or” asari qaysi janrda yozilgan?
A) qasida
B) noma
C) tazkira
D) munshoat

3. Xo‘jandiy haqida qaysi asarda ma’lumot uchraydi?
A) “Tazkirat ush-shuaro”da
B) “Latofatnoma”da
C) “Majmuat ush-shuaro”da
D) “Majmuayi shoiron”da

4. 1444-yilda Samarqandda Arslon Xo‘ja Tarxon tomonidan ko‘chirtirilgan asarni aniqlang.
A) “Shohnoma”
B) “Latofatnoma”
C) “Hibat ul-haqoyiq”
D) “Qutadg‘u bilig”

5. “Raiyat qo‘y erur, sulton anga shubon-u yo bo‘ri,
Bo‘ri o‘lg‘o-yu qo‘y ting‘oy, chu Musotek shubon keldi”.
Ushbu baytda qanday badiiy san’at qo‘llangan?
A) talmeh, tazod
B) istiora, tarse’, ruju
C) talmeh, takrir, tashbeh
D) iyhom, tamsil, litota

6. Quyidagi qaysi asardagi so‘z o‘yinlari, tajnislarning ko‘p qo‘llanilishi, muallifning arabcha va forscha so‘zlar, ko‘proq o‘zbekcha imkoniyatlarni izlagani asarning ta’sirchanligini oshirgan?
A) “Qutadg‘u bilig”
B) “Muhabbatnoma”
C) “Latofatnoma”
D) “Qissayi Rabg‘uziy”

7. “So‘zim chin donadur,

nodon ne bilsun,
Bale odam tilin hayvon ne bilsun". Ushbu so'zlar muallifini toping?
A) Rudakiy
B) Atoyi
C) Firdavsiy
D) Xo'jandiy

8. Sakkokiyning "Ey gul ..." g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "i"
B) mutlaq, "n"
C) muqayyad, "v"
D) mutlaq, "o"

9. Qaysi shoir yorning go'zalligi, tiniqligi, pokizaligi shunchalikki, u qo'lini suvda yuvib tozalamaydi, balki qo'lini yuvib suvni poklaydi, deydi?
A) Atoiy
B) Rudakiy
C) Gadoiy
D) Lutfiy

10. Quyidagilardan she'r radiflariga bag'ishlab asar yozgan adibni toping.
A) Ahmad Taroziy
B) Anbar Otin
C) Faxri Hirotiy
D) Uvaysiy

11. Gadoiyning "Sanga" g'azali necha baytdan iborat?
A) 7
B) 6
C) 9
D) 5

12. Gadoiyning "Yoz fasli" g'azalida qaysi payg'ambar nomi uchraydi?
A) Yusuf
B) Ayyub
C) Xizr
D) Iso

13. Lutfiy qaysi g'azalining oxirgi baytida go'yo o'zi yashagan davr tavsifini beradi?
A) "Ayoqingga tushar ..."
B) "Jonima ayting"
C) "Tortadur"
D) "Bu ko'ngul"

14. Kim besh baytli g'azalida har besh baytning besh misrasiga besh qofiyadosh maqol tanlab irsoli masalning go'zal namunasini yaratgan?
A) Atoiy
B) Lutfiy
C) Gadoiy
D) Navoiy

15. Shoirlarimizdan kimlar "Shohnoma"ning yangi she'riy tarjimasini yaratganlar?
1) Hamid G'ulom;
2) Nazarmat;
3) Homidjon Homidiy;
4) Jumaniyoz Jabborov;
5) Shoislom

Shomuhammedov;
6) Mirsodiq Is'hoqov.
A) 3, 4, 5
B) 1, 3
C) 1, 2, 4, 5
D) 2, 3, 4

16. "Ikki do'st turar ekan yelkama-yelka, Tog'larni ham oson aylaydi tilka" misralari muallifi kim?
A) Saroyi
B) Rudakiy
C) Yugnakiy
D) Firdavsiy

17. Rudakiyning Hirot tabiatiga oshiq bo'lib, poytaxt Buxoroga qaytishni istamagan Somoniy Nasr ibn Ahmadni ortiga qaytara olgan g'azalini aniqlang?
A) "Nazm qaydiga tushdim xushovozlikdan"
B) "Tishim bari to'kilib ketdi"
C) "Muliyonning hidi bu yonga kelur"
A) "Yurting sipohing seni chorlayur"

18. Yuz ming misradan bizgacha ikki ming misraga yaqin she'ri yetib kelgan ijodkor kim?
A) Firdavsiy
B) Lutfiy
C) Rudakiy
D) Gadoiy

19. Qaysi asar qahramonining husni Yusufdan ham chiroyli deb ta'riflanadi?
A) "Mehr va Suhayl"
B) "Layli va Majnun"
C) "Suhayl va Guldursun"
D) "Gul va Navro'z"

20. "Aningkim bir sevar jononi yo'qtur, Haqiqat bil tanida joni yo'qtur. Ne bilsun tekma nodon ishqbozi, Haqiqat bo'lmasa bori majozi" misralari muallifi qayerda tug'ilgan?
A) Katda
B) Xo'jandda
C) Saroyda
D) Yuganakda

21. "Latofatnoma" Xorazmiyning "Muhabbatnoma"siga nazira tarzida yozilgan bo'lsa-da, qaysi jihati bilan undan farq qiladi?
A) boshdan oyoq musallasda yozilgani bilan
B) aruzning boshqa bahrida yozilgani bilan
C) boshdan oyoq masnaviyda yozilgani bilan
D) arab va forsiy tilda yozilganligi bilan

22. "Xurusi subhdam faryod oshurdi,

Kecha zog'i yumurtqasin yoshurdi".
Ushbu bayt qaysi asarga tegishli va undagi ostiga chizilgan so'zlarning ma'nosini toping?
A) "Qutadg'u bilig", xurus-bo'ri, yumurtqa-tuxum
B) "Muhabbatnoma", xurus-tulki, yumurtqa-palapon
C) "Latofatnoma", xurus-xo'roz, yumurtqa-tuxum
D) "Devoni lug'ot it-turk", xurus-xo'roz, yumurtqa-palapon

23. "Jahon tindi sening adling kuchundin,
Yoshin yashnar qilichining uchindin". Baytdagi tirgak tovushni toping.
A) "ch"
B) "n"
C) "d"
D) "u"

24. Quyidagi qaysi adib taxallusining ma'nosi "pichoqchi" degan ma'noni anglatadi?
A) Sayfi Saroyi
B) Sakkokiy
C) Rudakiy
D) Rabg'uziy

25. Sakkokiyning "Kim ermas ul oy mubtalosi" matlali g'azali necha baytdan iborat?
A) 5
B) 6
C) 7
D) 8

26. Navoiyning Lutfiy huzurida o'zining "Orazin yopqoch ..." g'azalini o'qib, Lutfiyning lutfiga sazovor bo'lganligi haqida kimning qaysi asarida keltirilgan?
A) Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat"
B) Xondamirning "Makorim ul-axloq"
C) Juvayniyning "Tarixi jahonkushoy"
D) Mirxondning "Ravzat us-safo"

27. Qaysi shoir bir baytida "dilbarim mening bo'ynimga ikki quloch arqon, ya'ni yoyilgan sochidan kamand, ya'ni sirtmoq solib tuzoqqa tushirdi", deydi?
A) Lutfiy
B) Gadoiy
C) Atoiy
D) Rudakiy

28. Lutfiyning "Bu ko'ngul" g'azalidagi qofiyadosh so'zlar ketma-ketligi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
1) rasvo;
2) shaydo;
3) yo;
4) taqozo;
5) tamanno;
6) savdo;
7) po;
8) daryo.

A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8
B) 2, 1, 3, 5, 4, 6, 7, 8
C) 1, 7, 3, 4, 5, 6, 2, 8
D) 2, 3, 1, 5, 4, 6, 7, 8

29. Lutfiyning qaysi g'azali radifi oddiy shaklni ko'rsatib qolmasdan, balki u shoir g'oyaviy-badiiy niyatini ifodalashdagi asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qilgan?
A) "Nigoro, sensizin ..."
B) "Jonima ayting"
C) "Tortadur"
D) "Bu ko'ngul"

30. Lutfiy o'qday tik qomatini ham qora qoshlar uchun yoydek egik qiladigan deya nimani aytadi?
A) yorni
B) tilni
C) ko'ngilni
D) sevgini

31. Lutfiy "Bu ko'ngul" g'azalining nechanchi baytida "meni sevdi deb aylama, buni istayotgan ko'ngildir" deydi?
A) 3
B) 6
C) 7
D) 5

32. "Tori mo'yin havasi birla qorong'u kechada
Jonni savdo qiladurg'on, bu ko'nguldur, bu ko'ngul" misralaridagi "tori mo'y"nima?
A) chang tolasi
B) dutor tori
C) soch tolasi
D) ishq dardi

33. "Dushman-u do'st orasinda meni g'ofilni (mudom),
Besar-u po qiladurg'on, bu ko'nguldur, bu ko'ngul" misralarida qo'llangan badiiy san'atni anglatuvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) "nazar tashlash, ishora"
B) "qarshilantirish"
C) "bog'lanish", "munosabat"
D) "ziynatlash"

34. Lutfiy ko'z yoshlarini daryodek qiladigan deya nimani aytadi?
A) yorni
B) tilni
C) ko'ngilni
D) sevgini

35. O'z she'rida ilk bor dialog usulini qo'llagan shoirni toping.
A) Lutfiy
B) Atoiy
C) Gadoiy
D) Rudakiy

36. Qaysi ijodkornin otasi Tus hokimining "Jannat" nomli bog'ida bog'bon bo'lgan?
A) Rudakiy
B) Firdavsiy
C) Tusiy

D) Nasimiy

37. "Shohnoma"da qaysi qahramon nahangga o'xshatiladi?
A) Afrosiyob
B) Suhrob
C) Rustam
D) Taxmasp

38. "Biyobonda vahshiy, daryoda baliq,
Taniy biladi-ku farzandin aniq" misralarida qanday holat tasvirlangan?
A) Suhrobning o'z o'g'li Rustam bilan jang qilayotganini bilmaganlik holati
B) Xusravning o'z o'g'li Sheruya bilan jang qilayotgani tasviri
C) Rustamnigning o'z o'g'li Suhrob bilan jang qilayotganini bilmaganlik holati
D) Sheruyaning o'z o'g'li Xusrav bilan jang qilayotgani tasviri

39. "Ilonni har qancha qilsang tarbiyat,
Oxir zahrin sochib, yetkazar zahmat.
Nokas tabiati ilon kabidir
Yuzin ko'rmaslikka etgil harakat".
Ushbu satrlar kimning qalamiga mansub?
A) Pahlavon Mahmud
B) Rudakiy
C) Yusuf Xos Hojib
D) As-Saolibiy

40. "Ohkim, devona ko'nglum mubtalo bo'ldi yana,
Bu ko'ngulning ilgidin jonga balo bo'ldi yana.
Dilbaro, sensiz tiriklik bir baloyi jon emish,
Kim aning dardi qoshida, yuz o'lum hayron emish".
Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasidan olingan ushbu matlali g'azal muallifi kim?
A) Atoiy
B) Lutfiy
C) Rudakiy
D) Gadoiy

41. Xondamir qaysi asarida Lutfiyni turkiy tilda Navoiygacha bo'lgan davrda ijod qilgan eng yirik shoir sifatida ta'riflaydi?
A) "Habib us-siyar"
B) "Muntaxab at-tavorix"
C) "Radoyig al-ash'or"
D) "Makorim ul-axloq"

42. Sa'diyning "Guliston"i kim tomonidan qanday nom bilan o'zbekchalashtirilgan?
A) Xoja, "Miftoh ul-adl"
B) Sayfi Saroyi, "Bo'ston"
C) Xoja, "Gul va bulbul"
D) Sayfi Saroyi, "Gulistoni bit-turkiy"

43. "Tahamtan" so'zining ma'nosi berilgan qatorni aniqlang.

A) donolar donosi
B) ulug'lar ulug'i
C) jahon sarmoyasi
D) pahlavonlar pahlavoni

44. "Muhabbatnoma"ga javob tariqasida yozilgan asarni belgilang.
A) "Sadoqatnoma"
B) "Haqiqatnoma"
C) "Taashshuqnoma"
D) "Latofatnoma"

45. "Sipohi turk buldisa sipohi,
Hazimat tutti hindular sipohi". Ushbu baytning tabdili qaysi qatorda to'g'ri berilgan?
A) Turk askarlari joyidan qo'zg'aldi, hind askarlari ham jangga shaylandi
B) Turk xalqi qo'l cho'zdi, hindlar ham bunga qo'l tutti
C) Turk askarlari joyidan qo'zg'alsa, hind askarlari ortiga chekinadilar
D) Turk askarlari jangga shaylansa, hind askarlari ham ittifoqdosh bo'ladilar

46. Sakkokiy kimlarga bag'ishlab qasidalar yozgan?
1) Mahmud Sulton;
2) Mirzo Ulug'bek;
3) Xalil Sulton;
4) Arslon Xo'ja Tarxon;
5) Xo'ja Muhammad Porso.
A) 1, 2, 4, 5
B) 2, 3
C) 1, 3, 5
D) 2, 3, 4, 5

47. Sakkokiyning "Kim ermas ul oy mubtalosi" matlali g'azali qofiyalanish tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) a-a, a-a, a-a
B) a-b, a-b, a-b
C) a-a, b-a, c-a
D) a-a, b-b, c-c

48. Qaysi shoir bir baytida yoriga qarata "sen kulganingda, mening ikki ko'zim tishing va labingni ko'rib, la'l va gavhar koniga aylanadi" deydi?
A) Atoyi
B) Gadoyi
C) Lutfiy
D) Sakkokiy

49. Sakkokiyning Ulug'bekka bag'ishlangan qasidasida qaysi joy nomi tilga olinadi?
A) Hindiston
B) Shom
C) Mochin
D) Turkiston

50. Mumtoz adabiyotimizda Ya'qubning ayriliqdagi hayoti qanday nomlanadi?
A) "Hamin bas"
B) "Bayt ul-hazan"
C) "Faqri fano"
D) "Ravzayi rizvon"

51. Qaysi shoir yorning qop-qora sochini laylat ul-qadrga, oppoq yuzini subhi sodiqqa o'xshatadi?
A) Atoiy
B) Rudakiy
C) Gadoiy
D) Lutfiy

52. Atoiyning "Ul sanamkim" g'azalining qofiyalanish tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) a-a, a-a, a-a
B) a-b, a-b, a-b
C) a-a, b-a, c-a
D) a-a, b-b, c-c

53. Atoiyning "Labing qonim to'karga ..." g'azalining birinchi baytida nomi uchragan payg'ambarning sifati (laqabi) ni aniqlang.
A) Kalimulloh
B) Masih
C) Sabr (timsoli)
D) Go'zallik

54. Atoiyning "Sipehri husn ichinda ..."g'azali necha baytdan iborat?
A) 7
B) 6
C) 9
D) 5

55. Lutfiy olamdan o'tganida Navoiy necha yoshda edi?
A) 19
B) 21
C) 24
D) 27

56. Lutfiyning "Tortadur" g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "o"
B) mutlaq, "n"
C) muqayyad, "n"
D) mutlaq, "y"

57. Lutfiyning "Ey ko'ngul, yorsiz sango ..." she'ri qaysi janrda?
A) qit'a
B) g'azal
C) tuyuq
D) ruboiy

58. Qaysi shoir taxallusi nomini o'zi bog'bonlik qilgan bog' nomi bilan ataydi?
A) Firdavsiy
B) Rudakiy
C) Tusiy
D) Maxtumquli

59. Qaysi asar hajmi, mavzusi, obrazlari, g'oyaviy motivlari va badiiy qimmati jihatidan dunyodagi eng katta hamda mingdan ziyod bir-biriga o'xshamagan obraz va personajlar tasvirlangan epik asardir?
A) "Xudoynoma"
B) "Xamsa"
C) "Shohnoma"
D) "Kalila va Dimna"

60. "Shohnoma" dostonlari sujetlari asosida qanday sahna asarlari yaratilgan?
1) "Zahhoki moron";
2) "Afrosiyob jasorati";
3) "Tushdagi mag'lubiyat";
4) "Siyovush".
A) 1, 4
B) 1, 2, 3, 4
C) 2, 3
D) 1, 2, 3

61. "Hamisha aqlingni rahnamo etgil,
Noloyiq ishlardan olisga ketgil" misralari muallifi kim?
A) Saroyi
B) Rudakiy
C) Firdavsiy
D) Yugnakiy

62. "Shohnoma" asari vazni taqtesi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) – V – – / – V – – / – V –
B) V – – – / V – – – / V – –
C) – – V – / – – V – / – – V – /– – V –
D) V – – / V – – / V – – / V –

63. Rudakiyning to'liq ismi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) Ja'far ibn Muhammad Abu Abdullo Rudakiy
B) Ja'far ibn Abu Abdullo Muhammad Rudakiy
C) Muhammad Ja'far Abdullo Abu ibn Rudakiy
D) Abu Abdullo Ja'far ibn Muhammad Rudakiy

64. "O'zdan balandroqni ko'rib g'am yema,
Ko'p kishi bor, sen bo'lishni orzu qilur" kabi fikrlar muallifi kim?
A) Xos Hojib
B) Saroyi
C) Rudakiy
D) Gadoiy

65. "Butun she'rlari(m) manzur-u tinglamish olam,
Butun she'rlari(m) o'z-o'zligicha devon edi" deya qaysi shoir o'z yoshligining serzavq lahzalarini yodga olmoqda?
A) Atoiy
B) Lutfiy
C) Rudakiy
D) Gadoiy

66. Xo'jandiy g'azaldan tashqari yana qanday janrlarda ijod qilgan?
A) ruboiy va qit'a
B) tuyuq va ruboiy
C) tuyuq va fard
D) fard va qit'a

67. Xo'jandiy ijodida qaysi so'zlardan ko'proq foydalanilgan?
A) arabcha va forscha
B) o'zbekcha
C) forscha
D) arabcha

68. "Latofatnoma"da qaysi

badiiy san'at ko'proq qo'llangan?
A) tuyuq
B) tajnis
C) sa'j
D) tashbeh

69. Navoiy Sulton Ibrohim mirzo zamonidagi voqealarni eslab, o'z davrida kimning she'rlari mashhur bo'lganligini qayd etadi?
A) Atoiy
B) Lutfiy
C) Rudakiy
D) Gadoiy

70. Qaysi shoir ikki tilda ijod etib, zullisonayn shoir sifatida Xorazmiy an'analarini davom ettirgan?
A) Atoiy
B) Lutfiy
C) Rudakiy
D) Gadoiy

71. "Latofatnoma" kimga bag'ishlangan?
A) Mahmud Sultonga
B) Dod Sipohsolorga
C) Muhammad Xo'jabekka
D) Jonibekxonga

72. "Xirad aytur mana tarxona borg'il,
Salotin sarvari sultona borg'il" misralari kimning qalamiga mansub va baytda qanday badiiy san'at mavjud?
A) Lutfiy, talmeh
B) Xo'jandiy, alliteratsiya
C) Atoyi, ruju
D) Gadoiy, tashbeh

73. Alisher Navoiy kimlarni *"... birining shirin abyoti ishtihori Turkistonda beg'oyat va birining latif g'azaliyoti intishori Iroq va Xurosonda benihoyatdurur ham devonlari mavjud bo'lgay"* deb ta'riflaydi?
A) Sakkokiy va Atoyini
B) Jomiy va Gadoyini
C) Lutfiy va Sakkokiyni
D) Atoyi va Gadoyini

74. "Turkona ir irlag'uncha oning,
Kuydurdi meni yalay-bulosi" bayti Sakkokiyning qaysi g'azalidan olingan?
A) "Sentek jahonda"
B) "Kim ermas ul"
C) "Ey gul"
D) "Ul sanamkim"

75. Sakkokiy Ulug'bekka bag'ishlangan qasidasida uning shaxsiyatidagi qaysi asosiy fazilatni bo'rttirib ko'rsatishga harakat qilinadi?
A) adolatparvalikni
B) qudratlilikni
C) saxiylikni
D) ilmlilikni

76. "Nekim No'shiravon adl ishi ichra qildi taqsirin,
Qamug'ing'a aning bir-bir,

sharif zoti zamon keldi". Baytda qo'llanilgan she'riy san'atning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) "zidlantirish"
B) "misol keltirish"
C) "nazar tashlash"
D) "ziynatlash"

77. "Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizordi gul uyottin anjumanda". Atoyining ushbu baytida qanday she'riy san'at qo'llanilgan?
A) tanosub
B) husni ta'lil
C) tarse'
D) tashbeh

78. Eski o'zbek tiliga oid quyidagi so'zlarni o'z ma'nosi bilan muvofiq joylashtiring?
1) tamanno;
2) bayt;
3) hazan;
4) ozod;
5) shams;
6) qamar.
a) oy;
b) orzu;
c) quyosh;
d) uy;
e) baland;
f) g'am.
A) 1-b, 2-d, 3-f, 4-e, 5-a, 6-c
B) 1-b, 2-d, 3-f, 4-e, 5-c, 6-a
C) 1-e, 2-d, 3-f, 4-b, 5-c, 6-a
D) 1-b, 2-c, 3-f, 4-e, 5-a, 6-d

79. Mumtoz adabiyotda kimning ayriliqdagi hayoti "bayt ul-hazan" nomi ila tilga olinadi?
A) Yusuf
B) Ya'qub
C) Bilqis
D) Zulayho

80. "Uzun sochingdin uzmasmen ko'ngulni,
Ayog'ing qayda bo'lsa, boshim anda". Baytda qanday badiiy san'at qo'llanilgan?
A) sifatlash, tazod, iyhom
B) tazod, tashbeh
C) tanosub, tarse', litota
D) iyhom, tazod

81. Atoiyning "Qon bo'ldi ko'ngul" g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "q"
B) mutlaq, "q"
C) muqayyad, "o"
D) mutlaq, "o"

82. Atoiyning "Labing qonim to'karga" g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "r"
B) mutlaq, "b"
C) muqayyad, "d"
D) mutlaq, "u"

83. Atoiyning qaysi g'azalida

boshdan oyoq husni ta'lil san'atidan foydalanilgan?
A) "Ko'ngulni olg'ali"
B) "Ul sanamkim"
C) "Labing qonim to'karga"
D) "Qon bo'ldi ko'ngul"

84. Qaysi shoir oshiqona she'r misralari orasiga ijtimoiy hayot haqidagi qarashlarini g'oyat ustalik bilan singdirib yubora olgan?
A) Gadoiy
B) Atoiy
C) Xorazmiy
D) Lutfiy

85. Qaysi shoirning bir baytida charxi jafogustar-jafokor dunyoning do'stdin ayirgani va dushmanning ravo bo'lganligi aytilib, ey darig'o deya falakka oh uriladi?
A) Gadoiy
B) Atoiy
C) Xorazmiy
D) Lutfiy

86. Lutfiyning "Ayoqingg'a tushar"g'azali necha baytdan iborat?
A) 5
B) 6
C) 7
D) 8

87. Lutfiyning qaysi g'azali boshdan-oxir irsoli masal san'ati asosiga qurilgan?
A) "Ayoqingga tushar"
B) "Jonima ayting"
C) "Tortadur"
D) "Bu ko'ngul"

88. Lutfiy "Ayoqingg'a tushar" g'azalida "Ko'zung qonimdin iymanmas, ajabtur" misrasi uchun qaysi maqolni ishlatadi?
A) Kishining ko'zidur, ore, tarozu
B) Charog' tubi qarong'u
C) Qo'rqar, qaydakim qon ko'rsa hindu
D) Oqqan ariqqa oqar suv

89. Lutfiy "Ayoqingg'a tushar" g'azalida "Tilar vaslingni Lutfiy, qil ijobat" misrasi uchun qaysi maqolni ishlatadi?
A) Tilaganni tilogu
B) Charog' tubi qarong'u
C) Qo'rqar, qaydakim qon ko'rsa hindu
D) Oqqan ariqqa oqar suv

90. "Sipohga o'zini urganda bu sher,
Nest-u nobud bo'ldi qancha nomdor er.
Bo'ridek lashkarga kirib kelgan choq,
Katta-kichik bari bo'ldi tumtaroq" misralarida "Shohnoma"ning qaysi qahramoni ta'riflanmoqda?

A) Afrosiyob
B) Suhrob
C) Rustam
D) Kovus shoh

91. "Shohnoma" asarida "Ona sut og'zingda, qo'lingda qurol, Hunaringga balli, ko'rmagil zavol! Endi ketdik, erta tong otgan zamon Yazdon irodasi bo'lur namoyon" degan so'zlarni Rustam kimga aytadi?
A) Suhrobga
B) Zoli Zarga
C) Afrosiyobga
D) Kovus shohga

92. "Zahhoki moron", "Siyovush" singari sahna asarlari qaysi doston sujetlari asosida yaratilgan?
A) "Xudoynoma"
B) "Xamsa"
C) "Shohnoma"
D) "Kalila va Dimna"

93. Qaysi shoir yorning qaroqchi ko'zlarini ko'rgan kishi borki: "Ajab ayyori Turkistonmidur bu",-deya hayratlanadi deb yozgan?
A) Atoiy
B) Lutfiy
C) Rudakiy
D) Gadoiy

94. Quyidagilardan Lutfiyga tegishli bo'lmagan g'azalni aniqlang.
A) "Mubtalo bo'ldi yana"
B) "Jonima ayting"
C) "Tortadur"
D) "Bu ko'ngul"

95. Lutfiyning "Tortadur" g'azali necha baytdan iborat?
A) 9
B) 6
C) 7
D) 8

96. Lutfiyning "Tortadur" g'azalining maqtasi berilgan qatorni aniqlang.
A) Yo meni tuproq, yo rizqi parishon tortadur
B) Beli sori ul kamandi anbarafshon tortadur
C) Ikki yoni masti lo'yaqil ne oson tortadur?
D) Qayda bir dono durur, ul javri nodon tortadur

97. "Qush og'zi tegsa la'l o'la minqori to'tidek, Yoqutung uchun ondaki oqsa ko'zum suyi" bayti kimga tegishli?
A) Atoiy
B) Lutfiy
C) Gadoiy
D) Rudakiy

98. "Ajib ishlaringga dodim lol, jahon,
O'zing bor etasan ham o'zing nihon.
Nechun bu dillardan muhabbat yiroq,
Aql yuz ko'rgizmas, haqiqat

yiroq".
Ushbu fikrlar kimga tegishli ekanligini toping.
A) Saroyi
B) Rudakiy
C) Navoiy
D) Firdavsiy

99. Fors- tojik she'riyatining asoschilaridan biri bo'lib, 858-941-yillarda yashab o'tgan ijodkorni aniqlang.
A) Atoiy
B) Lutfiy
C) Gadoiy
D) Rudakiy

100. Qaysi shoir bu dunyoning o'tkinchiligi, vaqtning ayovsizligini o'z tanida isbotlashga harakat qilib, "qaro sochim misli chavgon edi, yuzim atlas kabi tekis, holim shodon edi va, shuningdek, qancha bog'lar o'rni burun biyobon edi" mazmundagi fikrlarni keltiradi?
A) Atoiy
B) Rudakiy
C) Lutfiy
D) Gadoiy

101. "Qon yoshim erur yuz uza yulduz kibi sonsiz, Ul ko'zlari cho'lpon, mahi tobonima ayting".
Ushbu baytda qanday badiiy san'atlar qo'llanilgan?
A) tarse', trop, iyhom
B) istiora, tashbeh, mubolag'a
C) ruju, istiora, talmeh
D) iyhom, ramz, ruju

102. Lutfiyning nechta devoni bizgacha yetib kelgan?
A) 1 ta
B) 2 ta
C) 3 ta
D) devonlari bizgacha yetib kelmagan

103. Lutfiy "Ayoqingg'a tushar" g'azalida "Yuzungni tuttum ortuq oy-u kundin" misrasi uchun qaysi maqolni ishlatadi?
A) Kishining ko'zidur, ore, tarozu
B) Charog' tubi qarong'u
C) Qo'rqar, qaydakim qon ko'rsa hindu
D) Oqqan ariqqa oqar suv

104. Lutfiyning "Agar sen bo'lmasang..." g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "o"
B) mutlaq, "n"
C) muqayyad, "n"
D) mutlaq, "y"

105. Kim hajmi, mavzusi, obrazlari, g'oyaviy motivlari va badiiy qimmati jihatidan

dunyodagi eng katta hamda mingdan ziyod bir-biriga o'xshamagan obraz va personajlar tasvirlangan epik asarni yozib qoldirgan?
A) Navoiy
B) Firdavsiy
C) Jaloliddin Rumiy
D) Imom al-Buxoriy

106. "Qudratlidir kimki bo'lsa bilimdon,
Bilimdan keksalar dili navqiron.
Kishiga yaxshilik qil, berma ozor,
Faqat shu yo'lni tutgan mard-u hushyor" misralari tegishli bo'lgan asar qancha dostonlardan tashkil topgan?
A) 50 dan ortiq
B) 40 dan ortiq
C) 80 dan ortiq
D) 100 dan ortiq

107. "Biyobonda vahshiy, daryoda baliq,
Taniy biladi-ku farzandin aniq,
Faqat odam ko'zin hirs nomli olov,
Ko'r qilib, tanitmas kim o'g'il, kim yov" misralari qaysi asardan olingan?
A) "Shohnoma"
B) "Saddi Iskanadariy"
C) "Farhod va Shirin"
D) "Suhayl va Guldursun"

108. Rudakiy qaysi sulola hukmdorlariga xizmat qilgan?
A) Sosoniylar
B) G'aznaviylar
C) Somoniylar
D) Safforiylar

109. "Tishim bari to'kilib ketdi, durri g'alton edi,
Ularni tish dema, charog'i tabon edi".
Rudakiy qalamiga mansub ushbu baytda qanday badiiy san'at qo'llanilgan?
A) tashbeh
B) ruju
C) tanosub
D) tarse'

110. Rudakiyning "Muliyonning hidi bu yonga kelur" g'azalining maqtasi berilgan qatorni aniqlang.
A) "Yor yodida dil fig'onga kelur"
B) "Yam-yashil sarv bo'stonga kelur"
C) "Shohidir deb kishi gumonga kelur"
D) "Sen uchun shoh mehmonga kelur"

111. "Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizordi gul uyotdin anjumanda" misralarida qanday badiiy san'at qo'llanilgan?
A) talmeh
B) tashxis
C) ruju
D) tarse'

112. "Labing qandini so'ray desam, aytur:
Ayo ko'rdungmu solmish ko'zni qanda?" misralarida qanday badiiy san'at qo'llanilgan?
A) tashbeh
B) tashxis
C) iyhom
D) tarse'

113. Lutfiyning aruzning hazaji musaddasi mahzuf bahrida yozilgan g'azalini aniqlang.
A) "Ayoqingga tushar har lahza gisu" g'azali
B) "Jonima ayting" g'azali
C) "Bo'ldum sanga" radifli g'azali
D) "Bu ko'nguldur, bu ko'ngul" radifli g'azali

114. Ulug'bek haqidagi qasidasi mashhur bo'lgan shoirni aniqlang.
A) Sakkokiy
B) Lutfiy
C) Rudakiy
D) Gadoiy

115. Quyidagilardan, Xorazm xoni Jo'jining o'n uchinchi o'g'li Tog'ay Temurning avlodlaridan bo'lmish kichik Muhammadning o'g'li bo'lgan hukmdorga atab yozilgan asarni belgilang.
A) "Shayboniynoma"
B) "Muhabbatnoma"
C) "Latofatnoma"
D) "Qissayi Rabg'uziy"

116. "Chiqardi ersa shoh xanjar belindin,
Habash sultoni qochti Rum elindin" bayti muallifi kim, unda qanday badiiy san'at qo'llanilgan va ikkimchi misradagi "Rum" qayer?
A) Atoyi, talmeh, Rim
B) Sayfi Saroyi, tanosub, Suriya
C) Xo'jandiy, talmeh, Turkiya
D) Sakkokiy, tarse, Misr

117. Mahmud Sultonning so'roviga javoban "Qabul ettim qabuliyat yo'q erkan,
Fasod oldi salohiyat yo'q erkan" deya "Muhabbatnoma"ga nazira bitgan shoirni aniqlang.
A) Sayyid Qosimiy
B) Xorazmiy
C) Amiriy
D) Xo'jandiy

118. 1444-yilda Samarqandda Arslon Xo'ja Tarxon tomonidan ko'chirtirilgan asar muallifini aniqlang.
A) Ahmad Yugnakiy
B) Yusuf Xos Hojib
C) Xorazmiy
D) Nosiruddin Rabg'uziy

119. Sakkokiy "Sentek

jahonda ..." g'azalining beshinchi baytida kimga yoki nimaga murojaat qiladi?
A) saboga
B) sanamga
C) bulbulga
D) o'ziga

120. Sakkokiy "Sentek jahonda ..." g'azalida yoridan so'ralgan narsalarni qofiya asosida yoritadi. Ushbu qofiyadosh so'zlar tartibi to'g'ri berilgan qatorni toping.
A) mubtalo, balo, qahrabo, to'tiyo, kimyo, davo, havo, benavo
B) benavo, mubtalo, qahrabo, to'tiyo, davo, kimyo, havo, balo
C) balo, mubtalo, qahrabo, to'tiyo, davo, kimyo, havo, benavo
D) to'tiyo, balo, mubtalo, qahrabo, davo, kimyo, havo, benavo

121. Yozma adabiyotda Yusuf Xos Hojib xalqni qo'yga, hukmdorni cho'ponga, zolim amaldorlarni bo'riga o'xshatgani ma'lum? Yana kim shunday o'xshatishdan unumli foydalangan?
A) Xorazmiy
B) Sakkokiy
C) Rabg'uziy
D) Rudakiy

122. "Gar o'qur majlisda xonanda ... she'rini, Zuhra chang qo'psor, qilur shams-u qamar zavq-u charoh".
Nuqtalar o'rniga kerakli nomni qo'ying.
A) Rudakiy
B) Gadoiy
C) Atoiy
D) Lutfiy

123. Atoiyning "Qon bo'ldi ko'ngul" g'azali necha baytdan iborat?
A) 7
B) 6
C) 9
D) 8

124. Atoiyning "Qon bo'ldi ko'ngul" g'azalining maqtasi berilgan qatorni aniqlang.
A) Kuydi jonim ishtiyoqi birla
B) Xonlarg'a ne ish yasoqi birla
C) Bir boqmadi ko'z qaroqi birla
D) Ikki qoshi juft-u toqi birla

125. Atoiyning qaysi g'azalida oshiqning piri komil-ma'shuqa yuzini ko'rib, uning shavqidan mast bo'lganligi qayd etiladi?
A) "Ko'ngulni olg'ali..."
B) "Jamoling vasfini..."
C) "Netti, ne bo'ldi"
D) "Qon bo'ldi ko'ngul"

126. Alisher Navoiyning qaysi asarlarida Gadoiy haqida ma'lumot uchraydi?
1) "Tuhfat ul-afkor";
2) "Majolis un-nafois";
3) "Mahbub ul-qulub";
4) "Mezon ul-avzon".
A) 1
B) 2, 3
C) 2, 3, 4
D) 1, 4

127. Qaysi shoir g'azallarida dunyoviy mavzular bilan bir qatorda, ishq-muhabbat tarannumi, inson ruhi kechinmalari tasviri asosiy o'rin tutadi?
A) Atoiy
B) Xorazmiy
C) Gadoiy
D) Lutfiy

128. Gadoiyning "Mubtalo bo'ldi yana" g'azalining qofiyalanish tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) a-a, b-b, c-c
B) a-b, a-b, a-b
C) a-a, a-a, a-a
D) a-a, b-a, c-a

129. Gadoiyning "Mubtalo bo'ldi yana" g'azali necha baytdan iborat?
A) 7
B) 6
C) 9
D) 5

130. Lutfiyning Navoiyning bir g'azali uchun o'zining 12 ming baytini almashtirishga chog'langanligi haqida kimning qaysi asarida keltirilgan?
A) Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat"
B) Xondamirning "Makorim ul-axloq"
C) Juvayniyning "Tarixi jahonkushoy"
D) Mirxondning "Ravzat us-safo"

131. "Sheva ul sarvi ravondin xush turur,
Noz o'shul joni jahondin xush turur,
Men sevarmen, ul meni sevmas, darig',
Bu sevishmak ikki yondin xush turur" misralari muallifi va janrini aniqlang.
A) Atoiy, g'azal
B) Gadoiy, tuyuq
C) Lutfiy, qit'a
D) Rudakiy, ruboiy

132. Qit'aning qofiyalanish tartibi to'g'ri berilgan javobni toping.
A) a-a-a-a
B) a-b-a-b
C) a-a-b-a
D) a-b-a-c

133. Kim "Shohnoma"ni to'liq o'zbekcha tarjimasini yaratgan?
A) Hamid G'ulom
B) Nazarmat
C) Homidjon Homidiy

D) asar hali to'liq o'zbekchalashtirilmagan

134. Rudakiydan bizgacha qancha she'r yetib kelgan?
A) ikki ming baytga yaqin
B) ming misraga yaqin
C) ikki ming misraga yaqin
D) o'n ming misraga yaqin

135. "Ko'zingni soqqasidek aylanib turuvchi jahon,
Hamisha aylanadi, hamma vaqt gardon edi"misralari muallifi kim, baytda qo'llangan badiiy san'atni anglatuvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) Lutfiy, "chiroyli dalillash"
B) Atoiy, "ziynatlash"
C) Gadoiy, "qarshilantirish"
D) Rudakiy, "o'xshatish"

136. "Qachonki dori-yu darmoni og'riq o'rnidadir,
Kezida og'rig'i ham dori birla darmon edi" misralari muallifi kim, baytda qo'llangan badiiy san'atni anglatuvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) Rudakiy, "takrorlash"
B) Lutfiy, "chiroyli dalillash"
C) Atoiy, "ziynatlash"
D) Gadoiy, "qarshilantirish"

137. "O'z nafsini mag'lub etolgan marddir,
G'iybatdan uzoq-uzoq ketolgan marddir.
Nomard tepib o'tar yiqilganlarni
Ojiz kishilar qo'lini tutolgan marddir"
Ushbu satrlar kimning qalamiga mansub?
A) Pahlavon Mahmud
B) Yusuf Xos Hojib
C) Rudakiy
D) As-Saolibiy

138. Xo'jandiy nechanchi asrlarda yashab o'tgan?
A) XIII-XIV asrlarda
B) XIV-XV asrlarda
C) XV-XVI asrlarda
D) XII-XIII asrlarda

139. Xo'jandiy "Latofatnoma"da Mahmud Sultonni Sulaymonga, o'zini nimaga o'xshatadi?
A) qaldirg'ochga
B) bulbulga
C) chumoliga
D) itga

140. "Maoni ichra, shohim, qil yorarsen,
Ajunda har ne qilsang qil, yararsen" misralari kimning qalamiga mansub va baytda qanday badiiy san'at mavjud?
A) Lutfiy, talmeh
B) Xo'jandiy, tajnis
C) Atoyi, ruju
D) Gadoiy, tashbeh

141. "Dard-u, g'am-u, ranj-u,

men-u o'lmoq
Sakkokiyga bo'ldi jon
g'izosi" bayti Sakkokiyning
qaysi g'azalidan olingan?
A) "Kim ermas ul ..."
B) "Ey gul ..."
C) "Sentek jahonda ..."
D) "Ul sanamkim ..."

142. Sakkokiyning "Ey gul ..." g'azali qofiyalanish tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) a-a, a-a, a-a
B) a-a, b-a, c-a
C) a-b, a-b, a-b
D) a-a, b-b, c-c

143. Kim o'z asarida podsholarni odil va zolim deb ikkiga jaratib, hukmdor doim xaql hayotidan xabardor bo'lishi, unga adolat bilan qarashi darkorligini yozadi?
A) Xorazmiy
B) Xo'jandiy
C) Sakkokiy
D) Rudakiy

144. "Kim ermas ul oy mubtalosi,
Yolg'uz menga yo'q aning balosi".
Baytda qo'llanilgan she'riy san'atning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) "zidlantirish"
B) "biror narsani omonatga olmoq"
C) "nazar tashlash"
D) "ziynatlash"

145. Navoiy Mavlono Atoiyning munbasitligini qayt etadi. "Munbasit" nima degani?
A) nasibali
B) ilmli
C) oq ko'ngil
D) parhezkor

146. Inson ko'nglining nozik nuqtalari, ehtirosli kechinmalarni aks etgan "Qon bo'ldi ko'ngil...", "Ul sanamkim...", "Ko'ngil olding..." kabi g'azallar kimga tegishli?
A) Gadoiy
B) Atoiy
C) Lutfiy
D) Sakkokiy

147. Atoiyning "Jamoling vasfini ..." g'azalida qaysi doston qahramonlari tilga olinadi?
A) "Xusrav va Shirin"
B) "Yusuf va Zulayho"
C) "Suhayl va Guldursun"
D) "Qissayi Rabg'uziy"

148. Atoiyning "Netti, ne bo'ldi" g'azalining maqtasi berilgan qatorni aniqlang.
A) Haqqoki mening yo'q guzarim, netti, ne bo'ldi?
B) E lablari shahd-u shakar[illegible] netti, ne bo'ldi?
C) Olamg'a yoyildi

sevarim, netti, ne
bo'ldi?

D) Ey o'z qulidin
bexabarim, netti, ne
bo'ldi?

149. "Ishqinda qaro boshim oqardi,
Bir boqmadi ko'z qaroqi birla"
misralarida qo'llangan badiiy san'atni anglatuvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?

A) "chiroyli dalillash"
B) "qarshilantirish"
C) "nazar tashlash"
D) "ziynatlash"

150. Sulaymon payg'ambarning sevgilisi nomi berilgan qatorni aniqlang.

A) Tarso
B) Bilqis
C) Gul
D) Sabo

151. Quyidagi so'zlarni ma'nosi bilab muvofiq joylashtiring.

1) yasoq;
2) hudhud;
3) sihi;
4) zog';
5) abir;
6) tar.

a) nizom;
b) sassiqpopishak;
c) tik;
d) qarg'a;
e) anbar;
f) ho'l.

A) 1-f, 2-b, 3-c, 4-a, 5-e, 6-d
B) 1-e, 2-b, 3-c, 4-d, 5-a, 6-f
C) 1-a, 2-c, 3-b, 4-d, 5-e, 6-f
D) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d, 5-e, 6-f

152. "To magarkim, Salsabil obina javlone qila,
Keldi jannat ravzasindin obi kavsar sori hur".
Baytda qo'llangan badiiy san'atni anglatuvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?

A) "chiroyli dalillash"
B) "qarshilantirish"
C) "nazar tashlash, ishora"
D) "ziynatlash"

153. Atoiyning "Labing qonim to'karga ..." g'azali necha baytdan iborat?

A) 7
B) 6
C) 9
D) 5

154. Mahbub eshigidan bosh ko'tarishni "muhabbat bobidagi tarki adab" deb atagan shoirni aniqlang.

A) Gadoiy
B) Lutfiy
C) Rudakiy
D) Atoiy

155. "Meni o'ltur, vale quvma qoshingdin
Kim, enchu qulni quvmoq besababtur".
Baytda qo'llangan badiiy san'atni anglatuvchi

so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) "chiroyli dalillash"
B) "qarshilantirish"
C) "nazar tashlash, ishora"
D) "ziynatlash"

156. Atoiyning "Labing qonim to'karga ..." g'azalining qofiyalanish tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) a-a, a-a, a-a
B) a-b, a-b, a-b
C) a-a, b-a, c-a
D) a-a, b-b, c-c

157. Quyidagi so'zlarni ma'nosi bilan muvofiq joylashtiring.
1) muanbar;
2) go'y;
3) siym;
4) mudavvar.
a) yumaloq;
b) kumush;
c) koptok;
d) xushbo'y.
A) 1-c, 2-d, 3-b, 4-a
B) 1-d, 2-a, 3-b, 4-c
C) 1-b, 2-c, 3-d, 4-a
D) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a

158. "Mavlono Gadoiy turkigo'ydur, balki mashohirdindur. Bobur Mirzo zamonida she'ri shuhrat tutti". Ushbu parcha Navoiyning qaysi asaridan olingan?
A) "Mahbub ul-qulub"
B) "Majolis un-nafois"
C) "Muhokamat ul-lug'atayn"
D) "Mezon ul-avzon"

159. Gadoiyning devonida, asosan, qaysi janr asosiy o'rin tutadi?
A) ruboiy
B) qit'a
C) masnaviy
D) g'azal

160. Quyidagilardan Gadoiyga tegishli bo'lmagan g'azalni aniqlang.
A) "Mubtalo bo'ldi yana"
B) "Unutma"
C) "Yana yoz bo'ldi-yu"
D) "Qon bo'ldi ko'ngul"

161. Gadoiyning "Yoz fasli" g'azali necha baytdan iborat?
A) 7
B) 6
C) 9
D) 5

162. Gadoiyning "Yana yoz bo'ldi-yu" g'azali necha baytdan iborat?
A) 10
B) 6
C) 9
D) 5

163. Quyidagilardan 1366-yil Toshkentda tug'ilib, 1465-yil Dehikanorda vafot etgan allomani aniqlang.
A) Lutfiy
B) Gadoiy
C) Atoiy

D) Rudakiy

164. Atoiyning "Labing qonim to'karga ..." g'azalining birinchi baytida qaysi payg'ambar nomi keltiriladi?
A) Muso
B) Iso
C) Nuh
D) Sulaymon

165. Kim o'zining qaysi asarida Lutfiyni turkiy tilda Navoiygacha bo'lgan davrda ijod qilgan eng yirik shoir sifatida ta'riflab va uning hassos qalbi va o'ta kamtarinligini ta'kidlaydi?
A) Xondanmir, "Makorim ul-axloq"
B) Taroziy, "Funun al-balog'a"
C) Juvayniy, "Tarixi jahonkushoy"
D) Navoiy,"Nasoyim ul-muhabbat"

166. "Nozuklik ichra belicha yo'q tori gisuyi,
O'z haddini bilib belidin o'lturur quyi" misralari muallifi kim, baytda qo'llangan badiiy san'atni anglatuvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan va baytdagi "gisu" nima?
A) Lutfiy, "chiroyli dalillash", soch
B) Atoiy, "nazar tashlash, ishora", noz
C) Gadoiy, "qarshilantirish", soch
D) Rudakiy, "ziynatlash", noz

167. "Gandiraklab qoldi otlar bechora,
Sovutlar yirtildi, zirhlar pora.
Ammo sovumadi gurdlar g'ayrati,
Natija bermadi bari shiddati".
Ushbu shiddatli jang tasviri qaysi asardan o'rin olgan?
A) "Shohnoma"
B) "Saddi Iskanadariy"
C) "Mirzo Ulug'bek"
D) "Suhayl va Guldursun"

168. "Ikkisiga ham o'q do'ldek to'kildi,
Na bars to'n teshildi, na zirh so'kildi.
Ikkisin g'azabi qaynadi, toshdi,
Bir-birin belidan olishga shoshdi". misrlaridagi "ikkisi" kim?
A) Jobir va Suhayl
B) Farhod va Xusrav
C) Doro va Iskandar
D) Rustam va Suhrob

169. "Shohnoma"gi "Hunari barkamol turki navnihol,
Qo'lidan qutilmoq shohga ko'p mahol" deya ta'riflangan qahramon kim?
A) Afrosiyob

B) Suhrob
C) Rustam
D) Kovus shoh

170. Rudakiy nimani tangri kimga in'om qilgan bo'lsa, u mangu shodlik bilan yashab, g'am yemasa bo'ladi deydi?
1) tansihatlik;
2) yaxshi odat;
3) mol-u davlat;
4) yaxshi nom;
5) yaxshi fikr.
A) 1, 3, 5
B) 2, 4, 5
C) 1, 2, 4, 5
D) 2, 3

171. "Shu oddiy ko'z bilan boqmagil, balki
Bilim ko'zi bilan boqqil jahonga.
Jahon daryo erur, yaxshi ishingdan
Kema yasab o'tgil nari tomonga".
Ushbu satrlar kimning qalamiga mansub?
A) Yusuf Xos Hojib
B) Rudakiy
C) Sayfi Saroyi
D) As-Saolibiy

172. Quyidagilardan boshdan oyoq masnaviy tarzida yozilgan asarni belgilang?
A) "Hibat ul-haqoyiq"
B) "Muhabbatnoma"
C) "Latofatnoma"
D) "Qissayi Rabg'uziy"

173. Quyidagi qaysi asar tong tasviri, turk sipohining qudaratini madh etish va saharda tafakkur ichra o'tirganda, eshik nogoh ochilib o'zi uchun bir o'ziga xos madhiya bitishni istagan "firoq o'tida bag'ri pora bo'lg'on, elidin ishq uchun ovora bo'lg'on" bir shohning murojaati bilan boshlanadi?
A) "Qutadg'u bilig"
B) "Muhabbatnoma"
C) "Latofatnoma"
D) "Qissayi Rabg'uziy"

174. Sakkokiyning "Sentek jahonda ..." g'azali qofiyalanish tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) a-a, a-a, a-a
B) a-a, b-a, c-a
C) a-b, a-b, a-b
D) a-a, b-b, c-c

175. Sakkokiyning "Sentek jahonda ..." g'azali radifi to'g'ri berilgan qatorni toping.
A) keldi
B) qani
C) erur
D) sen

176. "Sentek jahonda ko'zlari ayni balo qani?
Mentek aning balosi bila mubtalo qani?
Baytda qanday she'riy san'at qo'llanilgan?
A) ruju
B) tarse'

C) tazod
D) tamsil

177. "Erning aqiqi garchi jahonda yagonadur,
Chehram mengizli ham yana bir qahrabo qani?"
misralaridagi "aqiq" majozan nima?
A) ko'z
B) lab
C) yanoq
D) soch

178. "La'ling sharobi bo'ldi ko'ngul dardina da'vo,
Bu dard jong'a yetti, vale ul davo qani?"
Baytda qanday she'riy san'at qo'llanilgan?
A) ruju
B) tarse'
C) tazod
D) tamsil

179. Kimning taxtga kelishi, go'yo "Bu mavkib gardi surmosi topilmas erdi berib jon,
Ko'rung ko'z birla haq suninkim o'sh xush roygon keldi" deyiladi?
A) Xalil Sulton
B) Xo'ja Tarxon
C) Muhammad Porso
D) Mirzo Ulug'bek

180. Qaysi shoir ijodida goh-goh ko'zga ko'rinib turuvchi suv parisi tasvirlangan?
A) Atoiy
B) Rudakiy
C) Gadoiy
D) Lutfiy

181. Atoiyning "Ey, begim" g'azalining qofiyalanish tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) a-a, a-a, a-a
B) a-b, a-b, a-b
C) a-a, b-a, c-a
D) a-a, b-b, c-c

182. "Muncha yil ketgan bu baxt-u davlatim
Shukrlillahkim, kelur bir-bir mang'a" misralari janrini aniqlang.
A) g'azal
B) tuyuq
C) qit'a
D) fard

183. Atoiyning "Ey, begim" g'azali necha baytdan iborat?
A) 7
B) 6
C) 9
D) 8

184. "Yo'q turur yolg'uz bu Lutfiy jonig'a javri raqib,
Qayda bir dono durur, ul javri nodon tortadur"
misralari muallifi kim va baytda qo'llangan badiiy san'atni anglatuvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) Atoiy, "chiroyli dalillash"
B) Lutfiy, "qarshilantirish"

C) Gadoiy, "nazar tashlash, ishora"
D) Rudakiy, "ziynatlash"

185. "To'nga sig'masmen farahdin gul kabi, Kelsa ul sarvi ravon bir-bir mang'a" misralari janrini aniqlang.
A) g'azal
B) tuyuq
C) qit'a
D) fard

186. Lutfiyning "Jononima ayting" g'azali necha baytdan iborat?
A) 9
B) 6
C) 7
D) 5

187. "Mundoqki yaxshi yerga tushubtur topib qabul, Shak yo'qki, muqbil ul dudog'ing xoli hinduyi" she'ri janrini aniqlang.
A) g'azal
B) tuyuq
C) qit'a
D) fard

188. "Borib nayza oldi so'niq jur'ati, Ona so'zin eslab ortar hayrati. To'qnashuv maydonin tanlab tor-u tang, Qisqa nayza bilan boshladilar jang" misrlari kimlarning ta'rifini keltirmoqda?
A) Farhod va Xusrav
B) Qoraxon va Hasanxon
C) Rustam va Suhrob
D) Doro va Iskandar

189. "Tana terga g'arq-u dahan to'la xok, Tashnalikdan tillar bo'lib shok-u shok, Axir ajralishdi ikki muqobil, Dard to'la ota-yu, alamli o'g'il". Ushbu misrlardagi o'zaro jangga kirishgan ota va o'g'il kim?
A) Ulug'bek va Abdulatif
B) Rustam va Suhrob
C) Sheruya va Xusrav
D) Shohjahon va Avrangzeb

190. "Ko'nglindan o'tkazar ...: Hech nahang Ko'rmadim buningdek eta olsin jang. Ko'kka chirmashganda oq dev nolasi, Bu kun hushim oldi inson bolasi". Ushbu misralarda qaysi qahramonning ruhiy holati tasvirlangan?
A) Suhrob; "Shohnoma"
B) Jobir; "Mehr va Suhayl"
C) Rustam; "Shohnoma"
D) Xusrav; "Farhod va Shirin"

191. Qaysi shoir qarilikdan shikoyat qilib, to'kilgan tishining bir donasini "oqish kumush edi-yu,

xuddi durri marjon edi,
buloqning qatrasi yoyinki
tongda cho'lpon edi" deydi?
A) Atoiy
B) Rudakiy
C) Lutfiy
D) Gadoiy

192. Rudakiyning "Muliyonning hidi bu yonga kelur" g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "n"
B) mutlaq, "d"
C) muqayyad, "d"

193. "So'ngra cho'lga olib
zalvarli
gurzi,
Bir-birin savadi, bir-birin
ezdi.
Gurzilar ushalib ketdi bu
zarbdan,
Otlar holdan toydi bemisol
harbdan" misrlari kim(lar)ning ta'rifini keltirmoqda?
A) Farhod va Xusrav
B) Qoraxon va Hasanxon
C) Rustam va Suhrob
D) Doro va Iskandar
D) mutlaq, "n"

194. "Shoh oy, osmon
Buxorodir Oy sochib nur
osmonga kelur.
Shoh sarv-u bo'ston
Buxorodir Yam-yashil sarv
bo'stonga kelur" misralari muallifi kim?
A) Atoiy
B) Lutfiy
C) Rudakiy
D) Gadoiy

195. Rudakiyga tegishli bo'lmagan she'rni aniqlang!
A) "Nazm qaydiga tushdim xushovozlikdan"
B) "Tishim bari to'kilib ketdi"
C) "Muliyonning hidi bu yonga kelur"
D) "Yana yoz bo'ldi-yu"

196. Kim o'z asarlarida dunyoni daryoga o'xshatadi?
A) Yusuf Xos Hojib
B) Sayfi Saroyi
C) Rudakiy
D) As-Saolibiy

197. "Latofatnoma" asari necha nomadan iborat?
A) 10
B) 11
C) 9
D) 12

198. "Olib nayza ilikga
xusravi Chin, Habash
sultonini qavdi jahondin,
Shahi mashriq alam
olamg'a urdi,
Sipohi zangi qo'rqub yuz
yoshurdi" misralari muallifi kim va baytdagi "alam" nima?
A) Xo'jandiy, bayroq
B) Xorazmiy, tig'
C) Atoyi, zarb

D) Lutfiy, dam (nafas)

199. "Seni shoir deb
ayturlar xaloyiq
So'zungdin tuhfa keltur
bizga loyiq.
Muhabbat jomidin
ichsang sharobe,
"Muhabbatnoma"ga
aysang javobe" deya
Xo'jandiyga murojaat qilgan hukmdor qaysi suloladan va buning natijasida qaysi asar dunyoga kelgan?
A) Safaviy, "Sadoqatnoma"
B) Temuriy, "Taashhuqnoma"
C) Ummaviy, "Haqiqatnoma"
D) Jo'ji, "Latofatnoma"

200. "Xo'blar soni yo'q Chin-u, Xitoy, Xo'tan ichra,
Yetmas sanga lekin tilagan dunyoda soniy"
misralari muallifi kim va baytda qanday badiiy san'at mavjud?
A) Sakkokiy, talmeh
B) Xo'jandiy, alliteratsiya
C) Atoyi, ruju
D) Gadoiy, tashbeh

201. "Ul tishing-u erningni ko'rib bir kularingda,
Bu ikki ko'zum la'l-u guhar bahri-yu koni".
Baytda qanday she'riy san'at qo'llanilgan?
A) talmeh
B) tarse'
C) tanosub
D) ramz

202. Atoiy "Netti, ne bo'ldi" g'azalining birinchi bayti birinchi misrasida yoriga nima deb murojaat qiladi?
A) marhami jon-u jigarim
B) orazi shams-u qamarim
C) o'z qulidin bexabarim
D) tishlari dur-u guharim

203. Atoiy qaysi g'azalida yoriga "agar sendan o'zga yorga boqsam, chiqsin bu diydalarim" deydi?
A) "Ko'ngulni olg'ali..."
B) "Jamoling vasfini..."
C) "Netti, ne bo'ldi"
D) "Qon bo'ldi ko'ngul"

204. Atoiyning qaysi g'azali boshdan oyoq oshiqning ma'shuqqa savoli tarzida bitilgan?
A) "Ko'ngulni olg'ali..."
B) "Jamoling vasfini..."
C) "Ey orazi shams-u ..."
D) "Qon bo'ldi ko'ngul"

205. "Bu oq evda qaro ko'zlar base bor,
Va lekin fitnayi xirgoh, sen-sen".
Baytda qo'llangan badiiy san'atni anglatuvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) "chiroyli dalillash"
B) "qarshilantirish"
C) "nazar tashlash, ishora"

D) "ziynatlash"

206. Atoiyning qaysi g'azalida boshdan oyoq tajohili orifona san'atidan foydalanilgan?
A) "Mengiz yo ravzayi ..."
B) "Sipehri husn ichinda ..."
C) "Seni men ongladim ..."
D) "Qon bo'ldi ko'ngul"

207. Gadoiyning "Mubtalo bo'ldi yana" g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "o"
B) mutlaq, "o"
C) muqayyad, "l"
D) mutlaq, "l"

208. Gadoiyning "Unutma" g'azali necha baytdan iborat?
A) 7
B) 6
C) 9
D) 5

209. Gadoiyning "Unutma" g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "m"
B) mutlaq, "m"
C) muqayyad, "r"
D) mutlaq, "r"

210. "Hamma yoz faslining lazzati bilan band, hamma xush gulgasht etar, faqat men (yorning) dard u g'ami mehnat bilan bandman" mazmundagi bayt kimning g'azalida uchraydi?
A) Lutfiy
B) Gadoiy
C) Atoiy
D) Xorazmiy

211. Kim Lutfiyni "Shoshiy" degan?
A) Navoiy
B) Faxri Hirotiy
C) Taroziy
D) Juvayniy

212. Navoiyning qaysi asarida Lutfiy haqida ma'lumot uchraydi?
1) "Tuhfat ul-afkor";
2) "Majolis un-nafois";
3) "Mahbub ul-qulub";
4) "Nasoyim ul-muhabbat".
A) 1, 4
B) 2, 3
C) 2, 3, 4
D) 4

213. Lutfiy kimning qaysi asari tarjimasini boshlab qo'ygan edi?
A) Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"
B) Juvayniy, "Tarixi jahonkushoy"
C) Xondanmir, "Makorim ul-axloq"
D) Taroziy, "Funun al-balog'a"

214. Lutfiy qaysi g'azalida "ko'zingdan dinga qancha yuz bursam ham, g'o'yo ul ko'zlaring nomusulmon kabi kofir sari tortadi" deydi?
A) "Ayoqingga tushar ..."
B) "Jonima ayting"
C) "Tortadur"
D) "Bu ko'ngul"

215. Lutfiyning qaysi g'azalida sochi tovoniga tegadigan yor obrazi mavjud?
A) "Noziklik ichra"
B) "Jonima ayting"
C) "Tortadur"
D) "Bu ko'ngul"

216. "Endi ishga solib hindu qilichin,
Haryon sochishardi olovli uchqun.
Bir-birin yemirib tig' temir to'kar, Go'yoki jahonda qiyomat qo'par" misrlari qaysi asardan olingan?
A) "Saddi Iskanadariy"
B) "Shohnoma"
C) "Farhod va Shirin"
D) "Ravshan"

217. "Hali taralmagan buning shuhrati,
Hali ma'lum emas hech kimga oti.
O'lim yaxshi bundan yengilsam agar,
Qarab turar ikki tarafdan lashkar" Ushbu misralarda qaysi qahramonning ruhiy holati tasvirlangan?
A) Suhrob; "Shohnoma"
B) Jobir; "Mehr va Suhayl"
C) Sherxon; "Avlodlar dovoni"
D) Rustam; "Shohnoma"

218. "Shohnoma" aruzning qaysi bahrida yozilgan?
A) hazaji musaddasi mahzuf
B) ramali musaddasi mahzuf
C) rajazi musammani solim
D) mutaqoribi musammani mahzuf

219. "Shohnoma" qaysi shaklda yozilgan?
A) masnaviy
B) murabba
C) muxammas
D) musaddas

220. "Shohnoma" asari vazni nomi berilgan qatorni aniqlang.
A) mafoiylun-mafoiylun-faulun
B) foilotun-foilotun-foilun
C) mustaf'ilun-mustaf'ilun-mustaf'ilun
D) faulun-faulun-faulun-faul

221. "Bironta qolmadi kurtaklanib, to'kildi bari,
Bu qaysi nahs edi, nahs bo'lganida Kayvon edi?"

misralari muallifi kim, baytda qo'llangan badiiy san'atni anglatuvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) Lutfiy, "chiroyli dalillash"
B) Atoiy, "ziynatlash"
C) Gadoiy, "qarshilantirish"
D) Rudakiy, "nazar tashlash, ishora"

222. Rudakiyning "Muliyonning hidi bu yonga kelur"g'azali necha baytdan iborat?
A) 7
B) 6
C) 9
D) 8

223. "Aningkim ishqi yo'q andin ne hosil,
Sevar jononasisiz jondin ne hosil" misralari muallifi kim?
A) Xo'jandiy
B) Xorazmiy
C) Atoyi
D) Lutfiy

224. "Ayur kim so'z ichinda uz bag'oyat
Ne bo'lg'ay qilsangiz bizga inoyat.
Tilarman sendin, ey koni malohat,
Ki bersang so'z bilan jonimg'a rohat" deya Xo'jandiyga murojaat qilgan hukmdor kim?
A) Mahmud Sulton
B) Dod Sipohsolor
C) Muhammad Xo'jabek
D) Jonibekxon

225. Sakkokiy asarlarini mutolaa qilish jarayonida uning kimlarning asarlaridan ijodiy oziqlanganini his etish mumkin?
1) Firdavsiy;
2) Nizomiy Ganjaviy;
3) Muslihiddin Sa'diy;
4) Hofiz Sheroziy.
A) 1, 2, 3
B) 2, 3
C) 3, 4
D) 1, 2, 3, 4

226. Navoiy qaysi shoirni "Turk alfozi (so'zlari) ning bullag'o (balog'atga erishgan) laridan", deb baholaydi?
A) Sakkokiyni
B) Atoyini
C) Lutfiyni
D) Gadoyini

227. Qaysi hukmdorning taxtga kelishi zulmatning chekinib, xurshidi zamon-munavvar kunlarning kelishiga qiyos etiladi?
A) Xalil Sulton
B) Mirzo Ulug'bek
C) Xo'ja Tarxon
D) Muhammad Xo'jabek

228. Atoiyning "Jamoling vasfini qildim chamanda" matlali g'azali necha baytdan iborat?

A) 5
B) 6
C) 7
D) 8

229. Atoiyning "Jamoling vasfini qildim chamanda"matlali g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "n"
B) mutlaq, "m"
C) muqayyad, "d"
D) mutlaq, "n"

230. Atoiyning qaysi g'azalida ma'shuqasi unga "Atoiy, ne ko'zi to'ymas gado emishtuksen" deydi?
A) "Ko'ngulni olg'ali..."
B) "Sipehri husn ichinda ..."
C) "Seni men ongladim ..."
D) "Qon bo'ldi ko'ngul"

231. Quyidagilardan adabiyot nazariyasiga oid asar yozgan shaxslarni aniqlang.
1) Navoiy;
2) Bobur;
3) Furqat;
4) Faxri Hirotiy;
5) Fitrat.
A) 1, 2
B) 1, 2, 4
C) 2, 3, 5
D) 1, 2, 3, 4, 5

232. "Radoyif ul-ash'or" asari muallifi berilgan qatorni toping.
A) Ahmad Taroziy
B) Anbar Otin
C) Faxri Hirotiy
D) Uvaysiy

233. Gadoiy qaysi hukmdor zamonida yashagan?
A) Husayn Boyqaro
B) Bobur Mirzo
C) Ulug'bek
D) Shohruh Mirzo

234. Quyidagi so'zlarni ma'nosi bilan muvofiq joylashtiring.
1) muqbil;
2) toroj;
3) dod;
4) gisu.
a) soch;
b) adolat;
c) baxtli;
d) o'g'irlik.
A) 1-c, 2-d, 3-b, 4-a
B) 1-d, 2-a, 3-b, 4-c
C) 1-b, 2-c, 3-d, 4-a
D) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a

235. Gadoiy "Sanga" g'azalining matlasida nimaga murojaat qiladi?
A) ko'ngilga
B) o'ziga
C) oy yuzli dilbarga
D) soqiyga

236. "Alhaq ushbu lutfi xulq-u husni istig'no bila, Kishvari ko'rk ichra sultonlig' musallamdur sanga" misralari kimning qalamiga mansub?

A) Gadoiy
B) Atoiy
C) Xorazmiy
D) Lutfiy

237. Atoiyning "Jamoling vasfini ..." g'azalidagi qofiyadosh so'zlar tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
1) chamanda;
2) anjumanda;
3) anda;
4) banda;
5) kafanda;
6) bayt ul-hazanda;
7) qanda;
8) badanda.
A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8
B) 1, 2, 7, 4, 5, 6, 3, 8
C) 1, 2, 7, 8, 5, 6, 3, 4
D) 1, 3, 7, 8, 5, 6, 2, 4

238. Gadoiy qaysi g'azalida o'z haddini bilmay, ko'zi o'tlikni sevgan oshiqqa (ya'ni o'ziga) "endi seni ishq o'ti qancha kuydursa ham, kamdir" deydi?
A) "Mubtalo bo'ldi yana"
B) "Unutma"
C) "Yana yoz bo'ldi-yu"
D) "Sanga"

239. "Qon yutarmen rashk elindin har kecha tongg'a degin –
Kim, nechuk bodi sabo hamroz-u hamdamdur sanga" misralari muallifi kim va baytda qo'llangan badiiy san'atni anglatuvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) Atoiy, "nazar tashlash, ishora"
B) Lutfiy, "chiroyli dalillash"
C) Gadoiy, "qarshilantirish"
D) Rudakiy, "ziynatlash"

240. "Ayb emastur gar parishonsen dog'i oshuftahol,
Ey Gado, chun orzuyi zulfi purxamdur sanga"
misralaridagi "zulf" nima?
A) soch
B) ko'z
C) so'z
D) yuz

241. Gadoiyning "Yoz fasli"g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "t"
B) mutlaq, "t"
C) muqayyad, "l"
D) mutlaq, "l"

242. "Hosil aytur: "Ul eshikda xorsen tuproqtek",
Og'zi -og'zig'a urung, so'zlasun izzat bila"
misralari muallifi kim va baytda qo'llangan badiiy san'atni anglatuvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) Atoiy, "qarshilantirish"
B) Lutfiy, "chiroyli dalillash"

C) Gadoiy, “o‘xshatish”
D) Rudakiy, “ziynatlash”

243. “Riyozat bag‘riga soldim o‘zumni, Imorat silkina torttim so‘zumni” misralari kimga tegishli?
A) Rudakiyga
B) P. Mahmudga
C) Firdavsiyga
D) Xo‘jandiyga

244. “Jamoli birla joning toza bo‘lsin, Shohim oti baland ovoza bo‘lsin. O‘zum birla o‘zum andesha qildim, Shohim madh-u duosin pesha qildim” deya o‘z hukmdori uchun o‘ziga xos madhnoma yozib qoldirgan shaxsni aniqlang.
A) Rudakiy
B) Sakkokiy
C) Firdavsiy
D) Xo‘jandiy

245. Sakkokiyning “Sentek jahonda ...” g‘azalida qofiyaning qaysi turi qo‘llangan va qofiyadosh so‘zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, “o”
B) mutlaq, “n”
C) muqayyad, “n”
D) mutlaq, “o”

246. Sakkokiyning boshdan oyoq savol tarzida yozilgan g‘azalini aniqlang?
A) “Sentek jahonda ...”
B) “Kim ermas ul ...”
C) “Ey gul ...”
D) “Ul sanamkim ...”

247. Sakkokiy kimga bag‘ishlangan qasidasida shohning tarafdorlariga to‘kin yoz kelgan bo‘lsa, dushmanlariga avji xazon-kuz keldi, deb yozadi?
A) Xalil Sulton
B) Mirzo Ulug‘bek
C) Xo‘ja Tarxon
D) Muhammad Porso

248. Sakkokiyning Ulug‘bekka bag‘ishlangan qasidasida qaysi sayyora(lar) nomi uchraydi?
1) Zuhro;
2) Atorud;
3) Kayvon;
4) Bahrom.
A) 1, 2, 3, 4
B) 2, 4
C) 1
D) 1, 3

249. Atoiyning “Ey orazi shams-u qamarim ...” deb boshlanuvchi g‘azali radifi keltirilgan qatorni aniqlang?
A) bo‘ldi
B) netti
C) ne bo‘ldi
D) netti, ne bo‘ldi

250. Atoiy "Netti, ne bo'ldi" g'azali birinchi baytining ikkinchi misrasida yoriga nima deb murojaat qiladi?
A) marhami jon-u jigarim
B) orazi shams-u qamarim
C) o'z qulidin bexabarim
D) tishlari dur-u guharim

251. "Gah javr ila o'ltur meni, gah noz ila, sendin Haqqoki mening yo'q guzarim, netti, ne bo'ldi?" misralaridagi "guzar" so'zi qaysi ma'noda qo'llangan?
A) iloj
B) ketish
C) o'tish
D) go'zallik

252. Atoiyning "Ko'ngul olg'ali ..." g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "n"
B) mutlaq, "d"
C) muqayyad, "d"
D) mutlaq, "n"

253. Qaysi shoir yor yuzini mus'haf-Qur'onga, meng-xolini oyatga o'xshatib, badiiy adabiyotda bir topilma qilgan?
A) Atoiy
B) Rudakiy
C) Gadoiy
D) Lutfiy

254. Qaysi shoir ijodida zulfi-sochining lashkari ko'zi bilan ittifoq tuzib, go'zallik mamlakatini egallab olgan ma'shuqa ta'riflanadi?
A) Gadoiy
B) Lutfiy
C) Rudakiy
D) Atoiy

255. Qaysi shoir yorga "agar sening kiprigingni uchi bilan qo'shib g'unchaga o'xshatsam, g'uncha quvonganidan to'niga sig'maydi" deb yozadi?
A) Gadoiy
B) Lutfiy
C) Rudakiy
D) Atoiy

256. Qaysi shoir ijodida Salsabil arig'ida nozlanib cho'milib shu ariq orqali jannat bog'idan o'tib, kavsar hovuziga suzib kelgan qiz obrazi mavjud?
A) Gadoiy
B) Lutfiy
C) Rudakiy
D) Atoiy

257. Qaysi shoir g'azalida "yor go'zalligi shu darajadaki, odamlar el yig'ilishida (majlisda) ichkilikdan mast bo'lsa, oshiq yor yuzi tufayli sarxush" deb yozadi?
A) Gadoiy
B) Lutfiy
C) Rudakiy
D) Atoiy

258. Atoiyning "Ey, begim" g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "r"
B) mutlaq, "r"
C) muqayyad, "d"
D) mutlaq, "d"

259. "Ey, begim, ushbu yuz degul, shams bila qamarmudur?
Ey, begim, ushbu so'z degul, shahd bila shakarmudur".
Baytda qanday badiiy san'at qo'llanilgan?
A) sifatlash, tazod
B) tashbeh, iyhom
C) tazod, tarse'
D) iyhom, tazod

260. Atoiyning "Sipehri husn ichinda ..." g'azalining radifini toping.
A) sen
B) moh sen
C) ichinda
D) sen-sen

261. Atoiyning "Seni men ongladim" g'azalining qofiyalanish tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) a-a, a-a, a-a
B) a-a, b-a, c-a
C) a-b, a-b, a-b
D) a-a, b-b, c-c

262. Qaroqchi ko'zlarin kim ko'rsa aytur:
"Ajab ayyori Turkistonmudur bu?"
misralari muallifi kim va baytda qo'llangan badiiy san'atni anglatuvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) Atoiy, "nazar tashlash, ishora"
B) Lutfiy, "chiroyli dalillash"
C) Gadoiy, "ziynatlash"
D) Rudakiy, "qarshilantirish"

263. "Mengiz yo ravzayi rizvonmudur bu?
Og'iz yo g'unchayi xandonmudur bu?"
misralari muallifi kim?
A) Atoiy
B) Lutfiy
C) Gadoiy
D) Rudakiy

264. Quyidagilardan devon tuzgan shoirni aniqalang?
A) Atoiy
B) Xorazmiy
C) Gadoiy
D) Lutfiy

265. Qaysi shoirning bir baytida ko'ngilning dastidan devona qalb yorga mubtalo bo'lib, buning natijasida jonga yana balo bo'lganligi aytiladi?
A) Gadoiy
B) Atoiy
C) Xorazmiy
D) Lutfiy

266. Gadoiyning "Unutma" g'azalining qofiyalanish tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) a-a, b-b, c-c
B) a-b, a-b, a-b
C) a-a, a-a, a-a
D) a-a, b-a, c-a

267. Gadoiyning "Unutma" g'azalining qofiyadosh so'zlari ketma-ketligi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang?
1) siyminbarim;
2) mahpaykarim;
3) shakarim;
4) g'oratgarim;
5) dilbarim;
6) kofarim.
A) 6, 3, 2, 4, 5, 1
B) 1, 3, 2, 4, 5, 6
C) 1, 4, 2, 3, 5, 6
D) 1, 3, 6, 4, 5, 2

268. "Garchi hasrat birla o'lturdung ... ni xor-u zor,
To qiyomat umr bersun haq sanga davlat bila".
Nuqtalar o'rniga kerakli ismni qo'ying.
A) Lutfiy
B) Gadoiy
C) Atoiy
D) Xorazmiy

269. "To'qson to'qquz yoshida olamdin o'tdi, qabri Dehikanordadur. O'z maskani erdi". Navoiyning asaridan keltirilgan ushbu ma'lumot kim haqida?
A) Lutfiy
B) Gadoiy
C) Atoiy
D) Rudakiy

270. Lutfiy o'zbek adabiyotini qaysi janrlar bilan boyitgan adibdir?
1) g'azal;
2) tuyuq;
3) qit'a;
4) ruboiy.
A) 1, 2
B) 2, 3, 4
C) 1, 2, 3
D) 2, 4

271. Lutfiy qaysi g'azalida "agar jon bo'lmasa, tandan; bulbul bo'lmasa, bahor-u gulshandan; ming haroratli bo'lsa ham, mehr-u vafosiz tandan nima naf-foyda" degan savolni o'rtaga tashlaydi?
A) "Nigoro, sensizin ..."
B) "Jonima ayting"
C) "Tortadur"
D) "Bu ko'ngul"

272. Lutfiyning "Nozuklik ichra ..." g'azali necha baytdan iborat?
A) 9
B) 6
C) 7
D) 5

273. "Ko'ngluma har yonki boqsam, dog'i (1) bor,
Har necha dardimni desam, dog'i (2) bor.

Qilcha tanga bori ishqing yor edi,
Bir sori bo'ldi firoqing dog'i (3) bor"
Ushbu tuyuqdagi shakldosh so'zlar ma'nosi to'g'ri berilgan javobni aniqlang.
A) 1-dog'i, 2-otashi, 3-yana
B) 1-yana, 2-otashi, 3-dog'i
C) 1-otashi, 2-yana, 3-dog'i
D) 1-yana, 2-dog'i, 3-otashi

274. "Avval qishlog'idagi diniy maktabda, so'ng Tus shahri madrasalarida tahsil oladi, otasi vafotidan so'ng bog'bonlik qiladi va taxallus sifatida o'ziga shu bog' nomini tanlaydi. Yoshligidan Sharq xalqlari tarixini zo'r zavq bilan o'rganadi: ko'p shahar va qishloqlarda bo'lib, mehnatkashlar og'zidan ko'hna rivoyatlarni yozib oladi".
Ushbu ta'rif kimga tegishli?
A) Rudakiy
B) Firdavsiy
C) Tusiy
D) Fuzuliy

275. "Shohnoma"da jangga bo'ridek kirib kelgan qahramon kim edi?
A) Afrosiyob
B) Suhrob
C) Rustam
D) Kovus shoh

276. Rudakiy qaysi Somoniy hukmdor saroyida 40 yil mobaynida shoirlarga boshchilik qiladi?
A) Ahmad ibn Nasr
B) Nuh ibn Ahmad
C) Nasr ibn Ahmad
D) Ma'mun ibn Ahmad

277. "Rudakiy qancha sher yozgan?
A) yuz ming baytdan ortiq
B) ellik ming baytdan ortiq
C) o'n ming misradan ortiq
D) o'n ming baytdan ortiq

278. Qaysi shoir bir baytida bu dunyoni aylanib turuvchi ko'zning soqqasiga o'xshatadi?
A) Atoiy
B) Lutfiy
C) Rudakiy
D) Gadoiy

279. "Faxri salotin", "davron shohi", "zamona mafxari", "sohibqiron", "arslon yuraklik", "zoti pok" deya ulug'langan hukmdorni aniqlang.
A) Mahmud Sulton
B) Dod Sipohsolor
C) Muhammad Xo'jabek
D) Jonibekxon

280. "Hamisha zoti poking bor bo'lsin,
Saodat, baxt-u davlat yor bo'lsun" misralari qaysi asarga tegishli?
A) "Qutadg'u bilig"
B) "Muhabbatnoma"

C) "Latofatnoma"
D) "Shohnoma"

281. Quyidagi qaysi hukmdor Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarini ko'chirtirgan shaxs sifatida tarixda qolgan?
A) Boysung'ur Mirzo
B) Arslon Xo'ja Tarxon
C) Mirzo Ulug'bek
D) Xalil Sulton

282. "Yuzingni qilur toza ko'zum yoshi-yu ohim,
Gul toza bo'lur topsa vale ob-u havoni".
Baytda qanday she'riy san'at qo'llanilgan?
A) talmeh
B) tarse'
C) tazod
D) tamsil

283. "Oyina sening yuzing ko'rubon,
Lof ursa, yuzunda yo'q safosi".
Baytda qo'llanilgan she'riy san'atning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) "chiroyli dalillash"
B) "biror narsani omonatga olmoq"
C) "nazar tashlash"
D) "ziynatlash"

284. Atoiyning ijodida, ayniqsa, nima alohida o'rin tutadi?
A) dostonchilik
B) g'azalchilik
C) ruboiychilik
D) qissachilik

285. Kimning g'azallari tili sodda, ravon, yengil, vaznlarining o'ynoqiligi, tasvirining quymaligi va yuksak badiiyati, nafis tasvirlar, dilbar ohanglarga to'liqligi, bilan ajralib turadi.
A) Sakkokiy
B) Gadoiy
C) Atoiy
D) Lutfiy

286. Atoiyning "Netti, ne bo'ldi" g'azali necha baytdan iborat?
A) 9
B) 6
C) 7
D) 8

287. Atoiyning "Netti, ne bo'ldi" g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "m"
B) mutlaq, "r"
C) muqayyad, "d"
D) mutlaq, "n"

288. Atoiyning "Netti, ne bo'ldi" g'azalida "Xamsa"ning qaysi qahramonlari nomi tilga olinadi?
A) Xusrav va Shirin
B) Layli va Majnun
C) Mehr va Suhayl

D) Farhod va Shirin

289. Qaysi shoir g'azalida go'zal yor xokisor oshiqning yuziga oyog'ini bosgan ekan, oyog'i og'ribdi, "yuzing buncha bo'yradek dag'al bo'lmasa", deb nozlangani haqida so'z boradi?
A) Rudakiy
B) Gadoiy
C) Atoiy
D) Lutfiy

290. Sulaymon payg'ambarning sevgilisi Bilqis yashagan afsonaviy shahar nomini toping.
A) Andolus
B) Eram
C) Sabo
D) Chunor

291. Atoiyning "Sipehri husn ichinda ..." g'azalining qofiyalanish tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) a-a, a-a, a-a
B) a-a, b-a, c-a
C) a-b, a-b, a-b
D) a-a, b-b, c-c

292. Atoiyning "Sipehri husn ichinda ..." g'azalida qaysi payg'ambar nomi tilga olinadi?
A) Muso
B) Nuh
C) Yusuf
D) Iso

293. "Tiriklik hosili, ey yor, dardi,
Gar o'lsam anda ham hamroh, sen-sen" misralari muallifi kim?
A) Lutfiy
B) Gadoiy
C) Atoiy
D) Rudakiy

294. Quyidagi qaysi asarda Gadoiyning fors-tojik tilida yaratilgan g'azali mavjud?
A) "Yatimat ad-dahr"da
B) "Tazkirat ush-shuaro"da
C) "Radoyif ul-ash'or"da
D) "Mezon ul-avzon"da

295. "Do'sttin oyirdi bu charxi jafogustar yana,
Ey darig'o, hojati dushman ravo bo'ldi yana" misralari muallifi kim va baytda qo'llangan badiiy san'atni anglatuvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) Atoiy, "nazar tashlash, ishora"
B) Lutfiy, "chiroyli dalillash"
C) Gadoiy, "qarshilantirish"
D) Rudakiy, "ziynatlash"

296. Gadoiyning "Sanga"g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "m"
B) mutlaq, "m"

C) muqayyad, "r"
D) mutlaq, "r"

297. Gadoiy "Yoz fasli"g'azalining nechanchi baytida ko'ngilga murojaat qiladi?
A) 1
B) 2
C) 5
D) 6

298. "Makorim ul-axloq"da keltirilishicha, Navoiy Lutfiyning huzurida qaysi g'azalini o'qib uning lutfiga sazovor bo'ladi?
A) "Kecha kelgumdur ..."
B) "Qaro ko'zum ..."
C) "Ko'rgali husningni ..."
D) "Orazin yopqoch ..."

299. Kimning g'azallarida inson ma'naviy olamining o'ziga xos go'zalliklari, go'zal tabiat tarovatining takrorlanmasligi ham ohorli misralarda tasvirlanadi?
A) Lutfiy
B) Gadoiy
C) Atoiy
D) Rudakiy

300. "Qon yoshim erur yuz uza yulduz kibi sonsiz,
Ul ko'zlari cho'lpon, mahi tobonima ayting"misralari muallifi kim va baytda qo'llangan badiiy san'atni anglatuvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) Atoiy, "qarshilantirish"
B) Lutfiy, "chiroyli dalillash"
C) Gadoiy, "o'xshatish"
D) Rudakiy, "ziynatlash"

301. "Javr etsa, mehr umidi tutarmen hanuzkim,
Bir tavr qolmas odamining xislat-u xo'yi" bayti kimga tegishli?
A) Atoiy
B) Lutfiy
C) Gadoiy
D) Rudakiy

302. "Shohnoma"da Suhrob qaysi yurtdan bo'ladi?
A) Eron
B) Chin
C) Rum
D) Turon

303. "Zamona aynadi, men ham tamoman o'zgardim.
Asomni qo'lga ber endi, u boshqa davron edi" misralari muallifi kim?
A) Atoiy
B) Lutfiy
C) Rudakiy
D) Gadoiy

304. Hirot tabiatiga oshiq bo'lib, poytaxt Buxoroga qaytishni istamagan Somoniy Nasr ibn Ahmadni o'z she'ri bilan ortiga qaytara olgan shoirni aniqlang?
A) Atoiy

B) Rudakiy
C) Lutfiy
D) Gadoiy

305. Kim "Qarilikdan shikoyat" nomli she'r yozgan?
A) Atoiy
B) Rudakiy
C) Lutfiy
D) Gadoiy

306. Nodonlikni Pahlavon Mahmud qattiq qorlagan. Kim yana nodonlik haqida quyidagi baytni bitgan:
"Nodonlikdan yomonlik keladi faqat,
Nodonga yondashma, bosmasin g'aflat"?
A) Saroyi
B) Rudakiy
C) Yugnakiy
D) Firdavsiy

307. "Yomonga qo'shilma, bo'lursan yomon,
Qarosin yuqtirar doimo qozon" misralari muallifi kim va baytda qo'llangan badiiy san'atni anglatuvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) Firdavsiy, "chiroyli dalillash"
B) Saroyi, "qarshilantirish"
C) Rabg'uziy, "nazar tashlash, ishora"
D) Rudakiy, "ziynatlash"

308. Somoniy hukmdor Nasr ibn Ahmad saroyida 40 yil mobaynida shoirlarga boshchilik qilgan allomani aniqlang.
A) Firdavsiy
B) Umar Xayyom
C) Hofiz She'roziy
D) Rudakiy

309. Quyidagi qaysi alloma bir necha musiqa asboblarini juda mahorat bilan chala olgan?
A) Firdavsiy
B) Umar Xayyom
C) Hofiz She'roziy
D) Rudakiy

310. "Saxovat bobida chun Hotami Tay,
Shijoat mulkida chun Kovus-u Kay.
Qiliching haybatidan Rustami Zol,
Qilibdur dunyoda g'or ichra inzol". Ushbu misralar kimni madh etmoqda?
A) Xalil Sulton
B) Muhammad Xo'jabek
C) Mahmud Sulton
D) Mirzo Ulug'bek

311. "Uyg'ur iboratining fusahosidin va turk alfozining bulag'osidin Mavlono Sakkokiy va Mavlono Lutfiykim, birining shirin abyoti ishtihori Turkistonda beg'oyat va birining latif g'azaliyoti intishori Iroq va Xurosonda benihoyatdurur ham devonlari mavjud

bo'lgay". Ushbu ta'rif muallifi kim?
A) Husayn Boyqaro
B) Alisher Navoiy
C) Davlatshoh Samarqandiy
D) Muhammad Bobur

312. Quyidagi qaysi adibning g'azallarida ishq, oshiqlik, hijron iztiroblari, visol lazzati, oshiq qalb kechinmalari juda ustalik bilan tasvirlanadi?
A) Rudakiy
B) Atoyi
C) Sakkokiy
D) Lutfiy

313. Sakkokiyning "Ey gul ..." g'azali necha baytdan iborat?
A) 5
B) 6
C) 7
D) 8

314. Sakkokiy kimga bag'ishlangan qasidasida "bu shahning lashkari qaysiki viloyat sori azm etsa, falakdin har zamon ul dam nidoyi "al-amon" keldi" deb yozadi?
A) Xalil Sulton
B) Mirzo Ulug'bek
C) Xo'ja Tarxon
D) Muhammad Porso

315. "Mavlono Atoiy Balxda bo'lur erdi. Ismoil ota farzandlaridandur, darveshvash va xushxulq, munbasit kishi erdi". Ushbu ma'lumot qaysi asardan olingan?
A) "Tazkirat ush-shuaro"
B) "Majolis un-nafois"
C) "Muhokamat ul-lug'atayn"
D) "Tarixi mulki ajam"

316. Atoyi qaysi g'azalida yorsiz o'tgan kunlarini Ya'qubning ayriliqdagi hayotiga qiyos etadi?
A) "Ko'ngulni olg'ali..."
B) "Jamoling vasfini..."
C) "Netti, ne bo'ldi"
D) "Qon bo'ldi ko'ngul"

317. Atoyi qaysi g'azalining maqatsida o'zi uchun oliy mansablar, yuqori lavozimlar emas, balki o'z ma'shuqasining go'zalligiga qul bo'lishni oliy baxt deb bilishini aytadi?
A) "Ko'ngulni olg'ali..."
B) "Jamoling vasfini..."
C) "Netti, ne bo'ldi"
D) "Qon bo'ldi ko'ngul"

318. Atoiy "Netti, ne bo'ldi" g'azalining ikkinchi baytida yoriga nima deb murojaat qiladi?
A) marhami jon-u jigarim
B) orazi shams-u qamarim
C) o'z qulidin bexabarim
D) tishlari dur-u guharim

319. Kim ma'shuqasini husn bobida Yusufga, malohatda

Misr sultoniga qiyoslaydi?
A) Atoiy
B) Lutfiy
C) Gadoiy
D) Rudakiy

320. Atoiyning qaysi g'azalida yorini "maloyik xo'yluq-farishta axloqli" deb ataydi?
A) "Mengiz yo ravzayi ..."
B) "Sipehri husn ichinda ..."
C) "Seni men ongladim ..."
D) "Qon bo'ldi ko'ngul"

321. Atoiyning "Mengiz yo ravzayi ..." g'azalida qaysi payg'ambar nomi tilga olinadi?
A) Muso
B) Nuh
C) Yusuf
D) Iso

322. Atoiy "Netti, ne bo'ldi" g'azalining oltinchi baytida yoriga nima deb murojaat qiladi?
A) marhami jon-u jigarim
B) orazi shams-u qamarim
C) o'z qulidin bexabarim
D) tishlari dur-u guharim

323. Atoiy qaysi g'azalidayorining yuzidagi tuklarini g'ubori xat, rayhonga o'xshatadi?
A) "Mengiz yo ravzayi ..."
B) "Sipehri husn ichinda ..."
C) "Seni men ongladim ..."
D) "Qon bo'ldi ko'ngul"

324. Atoiy "Netti, ne bo'ldi" g'azalining oxirgi baytida yoriga nima deb murojaat qiladi?
A) marhami jon-u jigarim
B) lablari shahd-u shakarim
C) o'z qulidin bexabarim
D) tishlari dur-u guharim

325. "Atoiyni ko'rub ko'yinda aytur:
Hamul miskini sargardonmudur bu"? misralari Atoiyning qaysi g'azaliga tegishli?
A) "Qon bo'ldi ko'ngul"
B) "Mengiz yo ravzayi ..."
C) "Sipehri husn ichinda ..."
D) "Seni men ongladim ..."

326. Gadoiy "Mubtalo bo'ldi yana" g'azalining beshinchi baytida kimga yoki nimaga murojaat qiladi?
A) abir (anbar) ga
B) o'ziga
C) shum raqibga
D) yorning itiga

327. Gadoiyga qaysi g'azali Navro'z ayyomida yozilgan?
A) "Mubtalo bo'ldi yana"
B) "Unutma"
C) "Yana yoz bo'ldi-yu"
D) "Sanga"

328. Lutfiy qaysi g'azalida besh so'zdan iborat radif qo'llagan?
A) "Nigoro, sensizin ..."
B) "Jonima ayting"

C) "Tortadur"
D) "Bu ko'ngul"

329. Lutfiyning "Bu ko'ngul" g'azali radifi berilgan qatorni aniqlang.
A) bu ko'nguldur, bu ko'ngul
B) bu ko'nguldur
C) bu ko'ngul
D) qiladurg'on, bu ko'nguldur, bu ko'ngul

330. Lutfiy "Ayoqingg'a tushar"g'azali aruzning qaysi bahrida yozilgan?
A) hazaji musaddasi mahzuf
B) ramali musaddasi mahzuf
C) rajazi musammani solim
D) mutaqoribi musammani solim

331. Lutfiyning "Ayoqingg'a tushar"g'azalidagi maqollar ketma-ketligi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang?
1) Charog' tubi qarong'u;
2) Qo'rqar, qaydakim qon ko'rsa hindu;
3) Kishining ko'zidur, ore, tarozu;
4) Oqqan ariqqa oqar suv;
5) Tilaganni tilogu.
A) 1, 4, 3, 2, 5
B) 1, 2, 4, 5, 3
C) 1, 5, 2, 3, 4
D) 1, 3, 4, 2, 5

332. Lutfiy "Ayoqingg'a tushar"g'azalining nechanchi baytida yorining yuzini oy bilan quyoshdan ham ortiq deb ta'riflaydi?
A) 5
B) 3
C) 4
D) 2

333. Quyidagi qaysi ijodkor taxallusining ma'nosi "jannat" degan ma'noni anglatadi?
A) Maxmur
B) Firdavs
C) Behbud
D) Munis

334. 941-yilda Eronning Tus shahri yaqinidagi Boj qishlog'ida o'rtahol oilada tug'ilgan ijodkorni aniqlang.
A) Rudakiy
B) Firdavsiy
C) Tusiy
D) Nasimiy

335. "To'g'rilikdan kelmish hamma yaxshi ot,
Egrilikdan ko'rmadi bir zot.
Shirin so'zli bo'l, ey sen bilimdon,
Tiling sovuq so'z-la bulg'arma oson".
Ushbu fikrlar muallifi bo'lgan shaxs qanday oilada dunyoga kelgan?
A) chorvador
B) hunarmand
C) dehqon
D) novvoy

336. "Aqlli bo'l, bo'lgin beziyon,
Hamisha tilingga bo'lgin
posbon" misralari muallifi
kim?
A) Saroyi
B) Rudakiy
C) Yugnakiy
D) Firdavsiy

337. "Mehnat tagidadir, ey
oqil, har ganj,
Ganj topmas hech kimsa
tortmas esa ranj.
Hunar birla aqling
birikkan hamon,
Har ish bu jahonda
yurishgan ravon".
Ushbu o'gitlar qaysi asarga
tegishli ekanligini aniqlang.
A) "Hibat ul-haqoyiq"
B) "Shohnoma"
C) "Yatimat ad-dahr"
D) "Gulistoni bit-turkiy"

338. "Nayzasi uchidan
tomar erdi qon,
Go'yo ovi baror kelgan bir
qoplon".
Ushbu misralarda qaysi
qahramon tasvirlangan?
A) Suhrob; "Shohnoma"
B) Jobir; "Mehr va
Suhayl"
C) Doro; "Saddi
Iskandariy"
D) Rustam; "Shohnoma"

339. "Shohnoma"gi "Unga
dedi: "Ey turk, beaql
xunxo'r,
Bulardan kim sen-la
urishgani bor?!
Nechun bor kuchingni
menga ko'rsatmay,
Qon to'kasan qo'tan ichra
bo'riday?" so'zlari kimga
tegishli?
A) Afrosiyob
B) Suhrob
C) Rustam
D) Kovus shoh

340. Rudakiy qaysi janrda
tengsiz bo'lgan?
A) ruboiy va g'azalchilikda
B) noma va qasidachilikda
C) masnaviy va
ruboiychilikda
D) tuyuq va g'azalchilikda

341. Navoiy Mavlono Lutfiy
va Sakkokiyning baytlari
va g'azallari qayerlarda
mashhur bo'lganligi aytadi?
A) Turkiston, Iroq,
Xurosonda
B) Qoshg'ar, Shom, Hindda
C) Rum, Iroq, Balujustonda
D) Xuroson va Samarqanda

342. "Sakkokiy" so'zining
ma'nosi nima?
A) pichoq
B) qilich
C) jang qilmoq
D) pichoqchi

343. Quyidagi qaysi adibning
tug'ilgan va vafot etgan yili
noma'lum?
A) Sayfi Saroyi
B) Lutfiy
C) Sakkokiy
D) Rudakiy

344. Sakkokiy Ulug'bekning adolatini kimga qiyos etadi?
A) No'shiravonga
B) Sulaymoni zamonga
C) Atoga
D) Qaysari Rumga

345. Sakkokiy Ulug'bekning mehribonligini kimga qiyos etadi?
A) No'shiravonga
B) Sulaymoni zamonga
C) Atoga
D) Qaysari Rumga

346. Atoyi haqidagi ma'lumotlar Navoiyning qaysi asarida uchraydi?
A) "Majolis un-nafois"
B) "Muhokamat ul-lug'atayn"
C) "Tarixi mulki ajam"
D) "Mahbub ul-qulub"

347. Eski o'zbek tiliga oid quyidagi so'zlarni o'z ma'nosi bilan muvofiq joylashtiring?
1) kamand;
2) lavand;
3) cherik;
4) usurmoq;
5) to'squ;
6) sog'in.
a) arqon;
b) dangasa;
c) askar;
d) mast bo'lmoq;
e) boshqa;
f) qadah.
A) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d, 5-f, 6-e
B) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d, 5-e, 6-f
C) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c, 5-e, 6-f
D) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d, 5-e, 6-f

348. Atoiyning qaysi g'azalida Farhod va Shirin qahramonlari nomi tilga olinadi?
A) "Ko'ngulni olg'ali..."
B) "Jamoling vasfini..."
C) "Ey orazi shams-u ..."
D) "Qon bo'ldi ko'ngul"

349. Atoiy "Netti, ne bo'ldi" g'azalida muhabbatining ovozasini kimning muhabbatidek dunyoga yoyildi deydi?
A) Xusrav
B) Majnun
C) Yusuf
D) Farhod

350. Atoiyning "Ko'ngul olg'ali ..." g'azali necha baytdan iborat?
A) 7
B) 6
C) 9
D) 8

351. Atoiyning "Ko'ngul olg'ali ..." g'azalining maqtasi berilgan qatorni aniqlang.
A) Maqomi "Rost" ohanggi balandi
B) "Latofatnoma"din kechgay Xo'jandiy
C) Seningdek marhami jon dardmandi
D) Erur ul bog'bonlarning lavandi

352. Atoiy qaysi g'azalida "Atoiy she'rining lutfini bilsa, "Latofatnoma"din kechgay Xo'jandiy" deydi?
A) "Ko'ngulni olg'ali..."
B) "Jamoling vasfini..."
C) "Netti, ne bo'ldi"
D) "Qon bo'ldi ko'ngul"

353. Atoiyning "Sipehri husn ichinda ..." g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "h"
B) mutlaq, "h"
C) muqayyad, "o"
D) mutlaq, "o"

354. Atoiy qaysi g'azalida yorning tabassumli lablarini jon bag'ishlovchi-Isoga qiyos etadi?
A) "Ko'ngulni olg'ali..."
B) "Sipehri husn ichinda ..."
C) "Labing qonim to'karga ..."
D) "Qon bo'ldi ko'ngul"

355. Atoiyning "Sipehri husn ichinda ..." g'azalining nechanchi baytida ma'shuqasini fitnayi xirgoh deb ataydi?
A) 2
B) 3
C) 4
D) 5

356. "Ko'ngul dardig'a bir darmon qil emdi,
Chu jonim dardidin ogoh, sen-sen".
Baytda qo'llangan badiiy san'atni anglatuvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) "nazar tashlash, ishora"
B) "chiroyli dalillash"
C) "ziynatlash"
D) "qarshilantirish"

357. "... turkigo'ydur, balki mashohirdindur. Bobur Mirzo zamonida she'ri shuhrat tutti, yoshi to'qsondin o'tubdur". Parcha kimning asaridan olingan va kimni ta'riflamoqda?
A) Navoiyning "Majolis un-nafois" asaridan, Gadoiy
B) Hirotiyning "Radoyif ul-ash'or" asaridan, Lutfiy
C) Boburning "Muxtasar" asaridan, Atoiy
D) Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" asaridan, Sakkokiy

358. Lutfiyning "Tortadur" g'azali qofiyalanish tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) a-a, b-a, c-a
B) a-a, a-a, a-a
C) a-b, a-b, a-b
D) a-a, b-b, c-c

359. "Mayl etar o'z jinsig'a har jins o'zini lojaram,
Beli sori ul kamandi

anbarafshon tortadur"
misralari kimning
qalamiga mansub?
A) Atoiy
B) Lutfiy
C) Gadoiy
D) Rudakiy

360. Lutfiyning "Jononima ayting"g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "o"
B) mutlaq, "n"
C) muqayyad, "n"
D) mutlaq, "y"

361. "Jonim chiqadur dard ila,
jononima ayting,
Men xasta gado holini,
sultonima ayting"
misralarida qo'llangan badiiy san'atni anglatuvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) "nazar tashlash, ishora"
B) "qarshilantirish"
C) "bog'lanish", "munosabat"
D) "ziynatlash"

362. Lutfiyning "Bu ko'ngul" g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "o"
B) mutlaq, "n"
C) muqayyad, "n"
D) mutlaq, "y"

363. Lutfiyning "Charxi kajraftor elidin ..." she'ri qaysi janrda?
A) qit'a
B) g'azal
C) tuyuq
D) ruboiy

364. Lutfiyning "Agar sen bo'lmasang ..." she'ri qaysi janrda?
A) qit'a
B) g'azal
C) tuyuq
D) ruboiy

365. "Ey ko'ngul, yorsiz sango
ne bor, bor (1),
Qaydakim ul zulfi anbar
bor, bor (2).
Chek jafo-yu javr-u nozi
borini,
Bir kun o'lg'aykim,
degaydur: bor-bor (3)".
Ushbu tuyuqdagi shakldosh so'zlar ma'nosi to'g'ri berilgan javobni aniqlang.
A) 1-borgin, 2- mavjud, 3-jo'na
B) 1-mavjud, 2-borgin, 3-jo'na
C) 1-jo'na, 2-borgin, 3-mavjud
D) 1-borgin, 2-jo'na, 3-mavjud

366. "Ko'z yoshim tuproq ila
gar qotila (1),
Kelmagayman javridin,
haqqo, tila (2).

G'amzasi o'ltirdi-yu, ul bexabar,
Men agar o'lsam, ne g'am ul qotila (3)".
Ushbu tuyuqdagi shakldosh so'zlar ma'nosi to'g'ri berilgan javobni aniqlang.
A) 1-qotil, 2-haqdan so'ra, 3-qorishsa
B) 1-qorishsa, 2-qotil, 3-haqdan so'ra
C) 1-haqdan so'ra, 2-qorishsa, 3-qotil
D) 1-qorishsa, 2-haqdan so'ra, 3-qotil

367. "Charxi kajraftor elidin yozamen,
Chiqmadim hijron qishindin yoza men,
Bir meni yorliq bila yod etmas ul,
Har necha ul shahg'a qulluq yozamen".
Ushbu tuyuqdagi shakldosh so'zlar ma'nosi to'g'ri berilgan javobni aniqlang.
A) 1-yozaman, 2-yozga men, 3- shikoyat qilaman
B) 1-yozga men, 2-shikoyat qilaman, 3-yozaman
C) 1-yozaman 2-shikoyat qilaman, 3-yozga men
D) 1-shikoyat qilaman, 2-yozga men, 3-yozaman

368. "Shohnoma"gi "Turoniy sipoh Bu jangdan uzoqda edi begunoh.
Hech kim istamayin sen bilan urush,
Sendan boshlandi-ku ustiga yurish" so'zlari kimga tegishli?
A) Afrosiyob
B) Suhrob
C) Rustam
D) Kovus shoh

369. "Shohnoma"gi "Mayli, endi bo'ldi kech,
Erta tig' chekkanda olam yoritgich,
Bu maydonda bo'lg'ay ham minbar, ham dor,
Taqdirimiz yechar pok parvardigor" so'zlari kimga tegishli?
A) Rustam
B) Afrosiyob
C) Suhrob
D) Kovus shoh

370. Adib Sakkokiy qanday kasb bilan shug'ullangan?
A) dehqonchilik
B) chilangarlik
C) do'ppido'zlik
D) pichoqchilik

371. Sakkokiyning "Kim ermas ul oy mubtalosi" matlali g'azalining maqtasi berilgan qatorni aniqlang.
A) O'lmaktin azin yo'q ul davosi
B) Sakkokiyga bo'ldi jon g'izosi
C) Ne turfa erur bu turk balosi?
D) Lof ursa, yuzunda yo'q safosi

372. Sakkokiyning "Kim ermas ul oy mubtalosi" matlali g'azalining begona bayti berilgan qatorni aniqlang.

A) Kim ko'rsa aning ko'zini aytur:
Ne turfa erur bu turk balosi?
B) Turkona ir irlag'uncha oning,
Kuydurdi meni yalay-bulosi
C) Oyina sening yuzing ko'rubon,
Lof ursa, yuzunda yo'q safosi
D) Dard-u, g'am-u, ranj-u, men-u o'lmoq
Sakkokiyga bo'ldi jon g'izosi

373. Sakkokiyning "Sentek jahonda ..." g'azali necha baytdan iborat?

A) 5
B) 6
C) 7
D) 8

374. "Raiyat qo'y erur, sulton anga shubon-u yo bo'ri,
Bo'ri o'lg'o-yu qo'y ting'oy, chu Musotek shubon keldi".
Ushbu baytda tashbehning qaysi turi qo'llangan?

A) kinoya tashbeh
B) tashbehi sareh
C) tashbehi mashrut
D) tashbehi tafzil

375. "Salotin dunyoda ko'p keldi-yu, kechti seningtek bir,
Falakning gar tili bo'lsa ayitsunkim, qachon keldi" misralari kimga bag'ishlangan?

A) Xalil Sulton
B) Mirzo Ulug'bek
C) Xo'ja Tarxon
D) Muhammad Xo'jabek

376. "Mavlono Balxda bo'lur erdi. Ismoil ota farzandlaridandur, darveshvash va xushxulq, munbasit kishi erdi". "Majolis un-nafois"dan olingan ushbu ma'lumotlar kimga tegishli?

A) Atoiy
B) Lutfiy
C) Gadoiy
D) Sakkokiy

377. Atoiyning "Jamoling vasfini qildim chamanda" matlali g'azalining maqtasi berilgan qatorni aniqlang.

A) Kishi bilmas anikim, qoldi qanda
B) Eshiking tuprog'i basdur kafanda
C) Ayog'ing qayda bo'lsa, boshim anda
D) Atoyi sarvi ozodingg'a banda.

378. "Solib borma meni, ey Yusufi husn,
Bukun Ya'qubtek bayt ul-hazanda" misralarida

qo'llangan badiiy san'atni bildiruvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) "chiroyli dalillash"
B) "biror narsani omonatga olmoq"
C) "nazar tashlash", "ishora"
D) "ziynatlash"

379. "... she'rining lutfini bilsa, "Latofatnoma"din kechgay Xo'jandiy". Nuqtalar o'rniga kerakli ismni qo'ying.
A) Atoiy
B) Navoiy
C) Gadoiy
D) Lutfiy

380. Atoiyning "Qon bo'ldi ko'ngul" g'azalining qofiyalanish tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) a-a, a-a, a-a
B) a-b, a-b, a-b
C) a-a, b-a, c-a
D) a-a, b-b, c-c

381. Atoiyning qaysi g'azalida raviy qoidasi buzilgan: tirgak tovush tub so'zda asos oxirida emas, qo'shimcha oxirida?
A) "Ko'ngulni olg'ali..."
B) "Ul sanamkim"
C) "Ey, begim"
D) "Qon bo'ldi ko'ngul"

382. "Qoshlaring yosin Atoiy ko'rgali husn ichra toq, Subhidam mehroblarda surayi Yosin o'qur" misralari Atoiyning qaysi g'azalidan olingan?
A) "Ko'ngulni olg'ali..."
B) "Ul sanamkim"
C) "Ey, begim"
D) "Qon bo'ldi ko'ngul"

383. Atoiyning "Mengiz yo ravzayi ..."g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "n"
B) mutlaq, "n"
C) muqayyad, "r"
D) mutlaq, "r"

384. Kim yorining yuzini ravzayi rizvon-jannat bog'iga, og'zini g'unchayi xandon-kuluvchi g'unchaga o'xshatadi?
A) Atoiy
B) Lutfiy
C) Gadoiy
D) Rudakiy

385. Gadoiy qaysi g'azalining matlasida ko'ngilga murojaat qiladi?
A) "Mubtalo bo'ldi yana"
B) "Unutma"
C) "Yana yoz bo'ldi-yu"
D) "Sanga"

386. Gadoiy "Yoz fasli"g'azalining nechanchi baytida ra[illegible]ga murojaat qiladi?
A) 1

B) 3
C) 5
D) 7

387. "Chun azaldin g'ussa-yu g'amdur nasibing, ey ko'ngul,
Ne ishing bordur jahonda, shodi-yu lazzat bila" misralari muallifi kim va baytda qo'llangan badiiy san'atni anglatuvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) Atoiy, "nazar tashlash, ishora"
B) Lutfiy, "misol keltirish"
C) Gadoiy, "qarshilantirish"
D) Rudakiy, "ziynatlash"

388. "Yana yoz bo'ldi-yu, topti bo'ston nash'u namo,
Ey nasimi ruhparvar, hayra maqdam, marhabo" bayti kimning qalamiga mansub?
A) Lutfiy
B) Gadoiy
C) Atoiy
D) Rudakiy

389. "Emdi xushtur (moh) paykarlar bila gulgashtkim,
Bog'i rizvontek chaman bo'ldi latif-u jonfizo" misralaridaqo'llangan badiiy san'atni anglatuvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) "nazar tashlash, ishora"
B) "misol keltirish"
C) "bog'lanish", "munosabat"
D) "ziynatlash"

390. "Xoh o'ltur, xoh tirguz, ixtiyor ilgingdadur,
Ul sening noz-u itobingga mening jonim fido".
Bayt kimga tegishli?
A) Lutfiy
B) Gadoiy
C) Atoiy
D) Rudakiy

391. "Husn ichinda qudrati yazdoni sen-sen, yo habib,
Bu davrinda xo'blar xoni sen-sen, yo habib" misralaridagi "yazdon" kim?
A) oshiq
B) jannat
C) Olloh
D) ko'ngil

392. "Sochingdin chun o'g'urlar mushk xushbo'y,
Qilurlar band-band oni Xo'tanda" misralari muallifi kim va baytda qo'llangan badiiy san'atni anglatuvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) Atoiy, "chiroyli dalillash"
B) Lutfiy, "nazar tashlash, ishora"
C) Gadoiy, "qarshilantirish"
D) Rudakiy, "ziynatlash"

393. Lutfiyning "Ko'ngluma har yonki boqsam ..." she'ri qaysi janrda?

A) qit'a
B) g'azal
C) tuyuq
D) ruboiy

394. Kurashdan miriqdi ikki sheri mard,
Tanada xastalik, yuzlarida gard" misrlaridagi "ikki sher" deya ta'riflanayotgan qahramonlar kimning asarida uchraydi?
A) Navoiy
B) Saroyi
C) Muhammad Solih
D) Firdavsiy

395. Sakkokiyning "Kim ermas ul oy mubtalosi" matlali g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "i"
B) mutlaq, "s"
C) muqayyad, "v"
D) mutlaq, "o"

396. Sakkokiyning "Ey gul ..." g'azalining maqtasi berilgan qatorni aniqlang.
A) Sakkokiy sening yuzunga boqsa ko'rar oni
B) Yetmas sanga lekin tilagan dunyoda soniy
C) Bu ikki ko'zum la'l-u guhar bahri-yu koni
D) Kim ilgaru tutmas bo'yun-o'z bo'ynina qoni

397. Kim bir baytida yoriga qarata "sening oldingda habashiy-qoratan qul oydir, agar u bundan tonsa, yuzida dog' bo'ladi" deydi?
A) Atoyi
B) Gadoyi
C) Sakkokiy
D) Lutfiy

398. "Ushshoq qonin to'kkali elga qilich olsang,
Kim ilgaru tutmas bo'yun – o'z bo'ynina qoni" bayti Sakkokiyning qaysi g'azalidan olingan?
A) "Sentek jahonda ..."
B) "Kim ermas ul ..."
C) "Ey gul ..."
D) "Ul sanamkim ..."

399. Sakkokiyning yozishicha, kimning taxtga kelishi, go'yo "jonsiz tanga jon keldi" deya baholanadi?
A) Xalil Sulton
B) Xo'ja Tarxon
C) Muhammad Porso
D) Mirzo Ulug'bek

400. Sakkokiy Ulug'bekning ovozasini kimga qiyos etadi?
A) No'shiravonga
B) Sulaymoni zamonga
C) Atoga
D) Qaysari Rumga

401. Sakkokiy kimning davlat tepasiga kelishini bo'rilar o'ldi-yu, Musodek shubon-cho'pon keldi, deb yozadi?
A) Xalil Sulton

B) Mirzo Ulug'bek
C) Xo'ja Tarxon
D) Muhammad Porso

402. "Raiyat qo'y erur, sulton anga shubon-u yo bo'ri,
Bo'ri o'lg'o-yu qo'y ting'oy, chu Musotek shubon keldi".
Ushbu baytda nechta kinoya tashbeh bor?
A) 2 ta
B) 3 ta
C) 1 ta
D) 4 ta

403. Sakkokiy kimga bag'ishlangan qasidasida "shoh haybatli sher kabi keldi, dushmanlar tulki kabi qo'rqib, iniga kirib ochlikdan o'ldilar" deb yozadi?
A) Xalil Sulton
B) Mirzo Ulug'bek
C) Xo'ja Tarxon
D) Muhammad Porso

404. "Malaktek zuhd-u toatda ishingni muntaho qilding,
Bu ishdin lojaram sidra senga adno makon keldi" baytinig ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?
A) Xalqni sabr-toqatga o'rgatting, bundan davlating senga nasib etdi
B) Xalqni sabr-toqatga o'rgatting, bundan senga yettinchi osmondagi taxt mangu makon bo'ldi
C) Farishtadek toqatli bo'lding, butun taxt mangu makon bo'ldi
D) Farishtadek toatni oxiriga yetkazding, bundan senga yettinchi osmondagi taxt mangu makon bo'ldi

405. "Qachon Kayvon bikin onlar saroy-u toqi oliyg'a,
Tilosa posbonliqni, shahi Hinduston keldi".
Baytda qo'llanilgan she'riy san'atning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) "zidlantirish"
B) "misol keltirish"
C) "nazar tashlash"
D) "ziynatlash"

406. Sakkokiy Ulug'bekka atalgan qasidasida "sening bazmingga kelturub eshikka, go'yoki kanizak madhxon keldi" deya qaysi yulduzni kanizakka o'xshatadi?
A) Atorud
B) Zuhro
C) Mushtariy
D) Kayvon

407. Sakkokiy qaysi hukmdorni agar jangda qilichini o'ynatsa, dushmanlar qo'rqib "hay-hay qoching, barqi yomon keldi" deydilar deydi?
A) Xalil Sulton
B) Mirzo Ulug'bek
C) Xo'ja Tarxon
D) Muhammad Xo'jabek

408. Sakkokiyning Ulug'bekka bag'ishlangan qasidasida qaysi podshoh nomlari uchramaydi?
A) Shohruh
B) Sulaymon
C) No'shiravon
D) Iskandar

409. Sakkokiyning Ulug'bekka bag'ishlangan qasidasida Zardushtiylik dining qaysi obrazi tilga olinadi?
A) Ahura
B) Mitra
C) Ahriman
D) Asha

410. Sakkokiyning Ulug'bekka bag'ishlangan qasidasida quyidagi qaysi nom uchramaydi?
A) Muso
B) (Odam) Ato
C) Qorun
D) Xorut

411. Qaysi hukmdor "mabodiyi amon"-tinchlik, omonlik asosi, hayot tayanchi, "sururi jovidon"-abadiy shodlik garovi sifatida tasvirlangan?
A) Tavg'ach ulug' Bug'roxon
B) Muhammad Xo'jabek
C) Mahmud Sulton
D) Mirzo Ulug'bek

412. Navoiy kimni "... o'z zamonida atrok (turkiylar) orasida ko'p shuhrat tutti" deydi?
A) Atoiy
B) Lutfiy
C) Gadoiy
D) Sakkokiy

413. Qaysi shoir o'z g'azallarining birida gulzordagi gulning qizilligi faqat tabiiy rang emas, bu uyat, hayo hissi tufayli yuzda paydo bo'lgan rang deya buni "yorning go'zalligi" bilan isbotlashga harakat qiladi?
A) Rudakiy
B) Gadoiy
C) Atoiy
D) Lutfiy

414. "G'uncha sevunub to'nig'a sig'mas, O'xshatmas o'qung bashoqi birla" misralarida qo'llangan badiiy san'atni bildiruvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) "chiroyli dalillash"
B) "biror narsani omonatga olmoq"
C) "nazar tashlash"
D) "ziynatlash"

415. Qaysi shoir yorsiz hayotning ma'nosizligini aytib, "Chu jonimdin aziz jonona sensen, Kerakmas jon manga sensiz badanda" deydi?
A) Rudakiy

B) Gadoiy
C) Atoiy
D) Lutfiy

416. Qaysi shoir bir baytida "jannatga tushishim shart emas, kafalangan paytimda yor eshigidagi tuproqdan bir siqim tushsa, bas" deydi?
A) Rudakiy
B) Gadoiy
C) Atoiy
D) Lutfiy

417. "Marhami jon-u jigar", "orazi shams-u qamar", "tishlari dur-u guhar", "lablari shahd-u shakar", "o'z qulidin bexabar" yor obrazi kimning qaysi g'azalida uchraydi?
A) Gadoiyning "Unutma" g'azalida
B) Atoiyning "Netti, ne bo'ldi" g'azalida
C) Lutfiyning "Tortadur" g'azalida
D) Sakkokiyning "Ey gul ..." g'azalida

418. Qaysi shoir bir g'azalida yorini sog'inganidan oshiqning ko'zidan yosh emas daryo oqayotgani, u kipriklaridan sol yasab, mana shu daryoda suzayotgani manzarasini chizadi?
A) Atoiy
B) Rudakiy
C) Gadoiy
D) Lutfiy

419. Atoiyning qaysi g'azalida kipriklari jorib (supurgi), yuzini xokandoz qilishga tayyor oshiq holati aks etgan?
A) "Ko'ngulni olg'ali..."
B) "Jamoling vasfini..."
C) "Ey, begim"
D) "Qon bo'ldi ko'ngul"

420. Kim Atoiyni Balxda yashagani to'g'risida ma'lumot beradi?
A) Davlatshoh Samarqandiy
B) Taroziy
C) Mirxond
D) Navoiy

421. Atoiy qaysi g'azalida ma'shuqani xonga, oshiqni-o'zini oddiy askarga o'xshatadi?
A) "Ko'ngulni olg'ali..."
B) "Jamoling vasfini..."
C) "Netti, ne bo'ldi"
D) "Qon bo'ldi ko'ngul"

422. "Bodi saboki, kelturur jong'a soching nasimini, Shahri Saboning elchisi hudhudi xushxabarmudur?" misralarida qo'llangan badiiy san'atni anglatuvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) "chiroyli dalillash"
B) "qarshilantirish"
C) "nazar tashlash, ishora"
D) "ziynatlash"

423. "So'rsang Atoiy holidin netti, ey podshohi husn,
Lutf-u karam gadoyig'a tengri uchun, zararmudur?"
misralarida qo'llangan badiiy san'atni anglatuvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) "chiroyli dalillash"
B) "qarshilantirish"
C) "nazar tashlash, ishora"
D) "ziynatlash"

424. Atoiy qaysi g'azalida yorini "podshohi husn-go'zallar shohi" deb ataydi?
A) "Ko'ngulni olg'ali..."
B) "Jamoling vasfini..."
C) "Ey, begim"
D) "Qon bo'ldi ko'ngul"

425. Atoiyning "Ul sanamkim" g'azali necha baytdan iborat?
A) 7
B) 6
C) 9
D) 5

426. "Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek o'lturur,
G'oyati nozuklukindin suv bila yutsa bo'lur".
Ushbu baytda qanday san'at qo'llanilgan?
A) iyhom, litota
B) mubolag'a, tashbeh, takrir
C) tanosub, tamsil
D) tardi aks, giperbola, takrir

427. Atoiy qaysi g'azalida yorini g'azabnok Xulagu o'g'liga qiyos etadi?
A) "Ko'ngulni olg'ali..."
B) "Ul sanamkim"
C) "Labing qonim to'karga ..."
D) "Qon bo'ldi ko'ngul"

428. "Atoiy qulg'a bir lutf aylamassen,
Xulagu o'g'li, muncha ne g'azabtur?!"
Baytda qo'llangan badiiy san'atni aniqlang
A) iyhom, litota
B) mubolag'a, tashbeh
C) tanosub, tamsil
D) husni ta'lil, talmeh

429. Atoiyning "Seni men ongladim" g'azali necha baytdan iborat?
A) 7
B) 6
C) 9
D) 5

430. Atoiyning "Seni men ongladim" g'azalida qofiyaning qaysi turi qo'llangan va qofiyadosh so'zlardagi raviyni aniqlang?
A) muqayyad, "h"
B) mutlaq, "h"
C) muqayyad, "o"
D) mutlaq, "o"

431. Atoiyning "Mengiz yo ravzayi ..." g'azalining

qofiyalanish tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) a-a, a-a, a-a
B) a-a, b-a, c-a
C) a-b, a-b, a-b
D) a-a, b-b, c-c

432. Atoiyning "Mengiz yo ravzayi ..."g'azali necha baytdan iborat?
A) 7
B) 6
C) 9
D) 5

433. Atoiy qaysi g'azalida ma'shuqasini "maloyik xo'yluq-farishta axloqli" deb ataydi?
A) "Mengiz yo ravzayi ..."
B) "Sipehri husn ichinda ..."
C) "Seni men ongladim ..."
D) "Qon bo'ldi ko'ngul"

434. "Ey orazi shams-u qamarim, netti, ne bo'ldi? Vey tishlari dur-u guharim, netti, ne bo'ldi?" misralari muallifi kim?
A) Atoiy
B) Lutfiy
C) Gadoiy
D) Rudakiy

435. Quyidagilardan tazkira janrida bo'lmagan asarni aniqlang.
A) "Yatimat ad-dahr"
B) "Majolis un-nafois"
C) "Radoyif ul-ash'or"
D) "Mezon ul-avzon"

436. Quyidagilardan zullisonayn-ikki tilda ijod qilmagan adibni aniqlang.
A) Gadoiy
B) Xorazmiy
C) Navoiy
D) Yusuf Xos Hojib

437. Navoiy kimni "turkiygo'ydir" deydi?
A) Atoiy
B) Lutfiy
C) Gadoiy
D) Rudakiy

438. Navoiy Gadoiyning kimning zamonida she'ri shuhrat tutti, deydi?
A) Muhammad Bobur
B) Bobur Mirzo
C) Ulug'bek
D) Bobur Mirzo

439. "Dilbaro, sensiz tiriklik bir baloyi jon emish, Kim aning dardi qoshida, yuz o'lum hayron emish" misralari kimga tegishli?
A) Atoiy
B) Lutfiy
C) Gadoiy
D) Rudakiy

440. "Buti siyminbarim, bizni unutma, Dudoqi shakarim, bizni unutma" misralari muallifi bo'lgan adibning devonida qaysi janrdagi she'rlar mavjud emas?
A) mustazod
B) qit'a

C) tarji'band
D) g'azal

441. "Xushdurur oyo pari paykar bila gulkashtkim, Bo'ston-u bog'i Eramtek, dilkusho bo'ldi yana" misralari muallifi kim va baytda qo'llangan badiiy san'atni anglatuvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) Atoiy, "qarshilantirish"
B) Lutfiy, "chiroyli dalillash"
C) Gadoiy, "nazar tashlash, ishora"
D) Rudakiy, "ziynatlash"

442. "Sevar jonim, begim, xonim, umidim, Azizim, dilbarim, bizni unutma" misralari kimga tegishli?
A) Gadoiy
B) Atoiy
C) Xorazmiy
D) Lutfiy

443. Gadoiyning "Sanga" g'azalining qofiyalanish tartibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
A) a-a, b-b, c-c
B) a-b, a-b, a-b
C) a-a, a-a, a-a
D) a-a, b-a, c-a

444. "Olloh-olloh, bu malomatkim, zulol erningdadir, Xizrning sarchashmayi hayvoni sen-sen; yo habib" misralarida qo'llangan badiiy san'atni anglatuvchi so'zning ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
A) "nazar tashlash, ishora"
B) "misol keltirish"
C) "bog'lanish", "munosabat"
D) "ziynatlash"

445. Gadoiyning qaysi g'azalida Xizr nomi keltirilgan?
A) "Mubtalo bo'ldi yana"
B) "Unutma"
C) "Yana yoz bo'ldi-yu"
D) "Sanga"

446. "Ul labi jonbaxshni ko'rgach ravone angladim-Kim, jarohatliq ko'ngil darmone sen-sen, yo habib" misralaridagi "habib" so'zining ma'nosi nima?
A) dunyo
B) do'st
C) yaxshi kishi
D) yomon kishi

447. "To'qson to'qquz yoshida olamdin o'tdi, qabri Dehikanordadur. O'z maskani erdi". Lutfiy haqidagi ushbu ma'lumot kimning qaysi asaridan olingan?
A) Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat"
B) Xondamirning "Makorim ul-axloq"
C) Juvayniyning "Tarixi

jahonkushoy"
D) Mirxondning "Ravzat us-safo"

448. Navoiy qaysi shoirning o'ziga nisbatan kata muhabbati borligi haqida "Bu faqir borasig'a ko'p iltifoti bor erdi va fotihalar o'qur erdi" degan?
A) Lutfiy
B) Gadoiy
C) Atoiy
D) Rudakiy

449. Quyidagilardan Xondamirga tegishli asarni aniqlang?
A) "Nasoyim ul-muhabbat"
B) "Makorim ul-axloq"
C) "Tarixi jahonkushoy"
D) "Ravzat us-safo"

450. Lutfiyning "Bu ko'ngul" g'azali necha baytdan iborat?
A) 9
B) 6
C) 7
D) 5

451. Lutfiy "Ayoqingg'a tushar"g'azalida "Ayoqingg'a tushar har lahza gisu" misrasi uchun qaysi maqolni ishlatadi?
A) Kishining ko'zidur, ore, tarozu
B) Charog' tubi qarong'u
C) Qo'rqar, qaydakim qon ko'rsa hindu
D) Oqqan ariqqa oqar suv

452. Lutfiy "Ayoqingg'a tushar"g'azalida "Tutarmen ko'zki, ko'rsam orazingni" misrasi uchun qaysi maqolni ishlatadi?
A) Kishining ko'zidur, ore, tarozu
B) Charog' tubi qarong'u
C) Qo'rqar, qaydakim qon ko'rsa hindu
D) Oqqan ariqqa oqar suv

453. Lutfiyning "Agar sen bo'lmasang ..." g'azali necha baytdan iborat?
A) 9
B) 6
C) 7
D) 5

454. Lutfiy qaysi g'azalida yorsiz guldek chamanni bayt ul-hazan-g'am uyiga qiyoslaydi?
A) "Agar sen bo'lmasang ..."
B) "Jonima ayting"
C) "Tortadur"
D) "Bu ko'ngul"

455. Lutfiy qaysi g'azalida "agar falak yulduz kabi xo'b-ma'qul (suluv) larni yig'sa, u majmuada yuzing quyosh-bosh bo'ladi" deydi?
A) "Agar sen bo'lmasang ..."
B) "Jonima ayting"
C) "Tortadur"
D) "Bu ko'ngul"

456. Lutfiyning "Agar sen bo'lmasang..." g'azalida talmeh san'atiga asos bo'ladigan qaysi joy nomlari tilga olinadi?
A) Yaman, Xo'tan, Adan
B) Mochin, Adan, Turkiston
C) Hijoz, Shom, Rum
D) Sabo, Bihishtsaro, Adan

457. "Har ikkisin oti olsa-da orom,
Urush topmagandi hali saranjom,
Har ikkisi tengdan tortishdi kamon,
Keksa jangchi bilaya gurdi navqiron" misrlaridagi "har ikkisi" kim?
A) Farhod va Xusrav
B) Qoraxon va Hasanxon
C) Rustam va Suhrob
D) Doro va Iskandar

458. "Chol qaddi sarvdek tik bo'lsa ham gar,
Yosh qilig'in qilsa betamiz, ovsar"
misralari qaysi asardan olingan?
A) "Shohnoma"
B) "Saddi Iskanadariy"
C) "Miftoh ul-adl"
D) "Gulistoni bit-turkiy"

459. "Ikkisi bir-birin etdi haqorat,
Jahon tor kelgandi bularga g'oyat"
misralaridagi "ikkisi" kim?
A) Jobir va Suhayl
B) Farhod va Xusrav
C) Doro va Iskandar
D) Rustam va Suhrob

460. "Shohnoma"da qaysi qahramon ovdagi qoplonga o'xshatiladi?
A) Afrosiyob
B) Suhrob
C) Rustam
D) Taxmasp

461. "Shohnoma"da Rustam qaysi yurtdan bo'ladi?
A) Eron
B) Chin
C) Rum
D) Turon

462. "Shohnoma"da qaysi qahramon "to'kkan qonidan zamin loy erdi" deya ta'riflanadi?
A) Afrosiyob
B) Suhrob
C) Rustam
D) Kovus shoh

# MA'RUFJON DUSTMURODOV

# ADABIYOT

## SAVOLLAR TO'PLAMI

## I QISM

**Muharrir:** Ibrohim Yuldashev
**Rassom:** A. Qo`chqorov
**Badiy muharrir:** Q. Zukurov
**Texnik muharrir:** F. Voxidov
S [illegible]
[illegible]onov

**"ADABIYOT UCHQUNLARI"** nashriyoti.
Litsenziya 41 № 239 2013-yil, 4-iyul
Manzil: 100027, Toshkent,
O`qchi ko`chasi, 29 uy.

Bosishga 15.02.2016 yilda ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 $^{1}/_{32}$.
Hajmi 14,25 b.t. Adadi 3000 nusxa.
Buyurtma №89.

**"ADAD PLYUS"** MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., Bunyodkor 28-uy.

MA'RUFJON DUSTMURODOV

# ADABIYOT

SAVOLLAR TO'PLAMI



ISBN 978-9943-992-28-3